

**G.G'AFUROVA,  
V.N. AXMEDOV,  
N.SH.PANOYEV,  
D.N.HIKMATOV**

**ANALITIK KIMYODAN LABARATORIYA VA AMALIY  
MASHG'ULOTLAR**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

---

**G.G'AFUROVA, V.N. AXMEDOV, N.SH.PANOYEV, D.N.HIKMATOV**

**ANALITIK KIMYODAN LABARATORIYA VA AMALIY  
MASHG'ULOTLAR**

**TOSHKENT 2021**

**UDK**  
**KBK**  
**O-**

**ANALITIK KIMYODAN LABARATORIYA VA AMALIY  
MASHG'ULOTLAR : Qo'llanma/ V.N. Axmedov va boshqalar; . O'zR Oliy va  
o'rta maxsus ta'limi vazirligi.-T.:-----2020. ----b.**

**UDK**  
**KBK**

Taqrizchilar: t.f.d.,prof M.R.Amonov (BuxDU professori)  
k.f.d.,prof H.B.Do'stov (BuxMTI professori)

## **Annotasiya**

Ushbu o'quv qo'llanmada analitik kimyodan labaratoriya va amaliy mashg'ulotlarni bajarish, test yechish va masala ishlash ko'nikmalarga ega bo'lishga yo'naltirilgan tartibda ma'lumotlar keltirilgan. Qo'llanma "Neftgazkimyo sanoati texnologiyasi" va kimyoviy texnologiya ta'lim yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan.

## **Аннотация**

В этом пособие представлена информация по аналитической химии для развития лабораторных и практических навыков, навыков решения тестов и решения проблем. Пособие предназначено для студентов, обучающихся по специальностям «Нефтехимическая технология» и химическая технология.

## **Annotation**

This handbook provides information on analytical chemistry in order to develop laboratory and practical skills, test solving, and problem-solving skills. The manual is intended for students majoring in Petrochemical Technology and Chemical Technology.

## MUNDARIJA

|   |     |
|---|-----|
| <b>Kirish.....</b>  | 4   |
| Laboratoriya mashg‘uloti  |     |
| Kimyo laboratoriyalarida rioya etilishi shart bo’lgan xavfsizlik qoidalari.   |     |
| Kimyoviy asbob uskunalar bilan tanishish, ularda ishlash  |     |
| tartibi.....  | 5   |
| <b>KIMYOVİY ANALİZİNİNG ASOSIY TUSHUNCHALARI.....</b>   | 6   |
| I-II guruh kationlarini ochish reaksiyalarini va aralashmasini analizini bajarish.....  | 31  |
| III analitik guruh kationlarini ochish reaksiyaları va aralashmasining analizini bajarish.....  | 40  |
| IV analitik guruh kationlarini ochish reaksiyaları va aralashmasining analizini bajarish.....   | 47  |
| V analitik guruh kationlarini ochish reaksiyaları va aralashmasining analizini bajarish.....  | 55  |
| Anionlarni ochish reaksiyaları va aralashmasini analizi .Anionlarni ochish reaksiyalarini bajarish va aralashmasi analizini bajarish.I, II va III guruh anionlarining umumiy tavsifi..... | 62  |
| Quruq tuzni (noma'lum tarkibli) analizini bajarish.....   | 70  |
| Tortma analiz. Haydash usuli bo'yicha analiz qilish yo'li, yakka tartibda tarozida tortishni o'rgatish, ishchi ishqor eritmasini tayyorlash va uni konsentratsiyasini aniqlash.....       | 75  |
| Titrimetrik analiz.....   | 93  |
| Ishchi ishqor eritmasining konsentratsiyasini aniqlash.Berilgan kislotani foiz konsentratsiyasini aniqlash.....   | 100 |
| Suvning karbonatli qattiqligini aniqlash.....   | 104 |
| Permanganatometrik usulda ishchi eritma tayyorlash va uni konsentratsiyasini aniqlash.....  | 107 |
| Permangonometrik usulida temirni miqdorini aniqlash ishini bajarish.....  | 113 |
| Yodometriya usulida ishchi eritmani konsentratsiyasini aniqlash va shu usul bilan ishlash. Eritmadagi misning miqdorini aniqlash.....   | 115 |
| Kompleksometriya usulida ichimlik suvining umumiy qattiqligini aniqlash.....  | 122 |
| <b>MASALAR YECHISHNI O'RGANAMIZ</b>   |     |
| Analitik reaksiyalarning seziluvchanligi.....   | 125 |
| Eritma konsentratsiyasini ifodalash usullari.....   | 130 |
| <b>MASSALAR TA'SIRI QONUNI SIFAT ANALIZI ASOSIDIR</b>   |     |
| Kuchli va kuchsiz elektrolitlar.....  | 138 |
| Dissotsiyalanish darajasi va doimiyligi.....  | 138 |
| Elektrolitik dissotsiyalanish.....  | 140 |
| Aktivlik va aktivlik koefisiyenti.....  | 142 |
| Suvning ion ko'paytmasi, vodorod ko'rsatkich (pH).....  | 145 |
| Kislota va asos eritmalarining pHini hisoblash.....   | 147 |
| Bufer eritmalar va ularning pHini hisoblash.....  | 151 |

|  |     |
|--|-----|
| Tuzlarning gidrolizi. Gidroliz doimiyligi va darajasi.....   | 155 |
| Massalar ta'siri qonuni va geterogen sistema.....  | 165 |
| Oksidlanish-qaytarilish jarayonlari. Oksidlanish-qaytarilish potensiali va reaksiya yo'nalishini aniqlash..... | 172 |
| Kompleks birikmalar.....   | 177 |
| <b>II Qism. Miqdoriy tahlil.</b>   |     |
| Masalalar yechishga doir namunalar.....  | 185 |
| Hajmiy analizdagi hisoblash formulalari.....   | 189 |
| Hajmiy analizning oksidlanish-qaytarilish usuli.....   | 195 |
| Cho'ktirish va kompleks hosil qilish usullari.....   | 206 |
| <b>TESTLAR</b> .....   | 209 |
| <b>ILOVALAR</b> .....  | 227 |
| <b>ADABIYOTLAR</b> .....   | 245 |

## СОДЕРЖАНИЕ

|   |     |
|---|-----|
| Введение .....  | 4   |
| <b>Лаборатория</b>  |     |
| Правила безопасности, которые необходимо соблюдать в химических лабораториях. Ознакомление с химическим оборудованием, порядком его работы .....                      | 5   |
| <b>ОСНОВНЫЕ ПОНЯТИЯ ХИМИЧЕСКОГО АНАЛИЗА</b> .....   |     |
| Анализ реакций и смесей катионов I-II групп .....   | 31  |
| Анализ реакций и смесей катионов III аналитической группы .....   | 40  |
| Анализ реакций и смесей катионов IV аналитической группы .....  | 47  |
| Анализ реакций и смесей катионов аналитической группы V .....   | 55  |
| Анализ реакций раскрытия анионов и смесей. Проведение реакций раскрытия анионов и анализ смесей. Общее описание анионов I, II и III групп .....                       | 62  |
| Провести анализ сухой соли (состав неизвестен) .....  | 70  |
| Гравитационный анализ. Анализ методики вождения, обучение индивидуальному взвешиванию, приготовление рабочего щелочного раствора и определение его концентрации ..... | 75  |
| Титриметрический анализ .....   | 93  |
| Определение концентрации рабочего щелочного раствора.   |     |
| Определение процентной концентрации данной кислоты .....  | 100 |
| Определение карбонатной жесткости воды .....  | 104 |
| Приготовление рабочего раствора перманганатометрическим методом и определение его концентрации .....  | 107 |
| Пермангонометрическое определение содержания железа .....   | 113 |
| Определение концентрации рабочего раствора методом иодометрии и работа с этим методом. Определение содержания меди в растворе .....                                   | 115 |
| Определение общей жесткости питьевой воды методом комплексометрии .....   | 122 |
| <b>НАУЧИТЕСЬ РЕШИТЬ ПРОБЛЕМЫ</b>  |     |
| Чувствительность аналитических реакций .....  | 125 |
| Методы выражения концентрации раствора .....  | 130 |
| <b>ЗАКОН МАССОВЫХ ВОЗДЕЙСТВИЙ - ОСНОВА КАЧЕСТВЕННОГО АНАЛИЗА</b>  |     |
| Сильные и слабые электролиты .....  | 138 |
| Уровень и постоянство диссоциации .....   | 138 |
| Электролитическая диссоциация .....   | 140 |
| Активность и коэффициент активности .....   | 142 |
| Ионное размножение воды, водородный индекс (рН) .....   | 145 |
| Расчет pH кислотных и основных растворов .....  | 147 |
| Расчет буферных растворов и их pH .....   | 151 |
| Гидролиз солей. Непрерывность и степень гидролиза .....   | 155 |

|  |     |
|--|-----|
| Закон действия масс и неоднородная система .....   | 165 |
| Окислительно-восстановительные процессы. Определение<br>окислительно-восстановительного потенциала и направления реакции . | 172 |
| Комплексные соединения .....   | 177 |
| <b>Часть II. Количественный анализ</b>   |     |
| Примеры решения проблем .....  | 185 |
| Расчетные формулы в объемном анализе .....   | 189 |
| Окислительно-восстановительный метод объемного анализа .....   | 195 |
| Методы седиментации и комплексообразования .....   | 206 |
| <b>ТЕСТЫ.....</b>  | 209 |
| <b>ПРИЛОЖЕНИЯ .....</b>  | 227 |
| <b>СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ .....</b>   | 245 |

## CONTENT

|   |     |
|---|-----|
| Introduction .....  | 4   |
| <b>Laboratory</b>   |     |
| Safety rules to be followed in chemical laboratories. Acquaintance with chemical equipment, its order of operation .....  | 5   |
| <b>ASIC CONCEPTS OF CHEMICAL ANALYSIS</b> .....   | 6   |
| Analysis of reactions and mixtures of cations of groups I-II .....  | 31  |
| Analysis of reactions and mixtures of cations of the III analytical group .....   | 40  |
| Analysis of reactions and mixtures of cations of the IV analytical group .....  | 47  |
| Analysis of reactions and mixtures of cations of analytical group V .....   | 55  |
| Analysis of the reactions of anion opening and mixtures. Carrying out anion opening reactions and analysis of mixtures. General description of anions of groups I, II and III ..... | 62  |
| Analyze dry salt (composition unknown) .....  | 70  |
| Gravitational analysis. Analysis of driving techniques, training in individual weighing, preparation of a working alkaline solution and determination of its concentration .....    | 75  |
| Titrimetric analysis .....  | 93  |
| Determination of the concentration of the working alkaline solution.  |     |
| Determination of the percentage concentration of this acid .....  | 100 |
| Determination of carbonate hardness of water .....  | 104 |
| Preparation of working solution by permanganometric method and determination of its concentration .....   | 107 |
| Permanganometric determination of the iron content .....  | 113 |
| Determination of the concentration of the working solution by the iodometry method and work with this method. Determination of the copper content in the solution .....             | 115 |
| Determination of the total hardness of drinking water by complexometry .....  | 122 |
| <b>LEARN TO SOLVE PROBLEMS</b>  |     |
| Sensitivity of analytical reactions .....   | 125 |
| Methods for expressing the concentration of a solution .....  | 130 |
| <b>THE LAW OF MASS EFFECTS - THE BASIS OF QUALITATIVE ANALYSIS</b>  |     |
| Strong and weak electrolytes .....  | 138 |
| Dissociation level and constancy .....  | 138 |
| Electrolytic dissociation .....   | 140 |
| Activity and activity coefficient .....   | 142 |
| Ionic multiplication of water, hydrogen index (pH) .....  | 145 |
| Calculation of pH of acidic and basic solutions .....   | 147 |
| Calculation of buffer solutions and their pH .....  | 151 |
| Salt hydrolysis. Continuity and degree of hydrolysis .....  | 155 |
| Mass action law and inhomogeneous system .....  | 165 |
| Redox processes. Determination of oxidation-reduction potential and reaction direction .....  | 172 |

|   |     |
|---|-----|
| Complex compounds .....                           | 177 |
| <b>Part II. Quantitative analysis</b>             |     |
| Examples of problem solving .....                 | 185 |
| Calculation formulas in volumetric analysis ..... | 189 |
| Redox method of volumetric analysis .....         | 195 |
| Methods of sedimentation and complexation .....   | 206 |
| <b>TESTS</b> .....                                | 209 |
| <b>APPENDICES</b> .....                           | 227 |
| <b>REFERENCES</b> .....                           | 245 |

## KIRISH

Insoniyatni yashash talablari oshib borishi bilan ko'plab oziq-ovqat va kimyoviy ishlab chiqarish, neft va gaz kimyosi, dori-darmonlar, tibbiyat, sintetik va tabiiy birikmalar to'qimachilik mahsulotlari, lak bo'yoq, mashinasozlik, kosmos, umuman olganda yer osti va yer usti boyliklaridan olinadigan mahsulotlarga talablar yanada oshib boraveradi. Bu o'z navbatida kerak bo'lган mahsulotlarni sifatini nazorat qilishda analitik kimyo fanining ahamiyati muhimligini ko'rsatadi. Shuning uchun analitik kimyoga bo'lган talab va qiziqish kun sayin oshib boraveradi.

Analizni to'g'ri va to'la olib borish uchun analitik kimyo usullarini mukammal bilish va berilgan masalani hal qilish uchun eng qulay usulni tanlab olish kerak.

Har qanday analizni muvaffaqiyatli tekshirish uchun namuna olish, uni analizga tayyorlash, zarur hollarda tekshiriladigan moddani boshqalaridan ajratish, konsentrash amallarini qay darajada mukammal va to'g'ri bajarilishiga bog'liq. Analiz uchun namuna olish, moddalarni ajratish, konsentrash, analizni bajarishgina ahamiyatli bo'lib qolmasdan, o'lchash, olingan natijalarni to'g'ri baholash, ularni talqin qila bilish juda muhimdir. Shuni unutmaslik kerakki, analizning har bir bosqichi, har bir amalni aniq bajarilishi kerak. Aks holda arzimagan amal katta xatolarni keltirib chiqaradi.

Shuningdek, analitik tahlilni ishlab chiqarishga yaqinlashtirish maksimum amaliylashtirish tayyorlanadigan mutaxassislar yetukligini ta'minlaydi.

Jumladan, zamonaviy fizik-kimyoviy tekshirish usullaridan foydalanish tahlilni aniqligi, qulayligi, ishonchlilagini ta'minlaydi.

## **Laboratoriya mashg‘uloti**

### **Kimyo laboratoriyalarda rioya etilishi shart bo’lgan xavfsizlik qoidalari. Kimyoviy asbob uskunalar bilan tanishish, ularda ishslash tartibi**

Talabalar laboratoriya mashg`ulotlarini mexanik ravishda emas, balki tushungan holda bajarishlari lozim. Shuning uchun har bir mashg`ulot oldidan nazariy tushunchalarni o’zlashtirishlari va laboratoriya ishini bajarish texnikasini o’zlashtirishlari lozim.

Laboratoriya mashg`ulotlarida har xil portlovchi, alangalanuvchi suyuqliklar, kuchli kislota va ishqorlar bilan ishlaniлади. Shuning uchun analitik kimyo laboratoriyasida ishlayotgan har bir talaba quyidagi qoidalariга qat’iy rioda qilishi kerak:

1. Yonuvchi va tez uchib ketuvchi moddalarni yonib turgan gorelka, spirt lampasi va plita yoniga qo’ymaslik kerak.
2. Zaharli moddalarni hidlash yoki tatib ko’rmaslik kerak.
3. Reaktivdan keragidan ko’proq olingan bo’lsa, ortib qolganini shu reaktiv olingan idishga qaytarib solish mumkin emas.
4. Zaharli, badbo’y va oson o’t oluvchi, uchuvchan moddalar bilan qilinadigan tajribalarni mo’rili shkafda o’tkazish kerak.
5. Probirkaga biror narsa solib qizdirganingizda uning og’zini o’zingizga yoki yoningizda turgan kishiga qaratib ushlamang.
6. Ajralib chiqayotgan gazni hidiga qarab aniqlashda gazni qo’l bilan o’ziga tomon yelpib ma’lum masofada hidlash kerak.
7. Sulfat kislota bilan ishslash vaqtida suvni kislotaga quyish yaramaydi, aksincha kislotani suvgaga tomchilatib quyish kerak.
8. Agar kishining biror yeri alangadan kuysa, kuygan yerni kaliy permanganatning 5-10% eritmasida ho’llangan paxta bilan artish va 5% li tanninda ho’llangan doka bilan bog’lash kerak.
9. Agar ko’zga ishqor tomchilari sachrasa, ko’z darhol ko’p miqdorda suv bilan, keyin borat kislotaning to’yingan eritmasi bilan yuviladi.

10. Kuchli kislota va ishqorni bir idishdan ikkinchisiga quyishda qo'lingizga, betingizga sachramasligi uchun nihoyatda ehtiyot bo'lish zarur, aks holda kuchli tan jarohati yetkazish mumkin.

11. Agar kiyimga yoki teriga kislota yoki ishqor eritmalari to'kilsa, shu joyni avvalo, ko'p miqdorda suv bilan yuvish, so'ngra agar kislota to'kilgan bo'lsa 3% li natriy bikarbonat bilan, ishqor to'kilgan bo'lsa 1-2 % li sirkal kislota bilan yuvib tozalash kerak. Agar kuchli kislota yoki ishqorning konsentrangan eritmalari to'kilsa u holda yuqoridagi choradan so'ng kuygan joyga kaliy permanganat yoki tannin eritmasida ho'llangan paxta qo'yib doka bilan bog'lash va doktorga murojaat qilish kerak.

12. Agar tajriba vaqtida shisha idish sinib ishlayotgan kishining biror yerini kesib ketsa, kesilgan joydan shisha maydalarini olib tashlash, so'ngra yod surkab, shu joyga sterillangan doka yoki gigroskopik paxta qo'yib bint bilan bog'lash kerak.

Sanoatda ishlab chiqariladigan mahsulot turiga qarab yana texnika xavfsizlik qoidalariga qo'shimchalar kiritiladi. Bu esa korxona xususiyatidan kelib chiqib elektr energiya, zaharli gaz yoki konserogen moddalarga tegishli bo'lishi mumkin. Shuningdek, ko'pgina korxonalarda zamonaviy asbob-uskunalar magnit va elektr maydon hosil qilishni e'tiborga olish kerak.

## KIMYOVIY ANALIZINING ASOSIY TUSHUNCHALARI

*Analitik reaksiya* – elementning borligiga dalolat beruvchi, tashqi analitik samara bilan boradigan reaksiyalar.

*Reagent* – aralashmadagi ion (modda)ni ochib beruvchi reaktiv.

*Maxsus reaksiyalar* – tashqi samarasi (belgisi) murakkab aralashmadagi faqat bir ion (momolekula)ga xos bo'lgan analitik reaksiya.

*Selektiv reaksiyalar* – tashqi belgisi ayrim ionlarga xos bo'lgan analitik reaksiyalar.

*Guruh reaksiyalari* – tashqi belgisi bir guruh ionlari uchun xos bo'lgan analitik reaksiyalar bo'lib, tegishli reagenti deb ataladi.

*Analitik reaksiyalarning sezgirligi* – aniqlanuvchi ionning ochilishi mumkin bo‘lgan minimal miqdori, to‘rtta o‘zaro bog‘langan o‘lchamlar bilan tavsiflanadi.

*Ochish minimumi* – m (mkg) chegaraviy suyultirilgan eritmaning minimal hajmida ochilishi mumkin bo‘lgan modda (ionning) minimal massasi (mikrogrammlarda ifodalanadi  $1 \text{ mkg} = 10^{-6}\text{g}$ )

*Minimal hajm* – ion (modda)ning ayni reaksiya bilan ochilishi mumkin bo‘lgan, chegaraviy suyultirilgan eritmaning hajmi ( $V_{\min}$ ).

*Chegaraviy konsentratsiya* ( $V_{\lim}$ ) – ayni reaksiya vositasida ochilishi mumkin bo‘lgan ionni  $\text{g/sm}^3$  birlikda ifodalangan minimal konsentratsiyasi

*Suyultirish chegarasi* (W) – tarkibida 1g aniqlanuvchi ion tutgan, chegaraviy suyultirilgan eritmaning hajmi ( $\text{sm}^3/\text{g}$  birlikda ifodalanadi).

Sezgirlikni to‘rtala o‘lchami quyidagicha uzviy bog‘langan:

$$m = C_{\lim} \times V_{\min} \times 10^6 = V_{\min} \times 10^6 / V_{\lim}$$

Analizni o‘tkazish uslubi bo‘yicha

1. *Sistematik analiz* – guruh reagentlari ta’sirida ionlarni analitik guruhlarga ajratishga asoslangan. Aniqlashlar ionlar guruhi doirasida, ma’lum izchillikda olib boriladi.

2. *Kasrli analiz* – analiz qilinuvchi eritmaning ayrim ulushlaridan ionlarni maxsus yoki selektiv reagentlar bilan bevosita aniqlash

3. *Tomchi analizi* – filtr (xromatografik) qog‘ozni yoki buyum oynasida analiz qilinuvchi eritma va reagent tomchilarining ta’sirlashuviga asoslangan.

4. *Xromatografik analiz* – aralashma tarkibidagi komponentlarning qo‘zg‘aluvchan fazasi ta’sirida qo‘zg‘almasi (statsionar) fazadagi harakat tezliklarining farqiga asoslangan.

5. *Mikrokristalloskopik analiz* – kimyoviy individual moddaning buyum oynasida hosil qilgan kristallarining shakli, rangi va o‘lchamini mikroskop ostida kuzatishga asoslangan.

*Miqdoriy analiz* - tekshirilayotgan modda tarkibini tashkil etgan element yoki ion (yoki komponent) lar miqdorini aniqlashga imkon beruvchi usullar to'plami.

*Gravimetrik analiz* - miqdoriy analizning aniqlanadigan modda miqdorini, tekshiriladigan namuna massasini o'lchash bilan olib boriladigan aniqlash usuli.

*Hajmiy (titrimetrik) analiz* - miqdoriy analizda aniqlanadigan modda miqdorini aniqlash uchun sarf bo'ladigan moddaning konsentrasiyasi aniq bo'lgan modda eritmasi hajmini o'lchashga asoslangan usul.

*Elektrokimyoviy analiz usullari* - elektrokimyoviy hodisalar vaqtida analiz qilinadigan eritmada o'zgaradigan elektrokimyoviy ko'rsatkichlarni o'lchashga asoslangan (potensiometrik, konduktometrik, amperometrik va boshqalar).

*Spektral va boshqa optik analiz usullari* - modda bilan elekromagnit nurlarning ta'siri natijasida turli o'zgarishlarni o'lchashga asoslangan (emission spektral analiz, atom-yutilish spektroskopiyasi, infraqizil nurlar spektroskopiyasi, spektrofotometrik va boshqalar).

*Ajratish va konsentrash usuli* - moddalarning ikki faza orasida taqsimlanishiga asoslangan (ekstraksiya, xromatografiya va hokazo).

*Elektrod* – eritma bilan o'zining sirt chegarasida elektronlar yoki ionlar almashinushi natijasida potensiallar farqi yuzaga keladigan eritma va unga tushirilgan metall plastinkadan iborat elektrokimyoviy sistemadir.

*Refraktometrik analiz usuli* analiz qilinadigan moddalarning nur sindirish ko'rsatkichining o'lchanishiga asoslangan.

### **Asosiy amallarni bajarish uslubi**

*Cho'ktirish:* sentrifuga probirkasidagi eritmaga cho'ktiruvchi reagentdan qo'shib chayqatiladi. Dastlabki eritmaning hajmi  $2 \text{ sm}^3$  dan ortiq bo'lmasligi kerak.

*Isitish:* suv hammomida olib boriladi.

*Eritmani bug'latish* uni konsentrash maqsadida bajariladi: asbest to'r ustida forfor kosacha yoki tigelda qizdirish bilan olib boriladi. Quruq qoldiq sovitilgandan so'ng eritilib probirkaga o'tkaziladi.

*Sentrifugalash* – eritmani cho'kmadan ajratish uchun qo'llaniladi. Sentrifuga probirkalarida bajariladi.

### **Sentrifuga bilan ishlash qoidasi:**

1.Sentrifuganing qarama-qarshi uyalariga 2 ta (aniqlanuvchi eritma va posongi) probirkaga joylashtiriladi:

a) elektrik sentrifuga uyalariga 2 tadan kam bo'lмаган probirkalar joylashtiriladi; b)sentrifuga qopqog'i zich berkitiladi; v) elektr tarmog'iga ulanib, aylanish tezligi tanlanadi; g) 1-2 min davo-mida sentrifuga qopqog'i ochilmagan holatda aylantiriladi; d) sentrifuga to'liq to'xtagandan so'ng qopqog'i ochilib, probirkalar olinadi. Cho'kish to'laligi tekshirib ko'rildi. Buning uchun sentrifugat (probirkadagi tiniq eritma)ga 1-2 tomchi cho'ktiruvchi qo'shiladi. Agar eritma tiniqligicha qolsa, cho'kish to'la bo'lganligini bildiradi. Aks holda cho'ktirish qayta takrorlanadi. Cho'kma ustidagi tiniq eritma alohida probirkaga ajratib olinadi.

*Cho'kmani yuvish* - kristall cho'kmalar distillangan suv, amorflari esa kuchli elektrolit (masalan,  $\text{NH}_4\text{NO}_3$ ) eritmasi bilan yuviladi. Buning uchun cho'kmaga 1-2 ml erituvchi suyuqlikdan qo'shib shisha tayoqcha bilan cho'kma aralashtiriladi va sentrifugalanadi.

*Cho'kmani eritish* – unga kislota, ishqor, ammiak va boshqa eritmalarini qo'shish bilan bajariladi.

*Ekstraksiyalash* – yarim mikroprobirkalarda yoki ajratuvchi voronkada bajariladi. Probirkadagi eritmaga 5-20 tomchi organik erituvchi qo'shib, yaxshilab aralashtiriladi. Qatlamlar tiniqlashgach, ular ajratib olinadi.

*Reaksiyalarni bajarish.* Hamma reaksiyalar kimyoviy toza idishlarda o'tkaziladi.

*Probirkada bajariladigan reaksiyalar.* Yarim mikroprobirkalar (probirkalar)da bajariladi. Probirkaga 3-5 tomchi analiz qilinuvchi eritma solib, tegishli muhit hosil qilingach, ustiga probirka devorlariga tegizmasdan 2-3 tomchi reagent qo'shib, shisha tayoqcha bilan aralashtiriladi, 1-2 min so'ng tashqi samara (belgi) kuzatiladi.

*Mikrokristalloskopik reaksiyalar* – yog'sizlantirilgan (yog'sizlantirish uchun spirt va efir aralashmasi ishlataladi) buyum oynasida bajariladi. Buyum oynasiga shisha tayoqcha bilan analiz qilinuvchi eritmadan bir tomchi qo'shilib, yoniga bir tomchi reagent joylashtiriladi. So'ngra ikkala tomchi shisha tayoqcha yordamida birlashtiriladi. Zarur bo'lsa, eritma bir oz bug'latiladi. Agar reaktiv qattiq holatda bo'lsa, uning kichik zarrachasi analiz qilinuvchi eritmaning chetiga joylashtiriladi. 1-2 min dan so'ng hosil bo'lgan kristallar mikroskop ostida kuzatiladi.

*Tomchi reaksiyasi* - filtr qog'ozida o'tkaziladi. Analiz qilinuvchi eritma kapillyar yordamida qog'ozga o'tkaziladi. So'ngra dog' markaziga boshqa kapillyar yordamida reaktiv qo'shiladi. Dog' diametri 0,5sm dan oshmasligi kerak.


*Cho'ktirish xromatografiyasi reaksiyalari* – tomchi reaksiyalar kabi filtr qog'ozda bajariladi. Xromatografik dog'lar bir biridan ajralishi uchun dog' markaziga suv tomiziladi.

*Puch tajriba* – aniqlanuvchi ion bo'lmanan eritmaga reagent tomizib bajariladi.

*Nazorat tajribasi* – aniqlanuvchi ion mavjud bo'lgan eritmaga reagent qo'shib bajariladi.

Puch va nazorat tajribalar analiz natijalarida ikkilanish bo'lgan hollarda asosiy tajriba bilan parallel holda solishtirish uchun o'tkaziladi.

## Kamyoviy idishlar



*I-rasm. Kamyoviy idishlar:* 1 — probirkalar; 2 — stakanlar;  
3 — voronkalar; 4 — yassi tubli va 5 — dumaloq tubli kolbalari;  
6 — menzurkalar; 7 — pipetkalar; 8 — byuretkalar; 9 — o'lechov  
kolbalari; 10 — o'lechov silindrlari; 11 — ajratgich va tomizgich voronkalar.


 FS-2014-06



### Katalitik krekinglash asbobi



### Sirkulyatsion suv hammomi



### Mufel pechi



### Elektrokimyo tajriba uskunalar

- 1 Tajriba doskasi (tashqi o'lchamlari 465 mm x 315 mm)
2. Qog'oz diafragma
3. Tomchi ariqchali blok yacheyka
4. Elektrodlar va jilvir tayoqchalar saqlash bo'lmalari
- Ag (4), Cu (4), Fe (2), grafit (3), Zn (4), kichik plastik plitalar (2),


5. Maxsus elektrodlar uchun saqlash idishlari

Platina elektrodi (1)

Kumush/kumush xlorid elektrodi (1)

6. Rezina uchli tomchilatish pipetkaları (4)

7. Magniy lenta



### **UV 240 ultrabinafsha lampasi**

**1** Dasta.

**2** Elektr ta'minotni ulash uchun ajratgich


**3.** Almashlab ulagich

I. Uzun to'lqinli [nurlanish] II. Qisqa to'lqinli [nurlanish]


**4.** Korpus



## **Spektrofotometr**



## **Viskazometr**



## **Analitik tarozi**



**Distilyator**



**Quritish shkafi**

1. Control COCKPIT ixcham funksional tumachalarni o’z ichiga olgan paneli (shuningdek, 25-betga qarang). 2. “On/Off” ulab-uzgich qurilmasi (shuningdek, 22-betga qarang). 3. Ishchi

4. Po’lat panjara. 5. Ishchi kamera. 6. Firma yorlig’i (eshikning orqa tomonida, shuningdek, 12-betga qarang). 7. Eshik tutqichi (shuningdek, 23-betga qarang). 8. Tasdiqlash tugmchasini o’z ichiga olgan

kamera ventilyatori (faqat UF/IF/SF uskunalarini uchun).

burish regulyatori.



### Bunzen ( gaz ) garelkasi



**Kolba qizdirgich**



**Magnitli meshalka**

**EBA 200**



**EBA 200 S**




**Sentrafuga**

## KIMYOVİY TAHLİL

Zamonaviy tahlilni quyidagicha klassifikatsiyalash (1-sxema) maqsadga muvofiq.

### ZAMONAVIY ANALITIK KIMYONING TUZILISHI



Kimyoviy tahlilda aniqlanayotgan modda miqdoriga ko'ra (1-jadval) quyidagicha bo'linadi.

### ANALIZ QILINADIGAN MODDA MIQDORIGA KO'RA ANALIZ

#### METODLARINING KLASSIFIKATSIYASI

| Analiz metodining nomi |                  | Analiz qilinadigan modda miqdori     |                                      |
|------------------------|------------------|--------------------------------------|--------------------------------------|
|                        |                  | Namuna massasi, g                    | Namuna hajmi, ml                     |
| Makroanaliz            | Gramm-metod      | 1 – 10                               | 10 – 100                             |
| Yarimmikroanaliz       | Santigramm-metod | 0,05 – 0,5                           | 1 – 10                               |
| Mikroanaliz            | Milligramm-metod | 0,01 – 10 <sup>-6</sup>              | 0,1 – 10 <sup>-4</sup>               |
| Ultramikroanaliz       | Mikrogramm-metod | 10 <sup>-6</sup> – 10 <sup>-9</sup>  | 10 <sup>-4</sup> -10 <sup>-6</sup>   |
| Submikroanaliz         | Nanogramm-metod  | 10 <sup>-9</sup> – 10 <sup>-12</sup> | 10 <sup>-7</sup> – 10 <sup>-10</sup> |

Kimyoviy analiz ko'pincha yarim mikro usulida bajariladi, bunda reaktivlar kam sarflanadi, kichik hajmli idishlardan foydalanish ham mumkin. Agar analiz to'g'ri bajarilgan bo'lsa, yarim mikro usul juda aniq natijalar beradi. Shuning uchun moddalarni sifat jihatdan kimyoviy analiz qilishga asosan yarim mikroanaliz (santigramm)usuldan foydalaniladi.

Shuningdek, tahlil qilish usuli ham har xil bo'ladi. (2-jadval )

#### SIFAT ANALIZINING TURLARI

| Bo'lib-bo'lib analiz qilish   | Sistematik analiz  |
|---|--|
| Bo'lib-bo'lib analiz qilishda moddaning tarkibi spetsifik reaksiyalar bilan aniqlanadi, bunday reaksiyalar yordamida boshqa ionlar ishtirokida ham analiz qilinadigan ionlarni aniqlash mumkin. | <p>Sistematik analizda ionlar aralashmasi <i>guruh reagentlari</i> yordamida bir nechta guruhlarga bo'linadi, so'ngra har qaysi guruhdagi ionlar muayyan ketma-ketlikda xarakterli reaksiyalar bilan aniqlanadi.</p> <p><i>Guruh reagenti</i> – bu ionlarning analitik guruhlarini aniqlashda va ajratishda qo'llaniladigan reagentdir.</p> <p><i>Guruh reagentiga qo'yiladigan talab-lar:</i></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Ionlar guruhlarini amalda to'liq ajratishi kerak;</li> <li>2. Guruh reagenti ta'sirida</li> </ol> |

|  |   |
|--|---|
|  | ajratilgan analitik guruhga ishlov berish oson bo'lishi kerak;<br>3. Guruh reagentining ortiqcha miqdori keyingi analiz jarayoniga xalaqit bermasligi kerak |
|--|---|

Tahlil o'tkazishda asosan tashqi belgilarga e'tibor beriladi. (3-jadval)

### **ANALITIK REAKSIYALARING BELGILARI**

| <b>Analitik belgilar</b>             | <b>Misol</b>  |
|--------------------------------------|---|
| 1. Xarakterli cho'kma hosil bo'lishi | $3\text{Fe}^{2+} + 2[\text{Fe}(\text{CN})_6]^{3-} \leftrightarrow \text{Fe}_3[\text{Fe}(\text{CN})_6]_2 \downarrow$   |
| 2. Eritma rangining o'zgarishi       | $\text{Cu}^{2+} + 4\text{NH}_3 \leftrightarrow [\text{Cu}(\text{NH}_3)_4]^{2+}$<br>(havorang eritma)  |
| 3. Gaz ajralishi                     | $\text{FeS} + 2\text{H}^+ \leftrightarrow \text{Fe}^{2+} + \text{H}_2\text{S} \uparrow$<br>(xarakterli hid)   |
| 4. Issiqlik chiqishi yoki yutilishi  | $\text{HCN} + \text{NaOH} \rightarrow \text{NaCN} + \text{H}_2\text{O}$<br>(issiqlik chiqishi bilan)<br>$\text{CaSO}_4 + 2\text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$<br>(issiqlik yutilishi bilan) |

Tahlillarni bajarishda ionlarni xossalariiga asoslangan holda sinflanadi. (4-jadval )

### **KATIONLARNI ANALITIK KLASSIFIKATSIYALASH METODLARI**

| <b>Analiz metodi</b>                          | <b>Analiz metodi nimaga asoslangan</b>   |
|---|--|
| Vodorod sulfidli analiz metodi<br>(5 -jadval) | Metall sulfidlarining turlicha eruvchanligiga  |
| Kislota-asosli analiz metodi<br>(6 -jadval)   | Kationlarning kislotalar ( $\text{HCl}$ , $\text{H}_2\text{SO}_4$ ) va asoslar ( $\text{NaOH}$ , $\text{NH}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}$ ) ga turlicha munosabatiga |
| Ammiak-fosfatli analiz metodi<br>(7-jadval)   | Kationlar fosfatlarining suvda va ammiak eritmasida turlicha eruvchanligiga  |

Klassifikatsiyalash usuliga ko'ra kationlarning sinflanishi (5-jadval)

## KATIONLARNING VODOROD SULFIDLARI ANALIZ METODI BO'YICHA

### KLASSIFIKATSIYASI

| Guruh | Kationlar   | Guruh reagenti  | Birikmalarning eruvchanligi   |
|-------|---|---|---|
| I     | $K^+$ , $Na^+$ , $NH_4^+$ ,<br>$Mg^{2+}$  | Mavjud emas   | Sulfidlar, karbonatlar*,<br>xloridlar va gidroksidlar* suvda<br>eriydi            |
| II    | $Ba^{2+}$ , $Sr^{2+}$ , $Ca^{2+}$   | $(NH_4)_2CO_3$ ,<br>$NH_3 \cdot H_2O + NH_4Cl$ ,<br>$pH = 9,25$ | Karbonatlar suvda erimaydi  |
| III   | $Fe^{2+}$ , $Fe^{3+}$ , $Cr^{3+}$ ,<br>$Al^{3+}$ , $Mn^{2+}$ , $Ni^{2+}$ ,<br>$Zn^{2+}$ , $Co^{2+}$ | $(NH_4)_2S$ ,<br>$NH_3 \cdot H_2O + NH_4Cl$ ,<br>$pH = 8 - 9$   | Sulfidlar suvda erimaydi**,<br>lekin suyultirilgan mineral<br>kislotalarda eriydi |
| IV    | $Cu^{2+}$ , $Hg^{2+}$ , $Bi^{3+}$ ,<br>$Sn^{2+}$ , Sn(IV),<br>Sb(III), Sb(V),<br>As(III), As(V)     | $H_2S$ , $HCl$ , $pH = 0,5$                                     | Sulfidlar suvda va suyultirilgan mineral kislotalarda<br>erimaydi                 |
| V     | $Ag^+$ , $Pb^{2+}$ , $Hg_2^{2+}$  | $HCl$   | Xloridlar suvda va suyultirilgan<br>mineral kislotalarda erimaydi                 |

### Vodorod sulfidlari usulning kamchilliklari

Tarixiy sifat analizi usuli quyidagi asosiy kamchiliklarga ega:

1. Ayrim guruhlardagi kationlar hosil qilgan sulfidlarning eruvchanligi bir-biriga yaqin . Bu esa kationlar ajratishni qiyinlashtirib, qisman ularni yo'qolishiga olib keladi.

Ayrim sulfidlarning eruvchanligi ularni qanday sharoitda vodorod sulfid bilan cho'ktirilganiga bog'liq. Ana shulardan biri CdS xona haroratida polimerlanadi, yuqori haroratda esa dissotsiatsiyalanadi; ayrim sulfidlar esa kolloid holatga o'tadi. Bularning hammasi sistematik sxema bilan analiz qilishni qiyinlashtiradi.

---

\*  $Mg^{2+}$  dan tashqari

\*\*  $Cr^{3+}$ ,  $Al^{3+}$  sulfidlari suvda parchalanadi va eritmada mavjud bo'lmaydi

2. IV analittik guruh kationlari sulfidlariga  $(\text{NH}_4)_2\text{S}$  bilan ishlov berish natijasida mis va simob kationlari qisman yo'qoladi. Bu kationlarni keyin ochishini qiyinlashtiradi.

3. Guruh reagenti sifatida ishlatiladigan vodorod sulfidli suv va ammoniy sulfid tarkibida ba'zan sulfat ionlari bo'lib qiyin eruvchan bariy, stronsiy va kalsiy sulfatlarni hosil qiladi. Natijada keyingi analizlarda bu kationlar umuman yo'qoladi.

4. IV analitik guruh kationlarining sulfidlar va oltingugurtli birikmalar ko'rinishida cho'ktirayotganda III analitik guruh kationlari ham birgalashib cho'kadi. Masalan, qalay sulfid ma'lum miqdorda nikel va kobalt sulfid bilan, kadmiy sulfid esa rux sulfid bilan birgalashib cho'kadi. Bularning hammasi rux va boshqa ionlarni aniqlashda xatolikka olib keladi.

5. IV analitik guruh kationlarini sulfidlarini  $\text{HNO}_3$  eritish ko'pincha xatoliklarga olib keladi. Masalan, kontsentrlangan  $\text{HNO}_3$  da sulfidlarni uzlucksiz qizdirish natijasida ham sulfidlar bilan birga  $\text{HgS}$  ham eriydi,  $\text{PbS}$  esa  $\text{PbSO}_4$  gacha oksidlanadi, oxir oqibat simob va qo'rg'oshin kationlari yo'qotiladi.

6. Eng oxirida o'rganiladigan I analitik guruh kationlarining miqdori, bir necha marta eritmani suyultirish natijasida kamayib qoladi. Bundan tashqari  $\text{S}^{2-}$   $\text{SO}_4^{2-}$  gacha oksidlanishi sababli II guruh kationlari bilan kaliy va natriy birikmalarini birgalashib cho'kadi.

7. Vodorod sulfidli usul bilan ishlashda reaksiyalarni aniq sharoitda olib borish shartlariga amal qilish kerak.

8. Vodorod sulfid zaharli, shuning uchun analizlar yuqori quvvatli mo'rili shkaflarda bajarilishi kerak.

Vodorod sulfidli usulda kationlarni aniqlash ketma-ketligi quyidagicha (2-sxema)

#### **VODOROD SULFIDLARI ANALIZ METODI BO'YICHA KATIONLARNI**

#### **GURUHLARGA AJRATISH**

Analiz qilinadigan eritma

$6n\ HCl$

Eritma (I-IV guruh kationlari)

Cho'kma (V guruh)  
 $\text{AgCl}$ ,  $\text{PbCl}_2$ ,  $\text{Hg}_2\text{Cl}_2$

$2n\ NH_3 +$

$0,6n\ HCl + \text{H}_2\text{S}$


Eritma (I-III guruh kationlari)

Cho'kma (IV guruh)  
 $\text{CuS}$ ,  $\text{CdS}$ ,  $\text{HgS}$ ,  $\text{Bi}_2\text{S}_3$ ,  
 $\text{SnS}$ ,  $\text{SnS}_2$ ,  $\text{Sb}_2\text{S}_3$ ,  $\text{Sb}_2\text{S}_5$

qaynatish,

qaynatish,

$\text{H}_2\text{O}_2$  (3%-li),




Eritma  
(I, II guruh kationlari)

Cho'kma (III guruh)  
 $\text{Cr(OH)}_3$ ,  $\text{Al(OH)}_3$ ,  $\text{FeS}$ ,  
 $\text{NiS}$ ,  $\text{CoS}$ ,  $\text{MnS}$ ,  $\text{ZnS}$

Cho'kma (IVa guruh)  
 $\text{CuS}$ ,  $\text{HgS}$ ,  $\text{CdS}$ ,  $\text{Bi}_2\text{S}_3$

Eritma  
(IVb guruh)  
 $\text{SnS}_3^{2-}$ ,  $\text{SbS}_4^{3-}$



Eritma  
 $\text{Na}^+$ ,  $\text{K}^+$ ,  $\text{NH}_4^+$

Cho'kma (II guruh)  
 $\text{BaCO}_3$ ,  $\text{SrCO}_3$ ,  $\text{CaCO}_3$

Kislota-asosli usul bo'yicha kationlar quyidagicha sinflanadi. ( 6-jadval )

**KATIONLARNING KISLOTA-ASOSLI ANALIZ METODI BO'YICHA**

**KLASSIFIKATSIVASI**

| Guruh | Kationlar  | Guruh reagent   | Birikmalarning eruvchanligi  |
|-------|--|---|--|
| I     | $\text{Na}^+$ , $\text{K}^+$ , $\text{NH}_4^+$ ,   | Mavjud emas   | Xloridlar, sulfatlar va gidroksidlar suvda eriydi.                     |
| II    | $\text{Ag}^+$ , $\text{Pb}^{2+}$ , $\text{Hg}_2^{2+}$  | 2M HCl eritmasi   | Xloridlar suvda erimaydi   |
| III   | $\text{Ba}^{2+}$ , $\text{Sr}^{2+}$ , $\text{Ca}^{2+}$   | 1M $\text{H}_2\text{SO}_4$ eritmasi + $\text{C}_2\text{H}_5\text{OH}$ | Sulfatlar suvda erimaydi.  |
| IV    | $\text{Al}^{3+}$ , $\text{Zn}^{2+}$ , $\text{Cr}^{3+}$ , Sn(II), Sn(IV), As(III). As(V)                        | Mo'l 6M NaOH eritmasi + 3% $\text{H}_2\text{O}_2$                     | Gidroksidlar suvda erimaydi, lekin mo'l ishqorda eriydi.               |
| V     | $\text{Fe}^{2+}$ , $\text{Fe}^{3+}$ , $\text{Mg}^{2+}$ , $\text{Mn}^{2+}$ , $\text{Bi}^{3+}$ , Sb(III), Sb (V) | Mo'l $\text{NH}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}$ kons.                     | Gidroksidlar suvda, mo'l ishqorda va ammiakda erimaydi.                |
| VI    | $\text{Co}^{2+}$ , $\text{Ni}^{2+}$ , $\text{Cd}^{2+}$ , $\text{Cu}^{2+}$ , $\text{Hg}^{2+}$                   | Mo'l $\text{NH}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}$ kons.                     | Gidroksidlar suvda mo'l ishqorda erimaydi, lekin mo'l ammiakda eriydi. |

### Usulning afzalligi

Kislota-asosli analiz usuli boshqa usullarga nisbatan bir qator afzallikkлага ega:

- Oddiy, qimmatbaho reaktivlar talab qilinmaydi, talabaning o'zlashtirishi oson;
- Vodorod sulfidli usuldan farqli zaharli vodorod sulfid ishlatilmaydi. Bu usulda asosiy reagentlar: vodorod xlorid va sulfat kislota, ishqor, ammiakli suv ishlatiladi;
- Uslubiy tomondan juda qulay bo'lib, analiz davomida talaba asosiy birikmalardan: xloridlar, sulfatlar, gidroksidlar va ammiakli suvning xossalarini o'rghanadi.

### Usulning kamchiliklari

Kislota-asosli usulda ayrim qiyinchiliklar sababli ba'zan analiz yo'llarini o'zgartirishga to'g'ri keladi.

Ikkinchi guruhdagi qo'rg'oshin (II) ioni vodorod xlorid bilan  $\text{AgCl}$  va  $\text{Hg}_2\text{Cl}_2$  birgalikda suvda qisman eruvchan  $\text{PbCl}_2$  ko'rinishda cho'ktiriladi. Shuning uchun u qisman boshqa guruh kationlari o'tib qoladi. Ayrim vaqt VI guruhdagi  $\text{Cu}^{2+}$  ionini gidroksidi ma'lum miqdorda ortiqcha NaOH da eriydi.

$\text{Sb}^{3+}$  va  $\text{Sb}^{5+}$  ning  $\text{NaOH}$  yoki  $\text{KOH}$  ga munosabatining har xilligi,  $\text{Mg}(\text{OH})_2$  ning ortiqcha ammiakda va ammoniy tuzlarida erishi,  $\text{CaSO}_4$  ning suvda eruvchanligi va boshqalar kationlarni aniq guruhlarga ajratishga olib kelmaydi.

Analiz davomida  $\text{BaSO}_4$ ,  $\text{SrSO}_4$ ,  $\text{CaSO}_4$  larni karbonatlarga aylantirish qiyin.


Agar analiz qilinadigan aralashmada fosfat ioni bo'lsa, analizni kislota-asosli usul bilan olib borib bo'lmaydi.

Bunday hollarda xalaqit beruvchi anionlar yo'qotiladi yoki analiz ammiak-fosfatli usul bilan olib boriladi.

Kislota-asosli usulda tuzlarni tahlil qilish sxemasi quyidagicha (3-sxema)

### **KISLOTA-ASOSLI ANALIZ METODI BO'YICHA KATIONLARNI**

#### **GURUHLARGA AJRATISH**



## KATIONLARNING AMMIAK-FOSFATLI ANALIZ METODI BO'YICHA

### KLASSIFIKATSIVASI

| <b>Guruh</b> | <b>Kationlar</b>  | <b>Guruh reagent</b>   | <b>Birikmalarning eruvchanligi</b>                             |
|--------------|---|--|--|
| I            | $\text{Ag}^+$ , $\text{Pb}^{2+}$ , $\text{Hg}_2^{2+}$   | HCl  | Xloridlar suvda erimaydi                                       |
| II           | $\text{Sn}^{2+}$ , Sn(IV), Sb(III), Sb(V)   | $\text{HNO}_3$   | Metastibiat va metastanat kislotalar suvda erimaydi.           |
| III          | $\text{Ba}^{2+}$ , $\text{Sr}^{2+}$ , $\text{Ca}^2$ , $\text{Mg}^{2+}$ , $\text{Mn}^{2+}$ , $\text{Fe}^{3+}$ , $\text{Al}^{3+}$ , $\text{Cr}^{3+}$ , $\text{Fe}^{3+}$ | $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4$ , kons. $\text{NH}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}$ | Fosfatlar suvda va mo'l ammiak eritmasida erimaydi.            |
| IV           | $\text{Cu}^{2+}$ , $\text{Cd}^{2+}$ , $\text{Hg}^{2+}$ , $\text{Co}^{2+}$ , $\text{Ni}^{2+}$ , $\text{Zn}^{2+}$   | $(\text{NH}_4)_2\text{HPO}_4$ , kons. $\text{NH}_3 \cdot \text{H}_2\text{O}$ | Fosfatlar suvda erimaydi, lekin mo'l ammiak eritmasida eriydi. |
| V            | $\text{Na}^+$ , $\text{K}^+$ , $\text{NH}_4^+$  | Mavjud emas  | Xloridlar, nitratlar va fosfatlar suvda eriydi.                |

### **Ammiak - fosfatli usul afzalligi**


Ammiak – fosfatli usul boshqa usullarga nisbatan bir qator afzallikkarga ega:

1. Bu usulda zaharli vodorod sulfid umuman ishlatilmaydi.
2. Analiz qilinadigan aralashmada  $\text{PO}_4^{3-}$  ion bo'lganda boshqa analiz usullari sistematik analizni olib borishni qiyinlashtiradi. Neytral yoki ishqoriy muhitda kam eriydigan fosatlarni hosil bo'lishi ammiak-fosfatli usul bilan analizni bajarishga xalaqit bermaydi.
3. Ammiak-fosfatli usul yuqori aniqligi va tezkorligi bilan farq qiladi.
4. Bu usulning uslubiy afzalligi shundaki, talaba amalda har xil xossali birikmalar bilan ishlaydi.

Ushbu usulda tahlil (4-sxema) asosida olib boriladi.

## AMMIAK-FOSFATLI ANALIZ METODI BO'YICHA KATIONLARNI

### GURUHLARGA AJRATISH



### Laboratoriya mashg'uloti

#### **I-II guruh kationlarini ochish reaksiyalarini va aralashmasini analizini bajarish**

**Maqsad:**

I guruh kationlari sifat reaksiyalarini ular aralashmasining analizi yuzasidan amaliy ko'nikmalar hosil qilish va ularni amalda qo'llay bilish.

**Mavzuning ahamiyati:**

Nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar quyidagi mavzularni o'zlashtirishga kerak bo'ladi:

I-III,I-VI analitik guruh kationlar aralashmasining analizi;

Noma'lum tarkibli moddalar aralashmasining analizi;

Aniqlashning kislota-asos titrlash usuli;

Ion-almashinish usullari;

### Mustaqil tayyorlanish uchun topshiriq

1. I analitik guruh kationlarining tavsifi va D.I.Mendeleyev davriy jadvalidagi o'rni bilan ularning xossalari orasidagi dialektik bog'lanish.
2. Vodorod sulfidli usul bo'yicha kationlarning guruhlarga bo'linishi.
3. Reaksiya sezgirligi.
4. Umumiy, guruh va maxsus reagentlar.

#### Reaktivlar:

1. Ammoniy, natriy, kaliyning nitratli yoki xloridli tuzlarining eritmali
2. Vino kislota  $\text{H}_2\text{C}_4\text{H}_4\text{O}_6$  yoki uning natriyli nordon tuzi – natriy gidrotartrat  $\text{NaHC}_4\text{H}_4\text{O}_6$ , natriy geksanitrokoboltat (III)ning yangi tayyorlangan eritmasi, Nessler reaktivi, o'yuvchi ishqorlar NaOH yoki KOH eritmali.
3. Etanol
4. Fenolftaleinning 0,1% li spirtdagi eritmasi
5. Kaliy, natriy, ammoniy quruq tuzlari
6. Qizil lakkmus qog'ozni

#### O'quv jadvallari:

1. Vodorod sulfidli usuli bo'yicha kationlarning tasnifi
2. I va II guruh kationlarining xususiy reaksiyalari
3. D.I.Mendeleyev davriy jadvali

## **I ANALITIK GURUH KATIONLARNING REAKSIYALARI**

Birinchi analitik guruh kationlariga  $\text{NH}_4^+$ ,  $\text{Na}^+$ ,  $\text{K}^+$ ,  $\text{Li}^+$ ,  $\text{Rb}^+$ ,  $\text{Cs}^+$ ,  $\text{Fr}^+$ ,  $\text{Mg}^{2+}$  ionlari kiradi. Bu ionlarning umumiy guruh reagenti yo'q.  $\text{NH}^{4+}$ ,  $\text{K}^+$ ,  $\text{Rb}^+$ ,  $\text{Cs}^+$ ,  $\text{Fr}^+$  lar uchun xarakterli bo'lgan ko'pgina reagentlar bilan  $\text{Na}^+$ ,  $\text{Li}^+$ ,  $\text{Mg}^{2+}$  ionlari

reaksiyaga kirishmaydi. Shuning uchun birinchi analitik guruh kationlari ikki guruhchaga bo'linadi, ya'ni  $\text{Na}_3[\text{Co}(\text{NO}_2)_6]$ ,  $\text{NaHC}_4\text{H}_4\text{O}_6$  va  $\text{H}_2[\text{PtCl}_6]$  kabi reaktivlar bilan cho'kma beruvchi  $\text{NH}^{4+}$ ,  $\text{K}^+$ ,  $\text{Rb}^+$ ,  $\text{Cs}^+$ , ionlari birinchi guruhchani tashkil qiladi, ikkinchi guruhchaga esa umumiyligida bo'lmasligi  $\text{Na}^+$ ,  $\text{Li}^+$ ,  $\text{Mg}^{2+}$  ionlari kiradi.

Birinchi analitik guruh kationlarining ko'pgina birikmalari suvda yaxshi eriydi va rangsiz eritmalar hosil qiladi. Rangli eritmada birikmalariga xromatni (sariq), bixromatni (sarg'ish-qizil), manganatni (yashil), permanganatni (binafsha rang), ferrosianatlarni (sariq va qizil) va geksakobaltatni (sariq) kiritish mumkin.

Birinchi guruh kationlarining  $\text{NH}_4^+$  dan boshqa barchasi oksidlovchilar va qaytaruvchilar ta'siriga chidamli,  $\text{NH}_4^+$  esa oksidlanish xossasiga ega. Birinchi analitik guruh kationlariga xos bo'lgan xususiy reaksiyalar laboratoriyada bajarilishi mumkin bo'lgan ionlargagina berilgan. Birinchi analitik guruh kationlarining xususiy reaksiyalari 8- jadvalda berilgan.

### **Birinchi analitik guruhi kationlariga xos bo'lgan xususiy reaksiyalar**

#### **8- jadval**

|            | <b>Ion</b>      | <b>Reagent</b>            | <b>Reaksiyaning molekulyar va ionli tenglamasi</b>  | <b>Ilova</b>   |
|------------|-----------------|---------------------------|---|--|
| <i>I.1</i> | $\text{Li}^+$   | $\text{Na}_2\text{HPO}_4$ | $\text{Li- ionlarining analitik reaksiyalarini}$ $3\text{LiCl} + \text{Na}_2\text{HPO}_4 \rightarrow \text{Li}_3\text{PO}_4 \downarrow + 2\text{NaCl} + \text{HCl}$ $3\text{Li}^+ + 3\text{Cl}^- + 2\text{Na}^+ + \text{HPO}_4^{2-} \rightarrow \text{Li}_3\text{PO}_4 \downarrow$ $+ 2\text{Na}^+ + 2\text{Cl}^- + \text{H}^+ + \text{Cl}^-$ $3\text{Li}^+ + \text{HPO}_4^{2-} \rightarrow \text{Li}_3\text{PO}_4 \downarrow + \text{H}^+$ | pH $\geq 7$ , Och sariq cho'kma kuchli kislotalarda eriydi |
| <i>I.2</i> | $\text{Li}^+$   | $\text{Na}_2\text{CO}_3$  | $2\text{LiNO}_3 + \text{Na}_2\text{CO}_3 \rightarrow \text{Li}_2\text{CO}_3 \downarrow + 2\text{NaNO}_3$ $\text{Li}^+ + 2\text{NO}_3^- + 2\text{Na}^+ + \text{CO}_3^{2-} \rightarrow$ $= \text{Li}_2\text{CO}_3 + 2\text{Na}^+ + 2\text{NO}_3^-$ $2\text{Li}^+ + \text{CO}_3^{2-} \rightarrow \text{Li}_2\text{CO}_3 \downarrow$  | pH $\geq 7$ , oq kristall cho'kma kislotalarda eriydi      |
| <i>I.3</i> | $\text{Li}^+$   | $\text{NH}_4\text{F}$     | $\text{LiNO}_3 + \text{NH}_4\text{F} \rightarrow \text{LiF} \downarrow + \text{NH}_4\text{NO}_3$ $\text{Li}^+ + \text{NO}_3^- + \text{NH}_4^+ + \text{F}^- \rightarrow \text{LiF} \downarrow + \text{NH}_4^+ + \text{NO}_3^-$ $\text{Li}^+ + \text{F}^- \rightarrow \text{LiF} \downarrow$  | Oq cho'kma   |
| <i>I.4</i> | $\text{NH}_4^+$ | Nessler reaktiv           | $\text{NH}_4^+ - \text{ionlarining analitik reaksiyalarini}$  | Sariq-qo'ng'ir cho'kma                                     |

|     |           |  |  |  |
|-----|-----------|--|--|--|
|     |           |  | $NH_4Cl + 2K_2[HgI_4] + 4KOH \Rightarrow \left[ O \begin{array}{c} Hg \\ \langle \rangle \\ Hg \end{array} NH_2 \right] I + 7KI + KCl + 3H_2O$<br>$NH_4^+ + 2[HgI_4]^{2-} + 4OH^- \Rightarrow \left[ O \begin{array}{c} Hg \\ \langle \rangle \\ Hg \end{array} NH_2 \right] I + 7I^- + 3H_2O$ | Nessler reaktiv ortiqcha olinadi, chunki cho'kma ammoniy tuzlarida eriydi.   |
| 1.5 | $NH_4$    | $KOH$  | $NH_4Cl + KOH = KCl + NH_4OH$ $NH_4^+ + Cl^- + K^+ + OH^- = K^+ + Cl^- + NH_4OH$ $NH_4OH \xrightarrow{t^0} NH_3 \uparrow + H_2O$   | T°C va pH>7 ga teng bo'lganda ajralib chiqqan $NH_3$ ning hididan, namlangan indikator rangining o'zgarishidan bilish mumkin |
| 1.6 | $K^+$     | $NaHC_4H_4O_6$ yoki vinokislotasi $[H_2C_4H_4O_6]^+$ $CH_3COONa$ | $K^+ - ionlarining analitik reaksiyalari$ $KCl + NaHC_4H_4O_6 \Rightarrow KHC_4H_4O_6 + NaCl$ $K^+ + Cl^- + Na^+ + HC_4H_4O_6^- \Rightarrow KHC_4H_4O_6 + Na^+ + Cl^-$ $K^+ + HC_4H_4O_6^- \Rightarrow KHC_4H_4O_6$  | pH=7, rast haroratda probirka devori shisha tayoqcha bilan ishqalanganda oq kristall cho'kma hosil bo'ladi                   |
| 1.7 | $K^+$     | $Na_3[Co(NO_2)_6]$   | $2KCl + Na_3[Co(NO_2)_6] \Rightarrow K_2Na[Co(NO_2)_6] + 2NaCl$ $2K^+ + 2Cl^- + 2Na^+ + Na^+[Co(NO_2)_6]^-$ $\xrightarrow{3} K_2Na[Co(NO_2)_6] + 2Na^+ + 2Cl^-$ $2K^+ + Na^+[Co(NO_2)_6]^- \xrightarrow{3} K_2Na[Co(NO_2)_6]$  | pH=7, sariq cho'kma, kuchli kislotalarda eriydi.   |
| 1.8 | $K^+$     |  | Alangani bo'yashi  | Och binafsha   |
| 1.9 | $Mg^{2+}$ | $Na_2HPo_4$  | $Mg^{2+} - ionlarining analitik reaksiyalari$ $MgCl_2 + Na_2HPO_4 + NH_4OH \Rightarrow MgNH_4PO_4 + 2NaCl + H_2O$ $Mg^{2+} + 2Cl^- + 2Na^+ + HPO_4^{2-}$ $+ NH_4OH \Rightarrow MgNH_4OH + 2Na^+ + 2Cl^- + H_2O$ $Mg^{2+} + HPO_4^{2-} + NH_4^+ \Rightarrow MgNH_4PO_4$                         | Oq cho'kma mineral kislotalarda eriydi.  |

|      |           |                     |  |  |
|------|-----------|---------------------|--|--|
| 1.10 | $Mg^{2+}$ | $NaOH$<br>( $KOH$ ) | $MgCl_2 + 2NaOH = \downarrow Mg(OH)_2 + 2NaCl$ $Mg^{2+} + 2Cl^- + 2Na^+ + 2OH^-$ $= \downarrow Mg(OH)_2 + 2Na^+ + 2Cl^-$ $Mg^{2+} + 2OH^- = \downarrow Mg(OH)_2$ | Oq amorf cho'kma, mineral kislotalarda va ammoniy tuzlarida eriydi |
|------|-----------|---------------------|--|--|



### Ikkinci analitik guruh kationlari umumiy tavsifi.

Ikkinci analitik guruh kationlari  $Ca^{2+}$ ,  $Sr^{2+}$ ,  $Ba^{2+}$  ionlari kiradi. Bu kationlar birinchi analitik guruh kationlaridan farq qilib, turli ionlar bilan birikib suvda qiyin eriydigan tuzlar hosil qiladi. Masalan: ikkinchi guruh kationlarining sulfatlari, fosfatlari, oksalatlari va karbonatlari suvda qiyin eriydi. Ikkinci guruh kationlarining birinchi analitik guruh kationlaridan karbonatlar  $CaCO_3$ ,  $SrCO_3$ ,  $BaCO_3$  holida ajratish qulay. Chunki olingan cho'kmani keyingi tahlillar uchun eritmaga oson o'tkazish mumkin. Shuning uchun ikkinchi analitik guruhning umumiy reagenti sifatida ( $pH=9,2$ )  $(NH_4)_2CO_3$  ammoniy karbonat ishlatiladi.

Ikkinci analitik guruh kationlarining sulfidlari ham birinchi guruh kationlarining sulfidlari kabi suvda yaxshi eriydi. II guruh kationlari shu jihatdan III, IV, V analitik guruh kationlaridan farq qiladi. Ikkinci analitik guruh kationlariga xos bo'lgan xususiy reaksiyalar 9 – jadvalda keltirilgan.

### Guruh reagentining ta'siri

Ikkinci guruh kationlarini birinchi guruh kationlaridan guruh reagenti  $(NH_4)_2CO_3$  yordamida zarur bo'lgan sharoitida cho'ktirishdir. To'la cho'ktirishning muhim shartlaridan biri eritma muhitini kerakli  $pH$  qiymatiga keltirishdir. Bu  $pH$  ning qiymati eritmada  $(NH_4)_2CO_3$  ning ortiqcha miqdorda bo'lishiga bog'liq bo'ladi. Bu tuz quyidagi tenglamaga muvofiq gidrolizlanadi.




Shu sababli ammoniy karbonat eritmasi, aslini olganda, taxminan ekvivalent miqdordagi  $NH_4OH$  bilan ammoniy tuzi  $NH_4HCO_3$  aralashmasidan iborat, ya'ni u  $pH = 9,2$  bo'lgan ammoniyli bufer aralashmadir. Eritmaning  $pH$

qiymatini bir xil miqdorda saqlab turish uchun eritmaga guruh reagenti ta`sir etmasdan  $NH_4OH$  bilan  $NH_4Cl$  li bufer aralashma qo'shiladi, so'ngra, guruh reagenti ta`sir ettiriladi. Bunda karbonatlari suvda eriydigan  $K^+$ ,  $Na^+$ ,  $Mg^{2+}$  kationlari eritmada qoladi.



Magniy gidroksi karbon  $(MgOH)_2CO_3$  hamda magniy gidroksid  $Mg(OH)_2$  garchi qiyin eriydigan bo'lsa ham pH = 9,2 bo'lganda cho'kmaga tushmaydi.  $Mg(OH)_2$  pH = 10,04 bo'lganda cho'ka boshlaydi va pH = 12,42 bo'lganda batamom cho'kib bo'ladi,  $(MgOH)_2CO_3$  ning cho'kish sharoiti ham xuddi shunday.

Shunday qilib cho'ktirishni pH = 9,2 da olib borilsa, ikkinchi guruh kationlari batamom ajraladi. Ikkinchi guruh kationlarining to'liq cho'kishiga ta`sir ko'rsatadigan muhim sharoitlardan biri, eritmaning haroratidir. Gap shundaki, ammoniy karbonat qattiq holatda saqlanganda qisman parchalanib, ammoniy bikarbonat va karbaminat tuzlarini hosil qiladi.



Hosil bo'lgan ammoniy karbaminatni yo'qotish uchun ikkinchi guruh kationlarining 80°C atrofida isitilgan eritmadan cho'ktirish kifoya. Harorat ko'tarilishi bilan yuqorida keltirilgan reaksiya muvozanati chapga, ya`ni ammoniy bikarbonat va karbanatning ammoniy karbonatga aylanishi tomon siljiydi. Qizdirish yana shuning uchun ham foydaliki, bunda amorf holda cho'ka boshlagan karbonatlarning kristall cho'kmaga aylanishi ham tezlashadi. Shunday qilib, ikkinchi guruh kationlarini, ularning guruh reagenti ta`sirida ammiak va ammoniy xlorid ishtirokida, pH=9,2 da eritmani 80°C gacha qizdirish yo'li bilan cho'ktirish kerak. Bu vaqtda  $CaCO_3$ ,  $SrCO_3$  cho'kmaga tushib birinchi guruh kationlari kiritilgan ammoniy tuzlari bilan birga eritmada qoladi. Guruh reagentining ta`sirini o'rGANISH uchun 3 ta probirkaga alohida – alohida  $CaCl_2$ ,  $SrCl_2$ ,  $BaCl_2$  eritmalaridan bir – ikki tomchidan olinadi va probirkalarni suv hammomida qizdirib turib  $(NH_4)_2CO_3$  eritmasidan ta`sir ettiriladi. Bunda uchala probirkada oq

cho'kmalar  $CaCO_3$ ,  $SrCO_3$ ,  $BaCO_3$  hosil bo'ladi. Karbonatlar hosil bo'lish reaksiya tenglamalarini umumiy ko'rinishda quyidagicha yozish mumkin:



Hosil bo'lgan karbonatlar kuchsiz kislotalar tuzi bo'lganligi sababli  $HCl$ ,  $HNO_3$ ,  $CH_3COOH$  larda oson eriydi, reaksiya natijasida  $CO_2$  gazi ajralib chiqadi.



### **Birinchi va ikkinchi analitik guruh kationlari aralashmasining analizi**



1.  $NH_4^+$  ionini topish.  $NH_4^+$  ioni eritmadan mos ravishda 1.4 va 1.5 reaksiyalar (8-jadval) yordamida topiladi.


2.Ikkinchi guruh kationlarini birinchi guruh kationlaridan ajratish va ochish. Ikkinchi analitik guruh kationlari ammoniy karbonat  $(NH_4)_2CO_3$  yordamida pH=9,2 da cho'ktiriladi. Eritmaning muhitini 9,2 ga tenglashtirish uchun eritmaga ammoniyli bufer, ya`ni  $NH_4OH$  va  $NH_4Cl$  ning 2 n li eritmalaridan bir necha tomchidan qo'shiladi. Eritma muhitining 9,2 ga kelganligini universal indikator qog'ozni yordamida tekshiriladi. Kerakli muhit hosil qilingan eritma taxminan 80°C gacha qizdiriladi va unga 8-10 tomchi 2 n li  $(NH_4)_2CO_3$  eritmasidan qo'shiladi. Probirkadagi aralashma yaxshilab chayqatiladi va suv hammomida 1-2 minut qizdiriladi so'ngra sentrifugalanadi. Cho'kma eritmadan ajratilmasdan oldin ikkinchi guruh kationlarining to'liq cho'kkanligi eritmaga bir necha tomchi  $(NH_4)_2CO_3$  eritmasidan tomizilib tekshiriladi. To'liq cho'ktirish amalgalashirilgandan keyin, cho'kma eritmadan ajratiladi. Ajratib olingan ikkinchi guruh kationlarining karbonatli cho'kmasi issiq suvda bir marta yuviladi va quyidagi sxema bo'yicha analiz qilinadi.

## Ikkinchchi analitik guruh kationlariga xos bo'lgan xususiy reaksiyalar

### 9– jadval

| N    | Ion       | Reagent                                | Reaksiyalarning molekulyar va ionli tenglamasi   | Ilova  |
|------|-----------|--|--|--|
| 2.1  | $Ba^{2+}$ | $K_2Cr_2O_7$<br>$CH_3COONa$            | $Ba^{2+}$ - ionlarining analitik reaksiyalari<br>$2BaCl_2 + K_2Cr_2O_7 + H_2O = \downarrow 2BaCrO_4 + 2KCl + 2HCl$<br>$2Ba^{2+} + 4Cl^- + 2K^+ + Cr_2O_7^{2-} + H_2O = \downarrow 2BaCrO_4 + 2K^+ + 2Cl^- + 2H^+ + 2Cl^-$<br>$2Ba^{2+} + Cr_2O_7^{2-} + H_2O = \downarrow 2BaCrO_4 + 2H^+$   | pH≈5, sariq cho'kma, kuchli kislotalarda eriydi  |
| 2.2. | $Ba^{2+}$ |  | Alangani bo'yashi.   | Sarg'ish-yashil rang   |
| 2.3  | $Ca^{2+}$ | $(NH_4)_2$                             | $Ca^{2+}$ - ionlarining analitik reaksiyalari.<br>$CaCl_2 + (NH_4)_2C_2O_4 = \downarrow CaC_2O_4 + 2NH_4Cl$<br>$Ca^{2+} + 2Cl^- + 2NH_4^+ + C_2O_4^{2-} = \downarrow CaC_2O_4 + 2NH_4^+ + 2Cl^-$<br>$Ca^{2+} + C_2O_4^{2-} = \downarrow CaC_2O_4$  | Oq cho'kma mineral kislotalarda eriydi   |
| 2.4  | $Ca^{2+}$ | $K_4[Fe(CN)_6]$<br>$(NH_4OH + NH_4Cl)$ | $CaCl_2 + K_4[Fe(CN)_6] + 2NH_4Cl = \downarrow Ca(NH_4)_2[Fe(CN)_6] + 4KCl$<br>$Ca^{2+} + 2Cl^- + 4K^+ + [Fe(CN)_6]^4- + 2NH_4^+ + 2Cl^- = \downarrow Ca(NH_4)_2[Fe(CN)_6]$<br>$Ca^{2+} + [Fe(CN)_6]^4- + 2NH_4^+ = \downarrow Ca(NH_4)_2[Fe(CN)_6] + K^+ + Cl^-$  | Oq kristall cho'kma sirka kislotalada erimaydi.  |
| 2.5  | $Ca^{2+}$ |  | Alangani bo'yashi.   | Qizg'ish – rangli.   |
| 2.6  | $Sr^{2+}$ | $CaSO_4$<br>(Gipsli suv)               | $SrCl_2 + CaSO_4 = \downarrow SrSO_4 + CaCl_2$<br>$Sr^{2+} + 2Cl^- + Ca^{2+} + SO_4^{2-} = \downarrow SrSO_4 + Ca^{2+} + 2Cl^-$<br>$Sr^{2+} + SO_4^{2-} = \downarrow SrSO_4$<br>$Ba^{2+}, Ca^{2+}, Sr^{2+}$ ionlari $Na_2HPO_4$ , $(NH_4)_2SO_4$ , $(NH_4)_2CO_3$ , $(NH_4)_2C_2O_4$ kabi reagentlar bilan ham reaksiyaga kirishib, oq cho'kma hosil qiladi. | $SrSO_4$ ning EK si kichik bo'lganligi uchun gipsli suvda $Sr^{2+}$ cho'kmaga tushadi. |


## Ikkinchchi analitik guruhi kationlarining analiz sxemasi (5-sxema)



## Birinchi guruh kationlari bo'lgan eritma analizi

Agar eritmada  $NH_4^+$  ioni bo'lsa (II-guruhni cho'ktirishda albatta kiritiladi) uni  $K^+$  ni topishdan oldin yo'qotish kerak. Buning uchun eritmaga formaldegid (formalin)  $CH_2O$  eritmasi qo'shib ammoniyli organik birikma  $(CH_2)_6N_4$  urotropinga aylantiriladi. Eritmada  $K^+$ ,  $Mg^{2+}$  ionlari tegishli reaksiyalar yordamida aniqlanadi. (6-sxema)

### Analiz sxemasi



## NAZORAT SAVOLLARI

1. I guruh kationlariga umumiy tasnif bering.
2.  $Na^+$ ,  $K^+$ ,  $NH_4^+$  ionlarini aniqlashda ishlatiladigan reagentlarning nomlarini va formulalarini yozing.

3.  $\text{NH}_4^+$  ionini Nessler reaktiv bilan,  $\text{K}^+$  ionini kaliy geksanitrokobalt (III) bilan reaksiya tenglamalarini yozing. Bu reaksiyalarni qanday sharoitda olib borilishini tushuntiring.
4. Nessler reaktivining kimyoviy tarkibi qanday?
5. I guruh kationlaridan qaysilari alanga rangini bo'yaydi?
6. II guruh kationlarining guruh reagentini aytинг.
7. Amalda  $\text{K}_2\text{SO}_4$  ni qanday qilib  $\text{K}_2\text{CO}_3$  ga o'tkazish mumkin?

### **Laboratoriya mashg'uloti**

#### **Uchinchi analitik guruh kationlarini ochish reaksiyalari va aralashmasining analizini bajarish**

Mashg'ulotning maqsadi:

III analitik guruh kationlarining analitik reaksiyalarni bajarishni o'rghanish

Analitik reaksiya sezgirligiga doir masalalar yechish

Mavzuning ahamiyati

Mashg'ulot natijasida orttirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar quyidagi mavzularni o'zlashtirish uchun kerak bo'ladi.

Maqsadni amalga oshirmoq uchun belgilangan vazifalar:

Bilish kerak:

III analitik guruh kationlariga xarakterli reaksiyalarni bajarish va ularga guruh reagentining ta'siri

Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. III analitik guruh kationlarining umumiylar xarakteristikasi (D.I.Mendeleyev davriy jadvalida elementlarni tutgan o'rni, guruh reagentining ta'siri, guruhning tarkibi, kationlardan hosil bo'lgan birikmalar: oksidlar, gidroksidlar va tuzlarning xossalari).

2. Eritmalarning konsentratsiyasini ifodalash, prosent, molyar, ekvivalent-molyar konsentratsiya (normallik) va ular o'rtasidagi bog'lanishlar.

3. Kuchli elektrolitlar nazariyasi: faollik, faollik koeffitsiyenti, eritmani ion kuchi va pH.

Reaktivlar:

0,05 mol/l alyuminiy, xrom (III), rux nitrat tuzlari;

kaliy dixromat, xromat, temir (II), (III) xloridi, natriy yoki kaliy xloridi, bromidi, yodidi, o'yuvchi ishqorlar - NaOH va KOH, natriy yoki kaliy karbonat, xlorid kislota, vodorod sulfid, sulfat kislota va eruvchan sulfatlar, natriy gidrofosfat, mis plastinkasi yoki misli tanga, 30% ammoniy yoki natriy asetat eritmasi.

O'quv jadvallari

1. Vodorod sulfidli usul bo'yicha kationlar tasnifi
2. III analitik guruh kationlarini xarakterli reaksiyalari
3. D.I.Mendeleyevning davriy jadvali




### **Uchinchi analitik guruh kationlarini ochsh reaksiyalari va aralashmasining analizini bajarish**

Uchinchi guruh kationlari  $Al^{3+}$ ,  $Cr^{2+}$ ,  $Zn^{2+}$ ,  $Fe^{2+}$ ,  $Fe^{3+}$ ,  $Co^{2+}$ ,  $Ni^{2+}$ ,  $Mn^{2+}$  ionlari kiradi. Bu guruh kationlari birinchi va ikkinchi analitik guruh kationlaridan tegishli sulfidlarining suvda erimasligi bilan farq qiladi. Lekin ularning sulfidlari suyultirilgan kislotalarda eriydi. Ularning to'rtinchi va beshinchi guruh kationlaridan farqi ham shunda. Uchinchi guruh kationlari bilan ishlanganda, ularning tuzlarining gidrolizi, gidroksidlarining amfoterligi, oksidlanish darajasining o'zgarishi kabi kimyoviy o'zgarishlarga duch kelish mumkin.



Uchinchi guruh kationlari  $pH = 8 - 9$  bo'lganda ammoniyli bufer aralashma ishtirokida,  $t^0C = 60 - 70^0C$  guruh reagenti  $(NH_4)_2S$  ta'sirida cho'ktiriladi. Guruh kationlarining ko'pchiligi sulfidlar –  $Fe_2S_3$ ,  $FeS$ ,  $MnS$ ,  $CoS$ ,  $NiS$ ,  $ZnS$  holida, alyuminiy va xrom ionlari gidroksidlar –  $Al(OH)_3$ ,  $Cr(OH)_3$  ko'rinishida cho'kadi. Chunki  $(NH_4)_2S$  gidrolizlanishi natijasida hosil bo'ladigan  $OH^-$  ionlari konsentratsiyasi  $[Al^{3+}][OH^-]^3 > \mathcal{K}_{Al(OH)_3}$ ,  $[Cr^{3+}][OH^-]^3 > \mathcal{K}_{Cr(OH)_3}$  bo'lishi uchun

yeterli. Ana shuning uchun  $Al(OH)_3$  va  $Cr(OH)_3$  cho'kmalari hosil bo'ladi.

Masalan:




Bu hosil bo'lgan gidroksidlar ham asos, ham kislota xossasiga ega bo'lib, amfoter moddalar deyiladi.



Ularni bu xossasidan foydalanim kationlarni bir-biridan ajratish mumkin.

Uchinchi guruh kationlari uchun muhim bir xossa - oksidlanish darajalarining o'zgarishi, ularning bu xossalaridan foydalanim ham ayrim kationlarni ochish mumkin. Masalan:



Kompleks birikmalarning hosil bo'lish reaksiyalaridan, uchinchi guruh kationlari uchun sezgir va xususiy reaksiyalar sifatida foydalish mumkin.

Masalan:  $Fe^{2+}$  ionini turunbul ko'ki  $Fe_3[Fe(CN)_6]_2$ ,  $Fe^{3+}$  ionini berlin lazuri  $Fe_4[Fe(CN)_6]_3$  kompleks tuzlari ko'rinishida aniqlanadi.

Uchinchi guruh kationlari aralashmasini analizida ayrim reaksiyalarga xalal beruvchi ionlarni niqoblashda (kompleks birikmalar mavzusiga qarang) foydalilanadi. Uchinchi guruh kationlarining xususiy reaksiyalarini 10-jadvalda keltirilgan.

## Uchinchi analitik guruh kationlariga xos bo'lgan xususiy reaksiyalar

### 10-jadval

| N   | Ion       | Reagent   | <i>Reaksiyaning molekulyar va ionli tenglamasi</i>   | Ilova   |
|-----|-----------|---|--|---|
| 3.1 | $Al^{3+}$ | $NaOH$<br>( $KOH$ )                                       | <p><i>Al<sup>3+</sup>- ionlarining analitik reaksiyalari.</i></p> $AlCl_3 + 3NaOH \rightarrow Al(OH)_3 + 3NaCl$ $Al^{3+} + 3Cl^- + 3OH^- \rightarrow Al(OH)_3 + 3Na^+ + 3Cl^-$ $Al^{3+} + 3OH^- \rightarrow Al(OH)_3$  | Oq amorf cho'kma, amfoter xossaga ega, kislotova va ishqorlarda eriydi. |
| 3.2 | $Al^{3+}$ | $Na_2HPO_4$   | $AlCl_3 + Na_2HPO_4 \rightarrow AlPO_4 + 2NaCl + HCl$ $Al^{3+} + 3Cl^- = 2Na^+ + HPO_4^{2-} \rightarrow AlPO_4 + 2Na^+ + 2Cl^- + H^+ + Cl^-$ $Al^{3+} + HPO_4^{2-} \rightarrow AlPO_4 + 2H^+$  | Oq kristall cho'kma, kuchli kislotalarda eriydi.                        |
| 3.3 | $Zn^{2+}$ | $Na_2HPO_4$   | <p><i>Zn<sup>2+</sup>- ionlarining analitik reaksiyalari.</i></p> $3ZnCl_2 + 2Na_2HPO_4 \rightarrow Zn_3(PO_4)_2 + 4NaCl + 2HCl$ $3Zn^{2+} + 6Cl^- + 4Na^+ + 2HPO_4^{2-} \rightarrow Zn_3(PO_4)_2 + 4Na^+ + 4Cl^- + 2H^+ + 2Cl^-$ $3Zn^{2+} + 2HPO_4^{2-} \rightarrow Zn_3(PO_4)_2 + 2H^+$ | Oq cho'kma  |
| 3.4 | $Zn^{2+}$ | $K_3[Fe(CN)_6]$   | $3ZnCl_2 + 2K_3[Fe(CN)_6] \rightarrow Zn_3[Fe(CN)_6]_2 + 6KCl$ $3Zn^{2+} + 2[Fe(CN)_6]^{3-} + 6Cl^- + 6K^+ \rightarrow Zn_3[Fe(CN)_6]_2 + 6K^+ + 6Cl^-$ $3Zn^{2+} + 2[Fe(CN)_6]^{3-} \rightarrow Zn_3[Fe(CN)_6]_2$   | Jigarrang-sariq cho'kma $HCl$ va $NH_4OH$ da eriydi.                    |
| 3.5 | $Cr^{3+}$ | $NaOH$<br>( $KOH$ )                                       | <p><i>Cr<sup>3+</sup>- ionlarining anlitik reaksiyalari.</i></p> $Cr_2(SO_4)_3 + 6NaOH \rightarrow 2Cr(OH)_3 + 3Na_2SO_4$ $2Cr^{3+} + 3SO_4^{2-} + 6Na^+ + 6OH^- \rightarrow 2Cr(OH)_3 + 6Na^+ + 3SO_4^{2-}$ $2Cr^{3+} + 6OH^- \rightarrow 2Cr(OH)_3$                                      | Hira ko'k rangli cho'kma, amfoter xossaga ega                           |
| 3.6 | $Cr^{3+}$ | Oksidlov-chilar.<br>$H_2O_2$<br>$KMnO_4$<br>$(NH_4)_2S_2$ | $Cr_2(SO_4)^{3+} + 10NaOH + 3H_2O_2 \rightarrow 2Na_2CrO_4 + 3Na_2SO_4 + 8H_2O$ $2Cr^{3+} + 3SO_4^{2-} + 10Na^+ + 10OH^- + 3H_2O_2 \rightarrow 4Na^+ + 2CrO_4^{2-} + 6Na^+ + 3SO_4^{2-} + 8H_2O$ $2Cr^{3+} + 10OH^- + 3H_2O_2 \rightarrow 2CrO_4^{2-} + 8H_2O$                             | Ishqoriy muhitda eritmaning yashil rangi sariqqa                        |

|      |           |                             |   |   |
|------|-----------|-----------------------------|---|---|
|      |           | $O_8$                       |   | o'tgancha bir necha minut qizdiriladi.  |
| 3.7  | $Fe^{2+}$ | $NaOH$<br>( $KOH$ )         | $Fe^{2+}$ - ionlarining analitik reaksiyalari.<br>$FeSO_4 + 2NaOH \rightarrow Fe(OH)_2 + Na_2SO_4$<br>$Fe^{2+} + SO_4^{2-} + 2Na^+ + 2OH^- \rightarrow Fe(OH)_2 + 2Na^+ + SO_4^{2-}$<br>$Fe^{2+} + 2OH^- \rightarrow Fe(OH)_2$  | Xira yashil rangli cho'k - ma, kislotalarda eriydi.   |
| 3.8  | $Fe^2$    | $K_3[Fe(CN)_6]$             | $3FeCl_3 + 2K_3[Fe(CN)_6] \rightarrow$<br>$\downarrow Fe_3[Fe(CN)_6]_2 + 6KCl$<br><b>Aslida reaksiya quyidagi sxema bo'yicha boradi.</b><br>$FeCl_2 + KCl + K_3[Fe(CN)_6] \rightarrow$<br>$\downarrow FeCl_3 + K_4[Fe(CN)_6]$<br>$4FeCl_3 + 3K_4[Fe(CN)_6] \rightarrow$<br>$\downarrow Fe_4[Fe(CN)_6]_3 + 12KCl$<br>$12Cl^- + 4Fe^{3+} + 12K^+ + 3[Fe(CN)_6]^{4-} \rightarrow$<br>$\downarrow Fe_4[Fe(CN)_6]_3 + 12K^+ + 12Cl^-$<br>$4Fe^{3+} + 3[Fe(CN)_6]^{4-} \rightarrow \downarrow Fe_4[Fe(CN)_6]_3$ | "trunbul ko'ki" cho'kma "Berlin lazuri" cho'kma kislotalarda erimaydi, lekin ishqorlar ta'sirida parchalanadi |
| 3.9  | $Fe^{3+}$ | $NaOH$<br>$KOH$<br>$NH_4OH$ | $Fe^{3+}$ - ionlarining analitik reaksiyalari<br>$FeCl_3 + 3NaOH \rightarrow Fe(OH)_3 + 3NaCl$<br>$Fe^{3+} + 3Cl^- + 3Na^+ + 3OH^- \rightarrow Fe(OH)_3 + 3Na^+ + 3Cl^-$<br>$Fe^{3+} + 3OH^- \rightarrow Fe(OH)_3$  | Qizil-qo'ng'ir cho'kma, kislotalarda eriydi.  |
| 3.10 | $Fe^{3+}$ | $NH_4SCN$                   | $FeCl_3 + 3NH_4SCN \rightarrow$<br>$\downarrow [Fe(SCN)_3] + 3NH_4Cl$<br>$Fe^{3+} + 3Cl^- + 3NH_4^+ + 3SCN^- \rightarrow$<br>$\downarrow [Fe(SCN)_3] + 3NH_4^+ + 3Cl^-$<br>$Fe^{3+} + 3SCN^- \rightarrow \downarrow [Fe(SCN)_3]$  | Qizil rangli rodanid ionlarining konsentratsiyasi qarab turli tarkibli komplekslar hosil qiladi.              |
| 3.11 | $Fe^{3+}$ | $K_4[Fe(CN)_6]$             | $4FeCl_3 + 3K_4[Fe(CN)_6] \rightarrow$<br>$\downarrow Fe_4[Fe(CN)_6]_3 + 12KCl$<br>$4Fe^{3+} + 12Cl^- + 12K^+ + 3[Fe(CN)_6]^{4-} \rightarrow$<br>$\downarrow Fe_4[Fe(CN)_6]_3 + 12K^+ + 12Cl^-$<br>$4Fe^{3+} + 3[Fe(CN)_6]^{4-} \rightarrow \downarrow Fe_4[Fe(CN)_6]_3$  | "Berlin lazuri" to'q ko'k rangli cho'kma, ortiqcha reaktiv va ish qorlarda eriydi.                            |

|      |           |  |   |  |
|------|-----------|--|---|--|
| 3.12 | $Fe^{3+}$ | $Na_2HPO_4$  | $FeCl_3 + 2$ $Na_2HPO_4 \rightarrow FePO_4 + NaH_2PO_4 + 3NaCl$ $Fe^{3+} + 2HPO_4^{2-} \rightarrow FePO_4 + H_2PO_4^-$  | Oq sariq cho'kma, kuchli kislotalarda eriydi.  |
| 3.13 | $Mn^2$    | $NaOH$<br>(KOH)  | $Mn^{2+}- ionlarining analitik reaksiyalari$ $MnSO_4 + 2NaOH \rightarrow Mn(OH)_2 + Na_2SO_4$ $Mn^{2+} + 2OH^- \rightarrow Mn(OH)_2$  | Oq cho'kma, hav oda to'rt valentli marganes-manganit kislotaga $H_2MnO_3$ qadar oksidlanishi uchun xiralashadi.  |
| 3.14 | $Mn^2$    | $Na_2HPO_4$  | $3MnSO_4 + 4Na_2HPO_4 \rightarrow Mn_3(PO_4)_2 + 2N$ $aH_2PO_4 + 3Na_2SO_4$ $Mn^{2+} + 4HPO_4^{2-} \rightarrow Mn_3(PO_4)_2 + 2H_2PO_4^-$   | Oq cho'kma, sirk a kislotada eriydi  |
| 3.15 | $Mn^2$    | <i>Oksidlovchi lar</i><br>$PbO_2$<br>$NaBiO_3$<br>$(NH_4)_2S_2O_8$ | $2MnSO_4 + 5NaBiO_3 + 16HNO_3 \rightarrow 2HMnO_4 + 2Na_2SO_4 + 5Bi(NO_3)_3 + NaNO_3 + 7H_2O$ $2Mn^{2+} + 5NaBiO_3 + 14H^+ \rightarrow 2MnO_4^- + 5Bi^{3+} + 5Na^+ + 7H_2O$                               | $Mn^{2+}$ $MnO_4^-$ gacha oksidlanadi, binafsha rang   |
| 3.16 | $Co^2$    | $NaOH$<br>KOH  | $Co^{2+}- ionlarining analitik reaksiyalari.$ $CoCl_2 + 2NaOH \rightarrow Co(OH)_2 + 2NaCl$ $Co^{2+} + 2Cl^- + 2Na^+ + 2OH^- \rightarrow Co(OH)_2 + 2Na^+ + 2Cl^-$ $Co^{2+} + 2OH^- \rightarrow Co(OH)_2$ | Oldin ko'k rangli asosli tuz cho'kmasi $CoOHCi$ keyin ortiqcha NaOH qo'shib qizdirganda pushti rangli cho'kma, $Co(OH)_2$ havoda oksidlanib, qo'ng'ir rangli $Co(OH)_3$ ga |

|      |           |                                    |   |  |
|------|-----------|------------------------------------|---|--|
|      |           |                                    |   | aylanadi   |
| 3.17 | $Co^{2+}$ | $NH_4SCN$<br>Amil spirt            | $CoCl_2 + 4NH_4SCN = (NH_4)_2[Co(SCN)_4] + 2NH_4Cl$ $Co^{2+} + 2Cl^- + 4NH_4^+ + 4SCN^- = 2NH_4^+ + [Co(SCN)_4]^{2-} + 2Cl^- + 2NH_4^+$ $Co^{2+} + 2NH_4^+ + 4SCN^- = 2NH_4^+ + [Co(SCN)_4]^{2-}$                                     | Ko'k havo rangli kompleks eritmada $Fe^{3+}$ ionlari bo'lganda quruq $NH_4F$ ham qo'shiladi. |
| 3.18 | $Ni^{2+}$ | $NH_4OH$                           | $Ni^{2+}-\text{ionlarining analitik reaksiyalari}$ $Ni(NO_3)_2 + NH_4OH = Ni(OH)NO_3 + NH_4NO_3$ $NiOHNO_3 + 5NH_3 + NH_4NO_3 = [Ni(NH_3)_6](NO_3)_2 + H_2O$ $NiOHNO_3 + NH_3 + NH_4^+ + NO_3^- = [Ni(NH_3)_6]^{2+} + 2NO_3^- + H_2O$ | Yashil rangli asosli tuz cho'kadi, ko'k qizil rangli kompleks.                               |
| 3.19 | $Ni^{2+}$ | $Na_2HPO_4$                        | $3Ni(NO_3)_2 + 4Na_2HPO_4 = Ni_3(PO_4)_2 + 2NaH_2PO_4 + 6NaNO_3$ $3Ni^{2+} + 6NO_3^- + 8Na^+ + 4HPO_4^{2-} = Ni_3(PO_4)_2 + 2Na^+ + 2H_2PO_4^- + 6Na^+ + 6NO_3^-$ $3Ni^{2+} + 4HPO_4^{2-} = Ni_3(PO_4)_2 + 2H_2PO_4^-$                | Yashil cho'kma kislotalarda va ammiakda eriydi   |
| 3.20 | $Ni^{2+}$ | Dimetil glioksim(Chugaev reaktivi) | $2 \begin{array}{c} CH_2-C=NOH \\   \\ CH_3-C=NOH \end{array} + Ni(NO_3)_2 \longrightarrow$   | Qizil rangli kompleks birikma  |

## **NAZORAT SAVOLLAR**

1. III analitik guruh kationlariga qanday elementlar kiradi? Ularning fiziologik xossalari.
2. III analitik guruh kationlariga umumiy tavsif bering.
3. Analitik reaksiya sezgirligi va uning to'rtta o'zaro bog'langan o'lchamlari.
4. Alyuminiy ionini analitik reaksiyalarini yozing va tenglang.
5. Qaysi kationning xloridli tuzi issiq suvda yaxshi eriydi?
6. III guruh kationlaridan qaysilari kompleks birikmalar hosil qiladi? Formulalarini yozing.
7. Berlin lazuri hosil bo'lish tenglamasini yozing.
8. Nikel kationining Chugayev reaktivini bilan reaksiyasini yozing.

## **VAZIYATLI MASALALAR**

1. Ammoniy karbonat nima sababdan  $Mg^{2+}$  ionini to'liq cho'ktira olmaydi?
2. Nima uchun II grupper kationlarining grupper reagenti sifatida  $Na_2CO_3$  va  $K_2CO_3$ lardan foydalanish mumkin emas.
3. Nima sababdan  $BaSO_4$  kislatalarda ( $HCl$ ,  $H_2SO_4$  va  $HNO_3$ da) erimaydi?
4. Agar eritmada: a)  $Fe^{3+}$  bilan  $Al^{3+}$ , b)  $Fe^{3+}$  bilan  $Ni^{2+}$ , d)  $Zn^{2+}$  bilan  $Cr^{3+}$ , e)  $Fe^{3+}$  bilan  $Co^{2+}$  bo'lsa har qaysi juftni bir-biridan qanday ajratish mumkin?

### **Laboratoriya mashg'uloti**

**To'rtinchi analitik guruh kationlarini ochish reaksiyalari va aralashmasining analizini bajarish**

Mashg'ulotning maqsadi:

IV analitik guruh kationlarining analitik reaksiyalarini bajarishni o'rganish  
Analitik reaksiya sezgirligiga doir masalalar yechish

Mavzuning ahamiyati:

Mashg`ulot natijasida orttirilgan nazariy bilim va amaliy ko`nikmalar quyidagi mavzularni o`zlashtirish uchun kerak bo`ladi.

Maqsadni amalga oshirmoq uchun belgilangan vazifalar

Bilish kerak:

IV analitik guruh kationlariga xarakterli reaksiyalarni bajarish va ularga guruh reagentining ta'siri

Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. IV analitik guruh kationlarining umumiylar xarakteristikasi (D.I.Mendeleyev davriy jadvalida elementlarni tutgan o'rni, guruh reagentining ta'siri, guruhning tarkibi, kationlardan hosil bo'lgan birikmalar: oksidlar, gidroksidlar va tuzlarning xossalari).
2. Bufer eritmalaridan analitik kimyoda foydalanish.

3. Tuzlarning gidrolizi nima? Tuzlar gidrolizidan analitik kimyoda foydalanish.

Reaktivlar:

0,05 mol/l vismut, simob, kadmiy nitrat tuzlari; kaliy dixromat, qalay (II), (IV), vismut, surma, simob xloridlari, natriy yoki kaliy xloridi, bromidi, yodidi, o'yuvchi ishqorlar - NaOH va KOH, natriy yoki kaliy karbonat, xlorid kislota, vodorod sulfid, sulfat kislota va eruvchan sulfatlar, natriy hidrofosfat, mis plastinkasi yoki misli tanga, temir kukuni, 30% ammoniy yoki natriy asetat eritmasi.

O'quv jadvallari

1. Vodorod sulfidli usul bo'yicha kationlar tasnifi
2. IV analitik guruh kationlarini xarakterli reaksiyalari
3. D.I.Mendeleyevning davriy jadvali

### To'rtinchi analitik guruh kationlariga umumiylar tavsif

To'rtinchi analitik guruh kationlariga  $Cu^{2+}$ ,  $Bi^{3+}$ ,  $Cd^{2+}$ ,  $Hg^{2+}$ ,  $Sb^{3+}$ ,  $Sb^{5+}$ ,  $Sn^{2+}$ ,  $Sn^{4+}$ ,  $As^{3+}$ ,  $As^{5+}$  ionlari kiradi. Bu kationlar kislotali muhitda ( $pH=0,5$ ) vodorod sulfid ta'sirida sulfidlar holida cho'kadi. Hosil bo'lgan sulfidlar,

elementlar o'zlarining davriy sistemadagi joylashishiga qaramay, turli xossaga ega bo'ladi. Shuning uchun ular ikki guruhga ajratiladi:

1 – mis guruhchasi

$Cu^{2+}$ ,  $Cd^{2+}$ ,  $Hg^{2+}$ ,  $Pb^{2+}$ ,  $Bi^{3+}$ ,  $Sn^{2+}$  va boshqalar (bu guruhga kationlarning sulfidlari tarkibdagi elementlarning asosli xossalari ancha yuqori bo'lgani uchun ishqorlarda erimaydi).

2 – mishyak guruhchasi

$Sb^{3+}$ ,  $Sb^{5+}$ ,  $Sn^{2+}$ ,  $Sn^{4+}$ ,  $As^{3+}$ ,  $As^{5+}$  bu guruh ionlarining sulfidlari ishqorlarda eriydi.  $Sn^{2+}$  kationi  $Sn^{4+}$  ga nisbatan asosli xususiyati ancha yuqori bo'lgani sababli boshqalardan ajralib turadi. Uning sulfidlari ishqorlarda  $Na_2S$  va  $(NH_4)_2S$  da erimaydi.

$SnS$  faqat ammoniy polisulfidda eriydi, chunki bunda  $Sn^{2+}$  ioni  $Sn^{4+}$  gacha oksidlanadi. Shuning uchun  $Sn^{4+}$  gacha oksidlanadi. Shuning uchun  $Sn^{2+}$  gacha oksidlab olish mumkin. Bu guruh kationlarini hosil qiluvchi elementlar D.I.Mendeleyev davriy sistemasining 4,5 va 6 katta davrlarining ikkinchi yarmida I, II, IV, V guruhlarda joylashgan. Bu metallarning ionlari tugallangan 18 elektronli tashqi qobiqqa yoki tashqi qavatida 18+2 elektron bo'lgan qobiqqa ega bo'ladi. Tugallangan tashqi qavatga ega bo'lgan  $Cu^{2+}$  kationi bundan mustasnodir. To'rtinchchi analitik guruh kationlariga xos bo'lgan xususiy reaksiyalar 11–jadvalda berilgan.






### Guruh reagentining ta'siri

Bu guruhning guruh reagenti kislotali muhitda vodorod sulfiddir. Vodorod sulfid pH=0,5 ga teng bo'lganda IV va V analitik guruhining hamma kationlarini cho'ktiradi. Shuning uchun V analitik guruh kationlarini oldindan eriymadigan xlоридлар holida ajratib olinadi. Lekin har ikkala guruh kationlarining sulfidlari xossalari bilan bir vaqtida tanishish maqsadga muvofiq. Tegishli tuz eritmalarining biridan 1-2 tomchi olib, probirkada 5-6 tomchi suv qo'shib suyultiriladi va 2 n HCl eritmasidan bir tomchi qo'shib, olingan eritmadan  $H_2S$  o'tkaziladi.


Har bir tajribadan keyin eritmaga vodorod sulfid yuboriladigan shisha nayni tozalab yuvish kerak. kumush, qo'rg'oshin, mis, vismut va simob (I va II)

tuzlari eritmasida  $H_2S$  o'tkazilganda  $Ag_2S$ ,  $PbS$ ,  $CuS$ ,  $Bi_2S_3$ ,  $HgS$  ning qora tusli cho'kmalari hosil bo'ladi.



Masalan:




$[Hg_2]^{2+}$  ion vodorod sulfid ta'siridan, darhol  $HgS$  va  $Hg$  ga parchalanib ketadigan  $Hg_2S$  qora cho'kmani hosil qiladi.




Kadmiy tuzlari eritmasidan xarakterli och-sariq tusli cho'kma  $CdS$  cho'kadi, uning hosil bo'lishi  $Cd^{2+}$  ion uchun xarakterli reaksiyadir.



IV va V guruh kationlarining sulfidlari III guruh kationlari sulfidlaridan farq qilib, suyultirilgan kislotalarda ( $HCl$ ,  $H_2SO_4$ ) da erimaydi. Chunki bu sulfidlarning eruvchanlik ko'paytmasi juda – juda kichik. Lekin ular  $S^{2-}$  ionlarini  $S$  gacha oksidlaydigan suyultirilgan  $HNO_3$  da oson eriydi, masalan:



IV guruh kationlarinig sulfidlaridan  $HgS$  juda oz eruvchan ( $\mathcal{E}K = 1,6 \cdot 10^{-52}$ ) bo'lib, «zar suvi» (1 hajm konsentrangan  $HNO_3$  va 3 hajm konsentrangan  $HCl$  aralashmasi) da eriydi.



11-jadval. To'rtinchi analitik gruppaga kationlari uchun xos bo'lgan xususiy reaksiyalar

|      | Ion       | Reagent                  | Reaksiyaning molekulyar va ionli tenglamasi   | Ilova  |
|------|-----------|--------------------------|---|--|
|      | 2         | 3                        | 4   | 5  |
| 4. 1 | $Cd^{2+}$ | $NaOH, KOH$              | $Cd^{2+}$ - ionlarining analitik reaksiyaları.<br>$CdJ_2 + 2NaOH \rightarrow Cd(OH)_2 + 2NaJ$<br>$Cd^{2+} + 2J^- + 2Na^+ + 2OH^- \rightarrow Cd(OH)_2 + 2Na^+ + 2J^-$<br>$Cd^{2+} + 2NaOH \rightarrow Cd(OH)_2$ | Oq cho'kma, kislotalarda eriydi.   |
| 4. 2 | $Cd^{2+}$ | Gliserin<br>$NaOH$       | $Cd^{2+} + 2NaOH \rightarrow Cd(OH)_2 + 2Na^+$  | Eritmada $Cu^{2+}, Pb^{2+}$ va $Bi^{3+}$ ionlari bo'lganda gliserin ( $C_3H_8O_3$ ) yordamida ajratiladi. Gliserin $Cd^{2+}, Pb^{2+}$ va $Bi^{3+}$ ionlari bilan eruvchan gliseratlar hosil qiladi. $Cd^{2+}$ esa $NaOH$ tas`irlashib oq cho'kma hosil qiladi. |
| 4.3  | $Cd^{2+}$ | $H_2S$                   | $CdJ_2 + H_2S \rightarrow CdS + 2HJ$<br>$Cd^{2+} + 2J^- + H_2S \rightarrow CdS + 2H^+ + 2J^-$<br>$Cd^{2+} + S^{2-} \rightarrow CdS$   | pH < 7, sariq cho'kma.   |
| 4.4  | $Cu^{2+}$ | $NH_4OH$                 | $Cu^{2+}$ - ionlarining analitik reaksiyasi.<br>$CuSO_4 + NH_4OH \rightarrow (CuOH)_2SO_4 + (NH_4)_2SO_4$<br>$CuSO_4 + 4NH_3 \rightarrow [Cu(NH_3)_4]SO_4$  | Havo rang cho'kma, ortiqcha ammiakda eriydi, to'q-ko'k kompleks hosil qiladi.  |
| 4.5  | $Cu^{2+}$ | $K_4[Fe(CN)_6]$          | $2CuSO_4 + K_4[Fe(CN)_6] \rightarrow Cu_2[Fe(CN)_6] + 2K_2SO_4$<br>$2Cu^{2+} + K_4[Fe(CN)_6]^{4-} \rightarrow Cu_2[Fe(CN)_6]$   | pH < 7 qizil qo'ng'ir cho'kma  |
| 4.6  | $Cu^{2+}$ | qaytaruv-chilar $Fe, Al$ | $CuSO_4 + Fe \rightarrow FeSO_4 + Cu$<br>$Cu^{2+} + SO_4^{2-} + Fe \rightarrow Fe^{2+} + SO_4^{2-} + Cu$<br>$Cu^{2+} + Fe \rightarrow Fe^{2+} + Cu$   | Qizil g'ovak massa ko'rinishida, mis metaligacha qaytariladi.  |

|      |           |                                    |  |   |
|------|-----------|------------------------------------|--|---|
| 4.7  | $Bi^{3+}$ | Gidroliz<br>$H_2O$                 | $Bi^{3+}$ - ionlarining analitik reaksiyasi.<br>$BiCl_3 + 2H_2O \rightarrow Bi(OH)_2Cl + 2HCl$<br>$Bi^{3+} + 3Cl^- + 2H_2O \rightarrow Bi(OH)_2Cl + 2H^+ + 2Cl^-$<br>$Bi(OH)_2Cl \rightarrow BiOCl + H_2O$   | Oq cho'kma, mineral kislotalarda eriydi.  |
| 4.8  | $Bi^{3+}$ | 'KJ                                | $Bi(NO_3)_3 + 3KJ \rightarrow BiJ_3 + 3KNO_3$<br>$Bi^{3+} + 3J^- \rightarrow BiJ_3$<br>$BiJ_3 + KJ \rightarrow K[BiJ_4]$   | Qora cho'kma, reaktivning ortiqcha miqdorida erib kompleks birikma hosil qiladi.                |
| 4.9  | $Bi^{3+}$ | $K_2Cr_2O_7$                       | $2Bi(NO_3)_3 + K_2Cr_2O_7 + 2H_2O \rightarrow (BiO)_2Cr_2O_7$<br>$+ 2KNO_3 + 4HNO_3$<br>$2Bi^{3+} + 6NO_3^- + 2K^+ + Cr_2O_7^{2-} + 2H_2O$<br>$\rightarrow (BiO)_2Cr_2O_7 + 2K^+ + 2NO_3^- + 4H^+ + 4NO_3^-$ | Sariq cho'kma, sirkalarda eriydi, ishqorlarda erimaydi.   |
| 4.10 | $Bi^{3+}$ | $Na_2HPO_4$                        | $Bi(NO_3)_3 + Na_2HPO_4 \rightarrow BiPO_4 + 2NaNO_3 + HNO_3$<br>$Bi^{3+} + HPO_4^{2-} \rightarrow BiPO_4 + H^+$   | Oq kukunsimon cho'kma suyultirilgan $HNO_3$ erimaydi.   |
| 4.11 | $Bi^{3+}$ | $Na_2SnO_2$                        | $2Bi(OH)_3 + 3Na_2SnO_2 \rightarrow 2Bi + 3Na_2SnO_3 + 3H_2O$<br>$2Bi(OH)_3 + 3SnO_2^{2-} \rightarrow 2Bi + 3SnO_3^{2-} + 3H_2O$   | pH>7, qora cho'kma.   |
| 4.12 | $Sn^{2+}$ | $NaOH$<br>( $KOH$ )                | $Sn^{2+}$ - ionlarining analitik reaksiyasi.<br>$2SnCl_2 + 2NaOH \rightarrow H_2SnO_2 + 2NaCl$<br>$Sn^{2+} + 2Cl^- + 2Na^+ + 2OH^- \rightarrow H_2SnO_2 + 2Na^+ + 2Cl^-$                                     | Oq cho'kma, kislota va ishqorlarda eriydi.  |
| 4.13 | $Sn^{2+}$ | $HgCl_2$<br>$Bi(NO_3)_3$           | $SnCl_2 + 2HgCl_2 \rightarrow Hg + SnCl_4$   | Toza Hg cho'kadi.   |
| 4.14 | $Sn^{4+}$ | Qaytaruvchi<br>lar ( $Mg$ , $Fe$ ) | $Sn^{4+}$ - ionlarining analitik reaksiyasi.<br>$H_2[SnCl_6] + Mg \rightarrow MgCl_2 + SnCl_2 + 2HCl$<br>$2H^+ + [SnCl_6]^{2-} + Mg \rightarrow Mg^{2+} + 2Cl^- + Sn^{2+} + 2Cl^-$<br>$+ 2H^+ + 2Cl^-$       | Agar eritmada kislota etishmay qolsa, Sn kul rang cho'kma, $HCl$ ta'sirida cho'kma erib ketadi. |
| 4.15 | $Sn^{4+}$ | $NaOH$ ,<br>( $KOH$ )              | $SnCl_4 + 4NaOH \rightarrow H_4SnO_4 + 4NaCl$<br>$Sn^{4+} + 4OH^- \rightarrow H_4SnO_4$  | Oq iviq cho'kma.  |
| 4.16 | $Sb^{3+}$ | Gidroliz                           | $Sb^{3+}$ - ionlarining analitik reaksiyasi.   |   |


|      |           |                                   |  |  |
|------|-----------|-----------------------------------|--|--|
|      |           | $(H_2O)$                          | $SbCl_3 + H_2O = \downarrow SbOCl + 2HCl$<br>$Sb^{3+} + 3Cl^- + H_2O = \downarrow SbOCl + 2H^+ + 2Cl^-$  | Oq cho'kma.  |
| 4.17 | $Sb^{3+}$ | $Na_2S_2O_3$                      | $6HCl$<br>$2SbCl_3 + 2Na_2S_2O_3 + 3H_2O = \downarrow Sb_2OS_2 + 2Na_2SO_4 +$<br>$2Sb^{3+} + 2S_2O_3^{2-} + 3H_2O = \downarrow Sb_2OS_2 + 2SO_4^{2-} + 6H^+$   | pH $\leq 7$ , qizil cho'kma.   |
| 4.18 | $Sb^{3+}$ | $Sn$                              | $2SbCl_3 + 3Sn = \downarrow 2Sb + 3SnCl_2$<br>$2Sb^{3+} + 3Sn = \downarrow 2Sb + 3Sn^{2+}$   | Qora cho'kma.  |
| 4.19 | $Sb^{5+}$ | Gidroliz<br>( $H_2O$ )            | $Sb^{5+}$ - ionlarining analitik reaksiyasi.<br>$H [SbCl_6] + 2 H_2O = \downarrow SbO_2Cl + 5HCl$<br>$H^+ + [SbCl_6]^- + 2 H_2O = \downarrow SbO_2Cl + 5H^+ + 5Cl^-$   | Oq cho'kma.  |
| 4.20 | $Sb^{5+}$ | $NaOH,$<br>( $KOH$ )              | $H [SbCl_6] + 6NaOH = \downarrow HSbO_3 + 6NaCl + 3H_2O$<br>$H^+ + [SbCl_6]^- + 6OH^- = \downarrow HSbO_3 + 6Cl^- + 3H_2O$   | Oq cho'kma.  |
| 4.21 | $Sb^{5+}$ | Qaytaruvchi<br>lar $Sn$ $Zn$ $Mg$ | $2H [SbCl_6] + 5Zn = \downarrow Sb + 5ZnCl_2 + 2HCl$<br>$2H^+ + 2[SbCl_6]^- + 5Zn = \downarrow 2Sb + 5Zn^{2+} + 10Cl^- + 2H^+ + 2Cl^-$   | Qora cho'kma.  |
| 4.22 | $Hg^{2+}$ | $NaOH,$<br>( $KOH$ )              | $Hg^{2+}$ - ionlarining analitik reaksiyasi..<br>$Hg (NO_3)_2 + 2NaOH = \downarrow Hg(OH)_2 + 2NaNO_3$<br>$Hg^{2+} + 2NO_3^- + 2Na^+ + 2OH^- = \downarrow Hg(OH)_2 + 2Na^+ + 2NO_3^-$<br>$Hg^{2+} + 2OH^- = \downarrow Hg(OH)_2$<br>$Hg(OH)_2 = \downarrow HgO + H_2O$ | Sariq cho'kma, kislotalarda eriydi. $Hg(OH)_2$ beqaror bo'lib, $HgO$ va $H_2O$ parchalanadi. |
| 4.23 | $Hg^{2+}$ | $NH_4OH$                          | $HgCl_2 + 2NH_4OH = \downarrow [NH_2Hg]Cl + NH_4Cl + 2H_2O$  | Oq cho'kma, kislotalarda eriydi.   |
| 4.24 | $Hg^{2+}$ | $KJ$                              | $Hg(NO_3)_2 + 2KJ = \downarrow HgJ_2 + 2KNO_3$<br>$Hg^{2+} + 2NO_3^- + 2K^+ + 2J^- = \downarrow HgJ_2 + 2K^+ + 2NO_3^-$<br>$Hg^{2+} + 2J^- = \downarrow HgJ_2$   | Sarg'ish – qizil cho'kma.  |
| 4.25 | $Hg^{2+}$ | $K_2CrO_4$                        | $Hg(NO_3)_2 + K_2CrO_4 = \downarrow Hg CrO_4 + KNO_3$<br>$Hg^{2+} + CrO_4^{2-} = \downarrow Hg CrO_4$  | Sariq cho'kma.   |

|      |           |      |   |                   |
|------|-----------|------|---|-------------------|
| 4.26 | $Hg^{2+}$ | $Cu$ | $Hg(NO_3)_2 + Cu = \downarrow Hg + Cu(NO_3)_2$ $Hg^{2+} + 2 NO_3^- + Cu = \downarrow Hg + Cu^{2+} + 2NO_3^-$ $Hg^{2+} + Cu = \downarrow Hg + Cu^{2+}$ | Toza Hg cho'kadi. |
|------|-----------|------|---|-------------------|

## To'rtinchi analitik guruh kationlari aralashmasining analizi

To'rtinchi analitik guruh kationlari aralashmasini bo'lib-bo'lib analiz qilish usuli asosida ochiladi.

7-sxema. Bo'lib-bo'lib har qaysi ionga xos reaksiya bilan analiz qilish sxemasi.



## Laboratoriya mashg'uloti

### Beshinchi analitik guruh kationlarini ochish reaksiyalari va aralashmasining analizini bajarish

Mashg'ulotning maqsadi:

V analitik guruh kationlarining analitik reaksiyalarini bajarishni o'rganish.

Analitik reaksiyalar-ionli reaksiyalarga doir masalalar yechish.

Mavzuning ahamiyati

Mashg'ulot natijasida orttirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar quyidagi mavzularni o'zlashtirish uchun kerak bo'ladi.

Maqsadni amalga oshirmoq uchun belgilangan vazifalar

Bilish kerak:

V analitik guruh kationlariga xarakterli reaksiyalarni bajarish va ularga guruh reagentining ta'sirini

Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. V analitik guruh kationlarining umumiy xarakteristikasi (D.I.Mendeleyev davriy jadvalida elementlarni tutgan o'rni, guruh reagentining

ta'siri, guruhning tarkibi, kationlardan hosil bo'lgan birikmalar: oksidlar, gidroksidlari va tuzlarning xossalari).

2.Kompleks birikmalar va ularning beqarorlik konstantalari. Kompleks birikmalardan analitik kimyoda foydalanish.

3. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari. Asosiy oksidlovchi va qaytaruvchilar.Normal oksidlanish-qaytarilish potensiali. Nernst tenglamasi.Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalaridan analitik kimyoda foydalanish.

Reaktivlar:

0,05 mol/l kumush nitrat, mishyak(III)sulfid, surma (III) va (V) xlorid, o'yuvchi ishqorlar - NaOH va KOH, natriy yoki kaliy karbonat, xlorid kislota, vodorod sulfid, sulfat kislota va eruvchan sulfatlar, natriy gidrofosfat,ammoniy gidroksid, 30% ammoniy yoki natriy asetat eritmasi.

O'quv jadvallari

1. Vodorod sulfidli usul bo'yicha kationlar tasnifi
2. V analitik guruh kationlarini xarakterli reaksiyalari
3. D.I.Mendeleyevning davriy jadvali

### **Beshinchi analitik guruh kationlari umumiyl tavsifi**


Beshinchi analitik guruh kationlari  $Pb^{2+}$ ,  $[Hg_2]^{2+}$ ,  $Ag^+$  kiradi. Bu guruh kationlarining guruh reagenti 6 n HCl bo'lib, ular qiyin eruvchan xloridlarni hosil qiladi. Beshinchi guruh kationlari D.I.Mendeleyevning elementlar davriy sistemasida to'rtinchchi guruh kationlari joylashgan davr va guruhlarda joylashgan.

Bu kationlarning gidroksidlari qiyin eruvchan va kuchsiz elektrolitlardir. Qo'rg'oshin gidroksid amfoterlik xossalarga ega, kumush va simob (I) gidroksidlari nihoyatda beqaror birikmalar bo'lib, hosil bo'lish vaqtida tegishli oksid va suvgan parchalanadi. Qo'rg'oshin va simobning barcha eruvchan birikmalari zaharli.


### **Guruh reagentining ta'siri**

Beshinchi guruh kationlari  $Pb^{2+}$ ,  $[Hg_2]^{2+}$ ,  $Ag^+$  kiradi. Bu guruh kationlarining xloridlari suvda va suyultirilgan kislotalarda erimaydi.

Xloridlarning bunday xossalardan barcha kationlarning umumiylashmasini analiz qilishda V guruh kationlarini ajratishdan foydalaniadi. Suyultirilgan xlorid kislota (hamda xloridning eritmalar)  $Pb^{2+}, [Hg_2]^{2+}, Ag^+$  ionlarini  $AgCl$ ,  $Hg_2Cl_2$  va  $PbCl_2$  oq cho'kmalar holida cho'ktiradi, masalan:



$AgCl$  cho'kmasi yorug'lik nuri ta'sirida parchalanadi. Kuchli kislotaning tuzi bo'lgani uchun suyultirilgan kislotalar  $HNO_3$ ,  $H_2SO_4$  da erimaydi. Ammo u  $NH_4OH$  da oson eriydi. Bunda kumushning ammiakli kompleks birikmasi hosil bo'ladi. Agar olingan ammiakli kompleks birikma eritmasiga  $HNO_3$  kislota ta'sir ettirilsa vodorod ionlari  $NH_3$  molekulalari bilan bog'lanib, yanada barqaror  $NH_4^+$  kompleksini hosil qiladi va muvozanat o'ng tomonga siljiydi.




Buning natijasida kumushning ammiakli kompleksi parchalanadi va eritmada  $Ag^+$  ionlar to'planib qoladi. Ammo eritmada  $[Ag(NH_3)_2]^+$  ning birinchi bosqichda hosil bo'lgan  $Cl^-$  ionlar borligidan  $AgCl$  ning eruvchanlik ko'paytmasi ortib ketadi va tuz cho'kmaga tushadi. Bu reaksiyaning umumiylashmasi quyidagicha yoziladi.



$NH_4OH$  ning ta'sirida analiz davomida  $AgCl$  ni  $Hg_2Cl_2$  dan ajratish uchun, olingan  $[Ag(NH_3)_2]^+$  eritmasiga  $HNO_3$  ning ta'siridan esa  $Ag^+$  ionlarni topish uchun ishlataladi.  $Ag^+$  ni topish uchun  $Ag^+$  kationining  $J^-$  ion juda kam eriydigan  $AgJ$  cho'kmani hosil qilishdan ham foydalansa bo'ladi.  $AgJ$  ning eruvchanlik ko'paytmasi juda kichik ( $EK_{AgJ} = 8,3 \cdot 10^{-16}$ ). Demak bu cho'kmaning hosil bo'lishi


uchun  $Ag^+$  ning  $[Ag(NH_3)_2]^+$  ( $K_{\delta ekap}=5,8 \cdot 10^{-8}$ ) Demak bu cho'kmaning hosil bo'lishi uchun



$Hg_2Cl_2$  oq tusli cho'kmadir. Ortiqcha HCl da kompleks hosil qilib bir oz eriydi. U  $AgCl$  dan farq qilib  $NH_4OH$  ta`sirida erimaydi, balki qorayadi. Bunda avval bir valentli simobning kompleks birikmasi hosil bo'ladi:



$[NH_2Hg_2]Cl$  birikma o'z tarkibi jihatidan ikkita vodorod atomi o'rnini ikkita bir valentli simob atomi olgan  $NH_4Cl$  ga to'g'ri keladi. U beqaror bo'lib, hosil bo'lishi bilan parchalanib ketadi.



$PbCl_2$  cho'kma oq tusli bo'lib ortiqcha miqdordagi HCl va ishqoriy metall xloridlarida eriydi. U shuningdek issiq suvda ham yaxshi eriydi. Uning shu xususiyatidan foydalaniib  $PbCl_2$  ni  $AgCl$  va  $Hg_2Cl_2$  dan ajratiladi.

Ushbu guruh kationlari uchun xususiy reaksiyalari 12-jadvalda berilgan.

Beshinchi analitik gruppaga kationlari uchun xos xususiy reaksiyalar

12-jadval


|     | Ion       | Reagent      | Reaksiyaning molekulyar va ionli tenglamasi.   | Ilova   |
|-----|-----------|--------------|--|---|
| 5.1 | $Ag^+$    | HCl          | $Ag^+ - ionlarning analitik reaksiyalari.$<br>$AgNO_3 + HCl \rightarrow AgCl + HNO_3$<br>$Ag^+ + NO_3^- + H^+ + Cl^- \rightarrow AgCl + H^+ + NO_3^-$<br>$Ag^+ + Cl^- \rightarrow AgCl$  | Oq cho'kma, ortiqcha ammiakda eriydi.                           |
| 5.2 | $Ag^+$    | KJ           | $AgNO_3 + KJ \rightarrow AgJ + KNO_3$<br>$Ag^+ + NO_3^- + K^+ + J^- \rightarrow AgJ + K^+ + NO_3^-$<br>$Ag^+ + J^- \rightarrow AgJ$<br>$AgJ + Na_2S_2O_3 \rightarrow Na[AgS_2O_3] + NaJ$<br>$AgJ + 2Na^+ + S_2O_3^{2-} \rightarrow Na^+ + [AgS_2O_3]^- + Na^+ + J^-$ | Sariq cho'kma<br>$Na_2S_2O_3$ da eriydi.                        |
| 5.3 | $Ag^+$    | $K_2CrO_4$   | $2 AgNO_3 + K_2CrO_4 \rightarrow Ag_2CrO_4 + 2KNO_3$<br>$2 Ag^+ + 2NO_3^- + 2K^+ + CrO_4^{2-} \rightarrow Ag_2CrO_4 + 2K^+ + 2NO_3^-$<br>$2 Ag^+ + CrO_4^{2-} \rightarrow Ag_2CrO_4$   | pH=7 g'isht, rangli cho'kma amiakda va nitrat kislotada eriydi. |
| 5.4 | $Ag^+$    | $Na_2HPO_4$  | $3 AgNO_3 + Na_2HPO_4 \rightarrow Ag_3PO_4 + 2NaNO_3 + HNO_3$<br>$3 Ag^+ + HPO_4^{2-} \rightarrow Ag_3PO_4 + H^+$  | Sariq cho'kma, amiakda va nitrat kislotada eriydi.              |
| 5.5 | $Pb^{2+}$ | HCl          | $Pb^{2+} - ionlarning analitik reaksiyalari.$<br>$Pb(NO_3)_2 + 2HCl \rightarrow PbCl_2 + 2HNO_3$<br>$Pb^{2+} + 2NO_3^- + 2H^+ + 2Cl^- \rightarrow PbCl_2 + 2H^+ + 2NO_3^-$<br>$Pb^{2+} + 2Cl^- \rightarrow PbCl_2$   | Oq cho'kma, issiq suvda eriydi.Oq cho'kma                       |
| 5.6 | $Pb^{2+}$ | $H_2SO_4$    | $Pb(NO_3)_2 + H_2SO_4 \rightarrow PbSO_4 + 2HNO_3$<br>$Pb^{2+} + 2NO_3^- + 2H^+ + SO_4^{2-} \rightarrow PbSO_4 + 2H^+ + 2NO_3^-$<br>$Pb^{2+} + SO_4^{2-} \rightarrow PbSO_4$   |   |
| 5.7 | $Pb^{2+}$ | $K_2Cr_2O_7$ | $2Pb(NO_3)_2 + K_2Cr_2O_7 + H_2O \rightarrow 2PbCrO_4 + 2KNO_3 + 2HNO_3$<br>$2Pb^{2+} + Cr_2O_7^{2-} + H_2O \rightarrow 2PbCrO_4 + 2H^+$   | Sariq cho'kma, ishqorlarda eriydi.                              |

|      |               |               |  |                 |
|------|---------------|---------------|--|-----------------|
| 5.8  | $[Hg_2]^{2+}$ | HCl           | $[Hg_2]^{2+}$ - ionlarning analitik reaksiyalari.<br>$Hg_2(NO_3)_2 + 2HCl \rightarrow Hg_2Cl_2 + 2HNO_3$<br>$[Hg_2]^{2+} + 2NO_3^- + 2H^+ + 2Cl^- \rightarrow Hg_2Cl_2 + 2H^+ + 2NO_3^-$<br>$[Hg_2]^{2+} + 2Cl^- \rightarrow Hg_2Cl_2$ | Oq cho'kma.     |
| 5.9  | $[Hg_2]^{2+}$ | $K_2CrO_4$    | $Hg_2(NO_3)_2 + K_2CrO_4 \rightarrow Hg_2CrO_4 + 2KNO_3$<br>$[Hg_2]^{2+} + 2NO_3^- + 2K^+ + CrO_4^{2-} \rightarrow Hg_2CrO_4 + 2K^+ + 2NO_3^-$<br>$[Hg_2]^{2+} + CrO_4^{2-} \rightarrow Hg_2CrO_4$                                     | Qizil cho'kma.  |
| 5.10 | $[Hg_2]^{2+}$ | KJ            | $Hg_2(NO_3)_2 + 2KJ \rightarrow Hg_2J_2 + 2KNO_3$<br>$[Hg_2]^{2+} + 2NO_3^- + 2K^+ + 2J^- \rightarrow Hg_2J_2 + 2K^+ + 2NO_3^-$<br>$[Hg_2]^{2+} + 2J^- \rightarrow Hg_2J_2$  | Yashil cho'kma. |
| 5.11 | $[Hg_2]^{2+}$ | NaOH<br>(KOH) | $Hg_2(NO_3)_2 + 2NaOH \rightarrow Hg_2O + 2NaNO_3 + H_2O$<br>$[Hg_2]^{2+} + 2OH^- \rightarrow Hg_2O + H_2O$  | Qora cho'kma.   |
| 5.12 | $[Hg_2]^{2+}$ | Cu            | $Hg_2(NO_3)_2 + Cu \rightarrow 2Hg + Cu(NO_3)_2$<br>$[Hg_2]^{2+} + 2NO_3^- + Cu \rightarrow 2Hg + Cu^{2+} + 2NO_3^-$<br>$[Hg_2]^{2+} + Cu \rightarrow 2Hg + Cu^{2+}$   | Kul rang dog'.  |

## Beshinchi analitik guruh kationlari aralashmasining analizi

Beshinchi analitik guruh kationlari guruh reagenti bo'lgan 6n li HCl yordamida xlоридлар holida cho'ktiriladi. Olingan cho'kma quyidagi keltirilgan sxema bo'yicha analiz qilinadi.

8-sxema. Beshinchi analitik guruh kationlari aralashmasining analiz sxemasi



## NAZORAT SAVOLLAR

- IV, V analitik guruh kationlariga umumiyl tavsif bering.
- IV analitik guruh kationlariga guruh reagentining ta'siri.
- $Hg(NO_3)_2$  ni va  $Hg_2(NO_3)_2$ larning metallik simobga qaytarilish reaksiya tenglamalarini yozing.
- $Na_2HPO_4$  ning  $AgNO_3$ ga ta'siri reaksiya tenglamasini yozing.
- $BiCl_3$  suvda eriganda qanday hodisa sodir bo'ladi? Reaksiya tenglamalarini yozing.
- $AsO_4^{3-}$  kislotali muhitda alyuminiy ta'sirida  $AsH_3$  ga qaytarilgan reaksiya tenglamasini yozing.

## VAZIYATLI MASALALAR

1. Nima sababdan AgJ cho'kmasi KCNda eriydi?
2. Kompleks tuz bilan qo'shaloq tuzning farqi nima?
3. Nima sababdan V gruppaga kationlari faqat kislotali muhitdagina vodorod sulfid ta'sirida cho'kmaga tushishi mumkin?
4. Qalay ishtirokida qanday usul bilan surmani aniqlash mumkin?

### **Laboratoriya mashg'uloti**

**Anionlarni ochish reaksiyalari va aralashmasini analizi .Anionlarni ochish reaksiyalarini bajarish va aralashmasi analizini bajarish.**

#### **I, II va III guruh anionlarining umumiyligi tavsifi.**

Mashg'ulotning maqsadi:

I, II va III guruh anionlarining analitik reaksiyalarini bajarishni o'rGANISH.

Ion kuchiga doir masalalarni yechish.

Mavzuning ahamiyati:

Mashg'ulot natijasida orttirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar quyidagi mavzularni o'zlashtirish uchun kerak bo'ladi.

Maqsadni amalga oshirmoq uchun belgilangan vazifalar

Bilish kerak:

I, II va III analitik guruh anionlariga xarakterli reaksiyalarini bajarish va ularga guruh reagentining ta'siri

Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. I, II va III analitik guruh anionlarining umumiyligi xarakteristikasi (D.I.Mendeleyev davriy jadvalida elementlarni tutgan o'rni, guruh reagentining ta'siri, guruhning tarkibi, anionlardan hosil bo'lgan birikmalar: oksidlar, gidroksidlar va tuzlarning xossalari).

2. Eritmalarning konsentratsiyasini ifodalash, prosent, molyar, ekvivalent-molyar konsentratsiya (normallik) va ular o'rtasidagi bog'lanishlar.

3. Kuchli elektrolitlar nazariyasi: faollik, faollik koeffisiyenti, eritmani ion kuchi va pH.

Reaktivlar:

1. Bariy, stronsiy va kalsiy nitrat tuzlari;

Ammoniy oksalat, natriy sulfat, kaliy dixromat, xromat, ammoniy karbonat, sulfat kislota;

2. Quruq tuzlar: bariy, stronsiy, kalsiy xlорidi yoki nitratlari

O‘quv jadvallari

1. Vodorod sulfidli usul bo‘yicha anionlar tasnifi

2. I, II va III analitik guruh anionlarini xarakterli reaksiyalari

3. D.I.Mendeleyevning davriy jadvali

Manfiy zaryadlangan ionlarga anionlar deb aytildi. Masalan  $Cl^-$ ,  $SO_4^{2-}$ ,  $NO_3^-$  va hokazo. Kationlar asosan bitta atomdan tashkil topgan bo’lsa, anionlar murakkab tarkibli ionlardir, ya`ni ular bir yoki bir nechta atomlardan tarkib torgan. Masalan:  $CH_3COO^-$ ,  $SCN^-$ ,  $SO_4^{2-}$ ,  $B_4O_7^{2-}$ ,  $Cr_2O_7^{2-}$ ,  $CO_3^{2-}$ ,  $PO_4^{3-}$ . Anionlar kationlardan farq qilib ko’pincha bir-birining topilishiga xalal bermaydi. Shuning uchun anionlarni eritmani bo’lib-bo’lib tekshirish usuli bilan ya`ni tekshirilayotgan eritmaning ayrim ulushlaridan topiladi. Anionlar aralashmasini analiz qilishda guruh reagentlari odatda guruhlarni bir-biridan ajratish uchun emas, balki guruhlarning bor-yo’qligini aniqlab olish uchun qo’llaniladi. Agar biror guruh anionlarining yo’qligi aniqlansa, shu guruhga kiradigan ayrim anionlarni topish uchun reaksiya qilinmaydi. Shunday qilib, anionlar guruhini topish reaksiyalari umumiyliz analizini ancha osonlashtiradi. Yuqorida kationlarni o’rganishda anionlarning ko’pchilik reaksiyalari bilan tanishilgan edi. Masalan:  $Ba^{2+}$ ,  $Pb^{2+}$ , Anionlar kationlardan farq qilib ko’pincha bir-birining topilishiga kationlarini  $SO_4^{2-}$  va  $CrO_4^{2-}$  anionlari yordami bilan topilgan edi. Aksincha bu anionlarni bariy va qo’rg’oshin tuzlari yordamida topish mumkin. Shunga o’xshash  $Ag^+$  ionining reagenti  $Cl^-$  ioni bo’lgani holda  $Cl^-$  ionini  $Ag^+$  yordamida topish mumkin.

*Anionlar klassifikasiyasi.* Anionlar klassifikatsiyasi asosan anionlarning bariy va kumushli tuzlarining eruvchanliklarining bir-biridan farq qilishiga asoslangan. Anionlarning ko'pchiligi bo'lib-bo'lib analiz qilish usuli asosida ochiladi. Eng ko'p tarqalgan klassifikasiyasiga ko'ra anionlar uch guruhga bo'linadi. Birinchi analitik guruh anionlar  $SO_4^{2-}$ ,  $SO_3^{2-}$ ,  $S_2O_3^{2-}$ ,  $CO_3^{2-}$ ,  $PO_4^{3-}$ ,  $A_sO_4^{3-}$ ,  $BO_2^-$ ,  $CrO_4^{2-}$ ,  $Cr_2O_7^{2-}$ ,  $F^-$ ,  $SiO_3^{2-}$ ,  $C_2O_4^{2-}$ . Bu anionlarning bariyli tuzlari suvda qiyin eriydi. Guruh reaktiviy-neytral yoki kuchsiz ishqoriy muhitda  $BaCl_2$ .

Ikkinci analitik guruh anionlari:  $Cl^-$ ,  $Br^-$ ,  $J^-$ ,  $S^{2-}$ ,  $SCN^-$ ,  $[Fe(CN)_6]^{4-}$ ,  $[Fe(CN)_6]^{3-}$ ,  $CN^-$ ,  $BrO_3^-$ ,  $JO_3^-$ ,  $ClO_3^-$ . Bu anionlarning kumushli tuzlari suvda va suyultirilgan nitrat kislotada qiyin eriydi. Guruh reagenti 2n li  $HNO_3$  ishtirokida  $AgNO_3$ .

Uchinchi analitik guruh anionlari:  $NO_3^-$ ,  $NO_2^-$ ,  $CH_3COO^-$ ,  $MnO_4^-$  va boshqalar. Bu anionlarning bariyli va kumushli tuzlari suvda juda yaxshi eriydi. Guruh reagentiga ega emas.

Anionlarga tegishli bo'lган xususiy reaksiyalar 13, 14, 15 -jadvallarda berilgan.

### **Birinchi analitik guruh anionlariga xos bo'lgan xususiy reaksiyalar.**

**13 – jadval**

|     | <b>Ion</b>  | <b>Reagent</b> | <b>Reaksiyaning molekulyar va ionli tenglamasi.</b>  | <b>Ilova</b>                       |
|-----|-------------|----------------|--|------------------------------------|
| 6.1 | $SO_4^{2-}$ | $Pb(NO_3)_2$   | $SO_4^{2-}$ - ionlarning analitik reaksiyalari<br>$Na_2SO_4 + Pb(NO_3)_2 = \downarrow PbSO_4 + 2NaNO_3$<br>$2Na^+ + SO_4^{2-} + Rb^{2+} + 2NO_3^- = \downarrow PbSO_4$<br>$+ 2Na^+ + 2NO_3^-$<br>$SO_4^{2-} + Pb^{2+} = \downarrow PbSO_4$ | Oq cho'kma, ishqorlarda eriydi.    |
| 6.2 | $SO_4^{2-}$ | $SrCl_2$       | $Na_2SO_4 + SrCl_2 = \downarrow SrSO_4 + 2NaCl$<br>$2Na^+ + SO_4^{2-} + Sr^{2+} + 2Cl^- = \downarrow SrSO_4 +$<br>$2Na^+ + 2Cl^-$<br>$SO_4^{2-} + Sr^{2+} = \downarrow SrSO_4$   | Oq cho'kma (loyqa)                 |
| 6.3 | $SO_4^{2-}$ | $BaCl_2$       | $Na_2SO_4 + BaCl_2 = \downarrow BaSO_4 + 2NaCl$<br>$2Na^+ + SO_4^{2-} + Ba^{2+} + 2Cl^- = \downarrow BaSO_4$<br>$+ 2Na^+ + 2Cl^-$<br>$SO_4^{2-} + Ba^{2+} = \downarrow BaSO_4$   | Oq cho'kma, kislotalarda erimaydi. |

|      |               |                   |   |   |
|------|---------------|-------------------|---|---|
| 6.4  | $SO_3^{2-}$   | $HCl$             | <p><math>SO_3^{2-}</math> - ionlarning analitik reaksiyalari</p> $Na_2SO_3 + 2HCl = 2NaCl + SO_2 \uparrow + H_2O$ $2Na^+ + SO_3^{2-} + 2H^+ + 2Cl^- = 2Na^+ + 2Cl^-$ $+ SO_2 \uparrow + H_2O$ $SO_3^{2-} + 2H^+ = SO_2 \uparrow + H_2O$ | $SO_2 \uparrow$ ajraladi.   |
| 6.5  | $SO_3^{2-}$   | $J_2 + H_2O$      | $Na_2SO_3 + J_2 + H_2O = Na_2SO_4 + 2HJ$ $2Na^+ + SO_3^{2-} + J_2 + H_2O = 2Na^+ + SO_4^{2-} + 2H^+ + 2J^-$ $SO_3^{2-} + J_2 + H_2O = SO_4^{2-} + 2H^+ + 2J^-$  | Yodli suv eritmasi rangsizlanadi.                                   |
| 6.6  | $SO_3^{2-}$   | $BaCl_2$          | $Na_2SO_3 + BaCl_2 = \downarrow BaSO_3 + 2NaCl$ $2Na^+ + SO_3^{2-} + Ba^{2+} + 2Cl^- = \downarrow BaSO_3 + 2Na^+ + 2Cl^-$ $SO_3^{2-} + Ba^{2+} = \downarrow BaSO_3$   | Oq cho'kma, kislotalarda eriydi.                                    |
| 6.7  | $S_2O_3^{2-}$ | $HCl$             | <p><math>S_2O_3^{2-}</math> - ionlarning analitik reaksiyalari.</p> $Na_2S_2O_3 + 2HCl = H_2S_2O_3 + 2NaCl$ $H_2S_2O_3 = \downarrow S + SO_2 \uparrow + H_2O$   | $SO_2$ ajraladi.<br>S cho'kmaga tushadi.                            |
| 6.8  | $CO_3^{2-}$   | $HCl$             | <p><math>CO_3^{2-}</math> - ionlarning analitik reaksiyalari</p> $Na_2CO_3 + 2HCl = 2NaCl + CO_2 \uparrow + H_2O$ $2Na^+ + CO_3^{2-} + 2H^+ + 2Cl^- + CO_2 \uparrow + H_2O$ $CO_3^{2-} + 2H^+ = CO_2 + H_2O$                            | $CO_2$ – ajraladi.  |
| 6.9  | $CO_3^{2-}$   | $BaCl_2$          | $Na_2CO_3 + BaCl_2 = \downarrow BaCO_3 + 2NaCl$ $2Na^+ + CO_3^{2-} + Ba^{2+} + 2Cl^- = \downarrow BaCO_3 + 2Na^+ + 2Cl^-$ $CO_3^{2-} + Ba^{2+} = \downarrow BaCO_3$   | Oq cho'kma, sirkal kislotada eriydi.                                |
| 6.10 | $CO_3^{2-}$   | $AgNO_3$          | $Na_2CO_3 + 2AgNO_3 = \downarrow Ag_2CO_3 + 2NaNO_3$ $2Na^+ + CO_3^{2-} + 2Ag^+ + 2NO_3^- = \downarrow Ag_2CO_3$ $CO_3^{2-} + 2Ag^+ = \downarrow Ag_2CO_3$  | Oq cho'kma, kislotalarda eriydi. HClda erib, $AgCl$ -hosil bo'ladi. |
| 6.11 | $PO_4^{3-}$   | $MgCl_2 + NH_4Cl$ | <p><math>PO_4^{3-}</math> - ionlarning analitik reaksiyalari</p> $Na_2HPO_4 + MgCl_2 + NH_4Cl = \downarrow MgNH_4PO_4 + 2NaCl + 2HCl$ $HPO_4^{2-} + Mg^{2+} + NH_4^+ = \downarrow MgNH_4PO_4 + H^+$                                     | Oq kristall, cho'kma.   |
| 6.12 | $PO_4^{3-}$   | $BaCl_2 + NH_4OH$ | $2Na_2HPO_4 + 3BaCl_2 + 2NH_4OH = \downarrow Ba_3(PO_4)_2 + 4NaCl + 2NH_4Cl + 2H_2O$ $2HPO_4^{2-} + 3Ba^{2+} + 2OH^- = \downarrow Ba_3(PO_4)_2 + 2H_2O$   | Oq cho'kma, $H_2SO_4$ dan boshqa kislotalarda eriydi.               |
| 6.13 | $C_2O_4^{2-}$ | $CaCl_2$          | <p><math>C_2O_4^{2-}</math> - ionlarning analitik reaksiyalari</p> $Na_2C_2O_4 + CaCl_2 = \downarrow CaC_2O_4 + 2NaCl$ $2Na^+ + C_2O_4^{2-} + Ca^{2+} + 2Cl^- = \downarrow CaC_2O_4$  | Oq cho'kma, mineral kislotalarda eriydi, lekin                      |

|      |               |                       |  |  |
|------|---------------|-----------------------|--|--|
|      |               |                       | $+ 2Na^+ + 2Cl^-$ $C_2O_4^{2-} + Ca^{2+} = \downarrow CaC_2O_4$  | sirka kislotada erimaydi.  |
| 6.14 | $C_2O_4^{2-}$ | $BaCl_2$              | $Na_2C_2O_4 + BaCl_2 = \downarrow BaC_2O_4 + 2NaCl$ $2Na^+ + C_2O_4^{2-} + Ba^{2+} + 2Cl^- =$ $\downarrow BaC_2O_4 + 2Na^+ + 2Cl^-$ $C_2O_4^{2-} + Ba^{2+} = \downarrow BaC_2O_4$              | Oq cho'ma, mineral kislotalarda va qaynatganda sirka kislotada eriydi. |
| 6.15 | $C_2O_4^{2-}$ | $AgNO_3$              | $Na_2C_2O_4 + 2AgNO_3 = \downarrow Ag_2C_2O_4 +$ $2NaNO_3$ $2Na^+ + C_2O_4^{2-} + 2Ag^+ + 2NO_3^- =$ $= \downarrow Ag_2C_2O_4 + 2Na^+ + 2NO_3^-$ $C_2O_4^{2-} + 2Ag^+ = \downarrow Ag_2C_2O_4$ | Oq iviq cho'kma $HNO_3$ va $NH_4NO_3$ da eriydi.                       |
| 6.16 | $C_2O_4^{2-}$ | $KMnO_4$<br>$H_2SO_4$ | $5Na_2C_2O_4 + 2KMnO_4 + 8H_2SO_4 =$ $2MnSO_4 + 2K_2SO_4 + 5Na_2SO_4 + 10CO_2 + 8H_2O$ $5C_2O_4^{2-} + 2MnO_4^- + 16H^+ = 2Mn^{2+} +$ $10CO_2 + 8H_2O$   | Eritma rangsizlanadi.  |

### Ikkinchi analitik guruh anionlariga xos bo'lgan xususiy reaksiyalar

#### 14 – jadval

| Ion   | Reagent   | Reaksiyaning molekulyar va ionli tenglamasi.   | Ilova  |
|---|-----------|--|--|
| <b>Cl<sup>-</sup> - ionlarning analitik reaksiyalari.</b> |           |  |  |
| $Cl^-$  | $AgNO_3$  | $NaCl + AgNO_3 = \downarrow AgCl + NaNO_3$ $Na^+ + Cl^- + Ag^+ + NO_3^- = \downarrow AgCl + Na^+ + NO_3^-$ $Cl^- + Ag^+ = \downarrow AgCl$ | Oq suzmasimon, cho'kma, $NH_4OH$ , $Na_2S_2O_3$ larda eriydi.                    |
| $Cl^-$  | $H_2SO_4$ | $NaCl + H_2SO_4 = NaHSO_4 + HCl \uparrow$ $Cl^- + H^+ \rightarrow HCl \uparrow$  | Quruq holatdagi xloridlardan $HCl$ , gaz holida ajraladi, hidli, qo'llangan ko'k |

|      |                   |                               |  |  |
|------|-------------------|-------------------------------|--|--|
|      |                   |                               |  | lakmusni qizarishi.  |
| 7.3. | $Cl^-$            | $KMnO_4$<br>$H_2SO_4$         | $10HCl + KMnO_4 + 3H_2SO_4 = 2MnSO_4 + K_2SO_4 + 8H_2O + 5Cl_2 \uparrow$ $10HCl + KMnO_4 + 6H^+ = 2Mn^{2+} + 8H_2O + 5Cl_2 \uparrow$   | Eritma rangsizlanadi.  |
|      |                   |                               | Br <sup>-</sup> - ionlarning analitik reaksiyalari.  |  |
| 7.4. | $Br^-$            | $AgNO_3$<br>$Zn$              | $NaBr + AgNO_3 = \downarrow AgBr + NaNO_3$ $Na^+ + Br^- + Ag^+ + NO_3^- = \downarrow AgBr + Na^+ + NO_3^-$ $Br^- + Ag^+ = \downarrow AgBr$ $2 AgBr + Zn = ZnBr_2 + \downarrow 2Ag$ | Oq cho'kma, AgBr cho'kmaga Zn bo'lakchasi qo'shganda yaltiroq Ag ni qaytaradi. |
| 7.5. | $Br^-$            | $H_2SO_4$<br>konsentrln angan | $KBr + H_2SO_4 = KHSO_4 + HBr \uparrow$ $K^+ + Br^- + 2H^+ + SO_4^{2-} = KHSO_4 + HBr \uparrow$  | Quruq bromidlarga $H_2SO_4$ ta`sir etirilganda HBr gazi ajralib chiqadi.       |
|      |                   |                               | J <sup>-</sup> - ionlarning analitik reaksiyalari.   |  |
| 7.6. | $J^-$             | $AgNO_3$                      | $KJ + AgNO_3 = AgJ + KNO_3$ $K^+ + J^- + Ag^+ + NO_3^- = \downarrow AgJ + K^+ + NO_3^-$ $J^- + Ag^+ = \downarrow AgJ$  | Sariq cho'kma, $HNO_3$ va ammiakda eriydi.                                     |
| 7.7. | $J^-$             | $Rb$<br>$(NO_3)_2$            | $2KJ + Rb(NO_3)_2 = \downarrow RbJ_2 + 2KNO_3$ $2K^+ + 2J^- + Rb^{2+} + 2NO_3^- = \downarrow RbJ_2 + 2K^+ + 2NO_3^-$ $2J^- + Rb^{2+} = \downarrow RbJ_2$                           | Tillo rang kristal cho'kma.  |
|      |                   |                               | SCN <sup>-</sup> - ionlarning analitik reaksiyalari.   |  |
| 7.8. | $[Fe(CN)_6]^{4-}$ | $CuCl_2$                      | $2CuCl_2 + K_4[Fe(CN)_6] = \downarrow Cu_2[Fe(CN)_6] + 4KCl$ $2Cu^{2+} + [Fe(CN)_6]^{4-} = \downarrow Cu_2[Fe(CN)_6]$  | Qizil-qo'ng'ir cho'kma.  |
|      |                   |                               | $[Fe(CN)_6]^{3-}$ ionlarning analitik reaksiyalari.  |  |
| 7.9  | $[Fe(CN)_6]^{3-}$ | $AgNO_3$                      | $3AgNO_3 + K_3[Fe(CN)_6] = \downarrow Ag_3[Fe(CN)_6] + 3KNO_3$ $3Ag^+ + [Fe(CN)_6]^{3-} = \downarrow Ag_3[Fe(CN)_6]$   | To'q sariq cho'kma, $NH_3$ da eriydi.  |
| 7.10 | $[Fe(CN)_6]^{3-}$ | $ZnCl_2$                      | 2  | Sariq  |

|                   |          |  |   |
|-------------------|----------|--|---|
|                   |          | $K_3[Fe(CN)_6] + 3ZnCl_2 = \downarrow Zn_3[Fe(CN)_6]_2 + 6KCl$<br>$2[Fe(CN)_6]^{3-} + 3Zn^{2+} = \downarrow Zn_3[Fe(CN)_6]_2$        | cho'kma.                                    |
| $[Fe(CN)_6]^{3-}$ | $FeCl_2$ | $2$<br>$K_3[Fe(CN)_6] + 3FeCl_2 = \downarrow Fe_3[Fe(CN)_6]_2 + 6KCl$<br>$2[Fe(CN)_6]^{3-} + 3Fe^{2+} = \downarrow Fe_3[Fe(CN)_6]_2$ | pH ≤ 7, ko'k tusli trunbul ko'ki cho'kmasi. |

*Uchinchi analitik guruh anionlari uchun xos bo'lgan xususiy reaksiyalar*

*15-jadval*

|    | Ion         | Reagent                                | Reaksiyaning molekulyar va ionli tenglamasi.   | Ilova   |
|----|-------------|--|--|---|
| 1. | $CH_3COO^-$ | $H_2SO_4$                              | $CH_3COO^-$ ionlarning analitik reaksiyalari.<br>$2CH_3COONa + H_2SO_4 \rightarrow Na_2SO_4 + 2CH_3COOH \uparrow$<br>$CH_3COO^- + 2H^+ \rightarrow 2CH_3COOH \uparrow$ | Eritma qizdirilganda $CH_3COOH$ ajralib chiqadi, uni hididan bilish mumkin                    |
| 2. | $CH_3COO^-$ | $FeCl_3$                               | $CH_3COONa + FeCl_3 = Fe(CH_3COO)_3 + 3NaCl$<br>$Fe(CH_3COO)_3 + 2H_2O = \downarrow Fe(OH)_2(CH_3COO) + 2CH_3COOH$   | Qizil-qo'ng'ir rang hosil bo'lib isitilsa asosli tuz cho'kmaga tushadi.                       |
| 3. | $NO_3^-$    | $Al$ yoki<br>$Zn$<br>$NaOH$<br>$(KOH)$ | $NO_3^-$ ionlarning analitik reaksiyalari.<br>$NaNO_3 + NaOH + Al = 8NaAlO_2 + 3NH_3 \uparrow + 2H_2O$<br>$3NO_3^- + 5OH^- + 8Al = 8AlO_2^- + 3NH_3 + 2H_2O$           | $NH_3$ ajralib chiqadi, hididan yoki ho'llangan lakmus qog'ozini ko'karishidan bilish mumkin. |
| 4. | $NO_3^-$    | $Cu + H_2SO_4$                         | $2HNO_3 + 3Cu + 3H_2SO_4 = 2NO \uparrow + 3CuSO_4 + 4H_2O$<br>$2NO + O_2 = 2NO_2$<br>$2NO_3^- + 3Cu + 6H^+ = 2NO \uparrow + 3Cu^{2+} + 4H_2O$                          | Ajralib chiqqan $NO$ havoda oksidlanib qo'ng'ir rangli $NO_2$ ni hosil qiladi.                |
|    | $NO_2^-$    | $H_2SO_4$                              | $NO_2^-$ ionlarning analitik reaksiyalari.   | Qo'ng'ir  |

|     |  |  |   |                                |
|-----|--|--|---|--------------------------------|
| 8.5 |  |  | $2KNO_2 + H_2SO_4 = NO_2 \uparrow + NO \uparrow + K_2SO_4 + H_2O$ $2NO_2^- + 2H^+ = NO_2 \uparrow + NO \uparrow + H_2O$ | rangli $NO_2$ ajralib chiqadi. |
|-----|--|--|---|--------------------------------|

## NAZORAT SAVOLLAR

1. Anionlarning guruhlarga tAgsimlanishini tushuntiring.
2. I, II va III analitik guruh anionlariga qanday ionlar kiradi?
3. I, II va III analitik guruh anionlariga umumiy tavsif bering.
4. Keng qo'llaniladigan I, II va III analitik guruh anionlarini aytib bering.
5. Tiosulfat anionini xlorid kislota bilan aniqlash reaksiya tenglamalarini yozing. Reaksiyada qanday analitik effekt kuzatiladi?
6. Oksalat anioniga xos reaksiyalarni yozing va hosil bo'lgan cho'kmalarning xossalari ko'rsating.
7. Qaysi anionlar suyultirilgan HCl yoki suyultirilgan  $H_2SO_4$  ta'sirida gazlar ajratib chiqaradi?

## VAZIYATLI MASALALAR

1. Nima sababdan II gruppaga anionlari uchun  $AgNO_3$  nitrat kislota ishtirokida gruppaga reaktiv hisoblanadi?
2.  $PO_4^{3-}$ ,  $AsO_4^{3-}$  va  $AsO_3^{3-}$  anionlari bir eritmada mavjud bo'lsa, ularning bor-yo'qligini qaysi reaksiyalar yordamida aniqlash mumkin.
3.  $Cl^-$ ,  $Br^-$  va  $I^-$  ionlari bir eritmada mavjud; ularni bir-biridan ajratish va bor-yo'qligini aniqlash uchun qaysi reaksiyalardan foydalanish mumkin.

Laboratoriya mashg'uloti

Quruq tuzni (noma'lum tarkibli) analizini bajarish

Maqsad:

O'r ganilgan analitik reaksiyalar va cho'kmalar xossasi asosida, quruq tuz analizi chizmasini tuzish va tarkibini aniqlashda talabalar bilimini shakllantirish;

Bir ismli ion va begona elektrolitlar ishtirokida qiyin eriydigan tuzlarning eruvchanligini hisoblash

O‘rganilayotgan mavzuning ahamiyati

Quruq tuz analizi chizmasini tuzishga doir nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar quyidagi mavzularni o‘zlashtirish uchun zarur.

Maqsadga doir topshiriqlar:

1. Quruq tuz analizi chizmasini tuza bilish;
2. Quruq tuz analizini bajarish usullariga asoslanib, laboratoriya jurnalini mashhg‘ulotga tayyorlash.

3. Analitik reaksiya sezgirligi, ion kuchi, aktivlik hamda cho‘kmalarni eruvchanligi va eruvchanlik ko‘paytmasiga doir masalalarni yechish

Mustaqil tayyorlash uchun savollar:

1. Gomogen va geterogen (cho‘kma-eritma) muvozanatga massalar ta’siri qonuni qo‘llanilishi. Kimyoviy muvozanat, konsentratsion va termodinamik konstantasi, eruvchanlik ko‘paytmasi va ionlarning aktivlik ko‘paytmasi. Kam eriydigan elektrolitlarning eruvchanligi. Kasrli cho‘ktirish. Cho‘kmaning eruvchanligiga har xil omillarning ta’siri (bir xil ismli ionlar, begona elektrolitlar va h.k.). Tuz samarasi. Cho‘kmaning erishi va hosil bo‘lishi.

Kerakli asbob-uskuna va reaktivlar: (yuqoridagi tajriba mashhg‘ulotlaridagidek).

O‘quv jadvallari

1. I-V analitik guruh kationlari aralashmasining analiz yo‘li (chizmasi)
2. I-III analitik guruh anionlarining xususiy reaksiyalari

### **Quruq moddani analiz qilishga tayyorlash va dastlabki sinovlar**

Quruq moddani, ya`ni tuzlar aralashmasini sifat jihatdan analiz qilish tartibini ko`rib chiqamiz. Analiz uchun qattiq, holatdagi moddadan, odatda 0,1-0,3 g olinadi. Moddani analizga tayyorlash uni chini havonchada maydalashdan boshlanadi, chunki kukun holidagi modda oson eriydi. Agar analizga berilgan namuna mayda kristallar holida bo`lsa, uni maydalashga hojat qolmaydi, faqat uni shisha tayoqcha bilan yaxshilab aralashtirish lozim. Maydalangan namuna uch

qismga bo`linadi: bir qismi kationlarni aniqlash uchun, ikkinchi qismi anionlarni topish uchun ishlatilsa, uchinchi qismi qisman dastlabki sinovlarga ishlatiladi va ba`zi tajribalarni qayta bajarish uchun zaxiraga qoldiriladi.

Dastlabki sinovlar ba`zi bir ionlarni sistematik analizgacha topishga yordam beradi va ishni yengillashtiradi. Dastlabki sinovlarda alangani bo`yash reaksiyalari qilib ko`riladi. Bu sinovlarning natijalari sistematik analizda tasdiqlanishi kerak.

Berilgan namunaning analizi uning suvda erishini tekshirishdan boshlanadi. Buning uchun moddaning bir necha zarrachalari 10-12 tomchi distillangan suvda, avval sovuqda kerak bo`lsa isitib, eritib ko`riladi. Agar berilgan modda namunasi suvda erimasa yoki yomon erisa, unda shu moddaning oldin sovuqda, keyin isitilgan sirka kislotada, so`ng suyultirilgan va kontsentrlangan HCl da erish-erimasligi va nihoyat zar suvi (1 mol knts.  $\text{HNO}_3$  +3 mol kons HCl) da erishi sinab ko`riladi.

Ko`pchilik analiz qilinadigan moddalar distillangan suvda va suyultirilgan xlorid kislotada eriydi, shu sababli bu moddalarni kontsentrlangan kislotalarda yoki zar suvida eritishga hojat qolmaydi.

Moddaning eruvchanligi tekshiruvdan o`tkazilgan, namunaning birinchi qismi (0,03-0,1 g) konussimon probirkaga solinib, ustiga 1-3 ml. tanlangan erituvchi qo`shib, eritiladi.

Berilgan namunani xlorid kislotada eritiladigan bo`lsa, gazlar ( $\text{CO}_2$ ,  $\text{H}_2\text{S}$ ,  $\text{SO}_2$ ) ajralib chiqishiga e`tibor bering, chunki ularning chiqishi aralashma tarkibida bir qator anionlar ( $\text{CO}_3^{2-}$ ,  $\text{S}_2^-$ ,  $\text{SO}_3^{2-}$ ,  $\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$ ) borligini ko`rsatadi. SHuningdek, hosil qilingan eritmaning rangini kuzating. Kuchsiz kislotali eritmalarda  $\text{Fe}^{2+}$  och-yashil tusga,  $\text{Fe}^{3+}$ - sarg'ish,  $\text{Cr}^{3+}$  - yashil,  $\text{Cu}^{2+}$  - havorang,  $\text{Co}^{2+}$  - pushti,  $\text{CH}_4^2$  - sariq,  $\text{Cr}_2\text{O}_7^{2-}$  - qizil-olov rangiga ega bo`ladi. Namunani eritishdan hosil bo`lgan eritmalar rangsiz bo`lsa, bu ionlar bo`lmasligi mumkin.

## **Quruq, modda tarkibidagi kationlarni topish**

Quruq moddani eritilgandan so`ng, dastlab undan kationlar topiladi, chunki ba`zi kationlarning bo`lishi bir qator anionlarni modda tarkibida yo`qligi to`g'risida xulosa chiqarishga yordam beradi.

Quruq modda eritmasi tarkibida  $\text{PO}_4^{3-}$  anionlarining bo`lishi kationlarni topishga xalaqit beradi. III guruq kationlarini  $(\text{NH}_4)_2\text{S}$  ta`sirida cho`ktirishda ishqoriy eritmadan bir vaqtning o`zida II guruh kationlari va magniy kationini fosfatlari ham cho`kmaga tushib qoladi. Shunday qilib  $\text{PO}_4^{3-}$  anioni ishtirokida III guruh kationlarini II guruh kationlaridan ajratib bo`lmaydi. Ularni ajratish uchun eritmadan  $\text{PO}_4^{3-}$  ni yo`qotish kerak. Buning uchun eritmada kislotali muhit ( $\text{pH}=5$ ) mavjud qiladigan atsetat bufer aralashma  $\text{CH}_3\text{COO}+\text{CH}_3\text{COONa}$  ishtirokida  $\text{Fe}^{3+}$  tuzlari bilan  $\text{PO}_4^{3-}$  ni  $\text{FePO}_4$  holda cho`kmaga tushiriladi. pH ning bunday qiymatida  $\text{Ba}^{2+}$ ,  $\text{Sr}^{2+}$ ,  $\text{Ca}^{2+}$  va  $\text{Mg}^{2+}$  ionlari hamda  $\text{Zn}^{2+}$ ,  $\text{Mn}^{2+}$ ,  $\text{Ni}^{2+}$ ,  $\text{Co}^{2+}$  va  $\text{Fe}^{2+}$  (ya`ni barcha ikki zaryadli kationlar) eritmada qoladi. Alyuminiy, xrom fosfatlari, aksincha  $\text{FePO}_4$  bilan birga cho`kmaga tushadi. Fosfat anionini to`liq cho`kmaga tushirish uchun ortiqcha  $\text{Fe}^{3+}$  kationlari zarur bo`ladi. Ortib qolgan  $\text{Fe}^{3+}$  ni yo`qotish va  $\text{FePO}_4$  ni to`liq ajratib olish uchun eritma qaynatiladi. Bunda ortiqcha  $\text{Fe}^{3+}$  kationlari asosli atsetat holida cho`kmaga tushadi. Cho`kma ajratib olinib  $\text{Al}^{3+}$ ,  $\text{Cr}^{3+}$  kationlari bor yo`qligi tekshiriladi. Sentrifugadagi suyuqlik tarkibidagi boshqa kationlar borligi I-V guruh kationlari aralashmasini analiz qilish tartibi bo`yicha topiladi.



## **Quruq modda tarkibidagi anionlarni topish**

Quruq modda eritmasidan kationlarni topish jarayonida yo`l-yo`lakay u yoki bu anionlarning bor-yo`qligi to`g'risida ma`lumotga ega bo`lish mumkin. Quruq modda suyultirilgan xlorid yoki nitrat kislotada eritilgan bo`lsa, va bu eritmadan  $\text{Ba}^{2+}$ ,  $\text{Sr}^{2+}$ , yoki  $\text{Pb}^{2+}$  kationlari aniqlangan bo`lsa, o`z-o`zidan ravshanki, tekshirilayotgan eritmada  $\text{SO}_4^{2-}$  anionlari bo`lmaydi. Neytral yoki ishqoriy muhitli eritmadan  $\text{Ba}^{2+}$  kationlari topilgan bo`lsa, ishonch bilan tekshirilayotgan eritmada 1 guruh anionlarining hammasi yo`q deb aytish mumkin bo`ladi. CHo`kmasi

bo`lмаган еритмадан  $\text{Ag}^+$  кационлари топилса, II гурӯҳ анионлари ўқлигини ко`рсатади.  $\text{CO}_3^{2-}$ ,  $\text{S}_2^-$ ,  $\text{SO}_3^{2-}$  ва  $\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$  анионлари борлиги кационларни анализ қилиш ўйлida еритмани кислотали мухитга кeltirishda gazlar ( $\text{CO}_2$ ,  $\text{H}_2\text{S}$ ,  $\text{SO}_2$ ) ajralib chiqishga qarab topilishi mumkin.

Tekshirilayotgan quruq modda еритмасида ayrim анионлarning бор-ю`qligi haqida xulosa chiqarilgandan, unda bo`lishi ehtimoli tutilган анионларни topishga o`tiladi.

Anionларни topish uchun quruq moddani maxsus tayyorlab olish lozim. Anionларни faqat еритмада  $\text{K}^+$ ,  $\text{Na}^+$  va  $\text{NH}_4^+$  кационлари ishtirokidagina oson aniqlash mumkin. Boshqa кационлар, ya`ni og`ir metallarning кационлари — II-V гурӯҳ кационлари  $\text{Mg}^{2+}$  кациони bilan birgalikda анионларни aniqlashга xalaqit beradi. Eritmada bu кационлarning ба`zilarini rangli bo`lishi, oksidlash-qaytarish xossalari борлиги, bir qator анионлар bilan birikib, cho`kma berishga qobil ekanligi анионларни topishga xalaqit beradi. Shuning uchun og`ir metallarning кационларини ўқотиш ва hamma tuzларни natriy tuzларига aylantirish Maqsadida tekshirilayotgan modda natriy karbonat  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  еритмаси qo`shib qaynatiladi. Bunda II-V — гурӯҳ кационлари karbonatlar yoki gidroksidlar holida cho`kadi:



Taxminan 0,1 g quruq modda tigelda 0,4 g kimyoviy toza suvsiz natriy karbonat  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  bilan aralashtiriladi, ustiga 50-60 tomchi distillangan suv qo`shiladi, aralashma 5 minut davomida (bug'langan suvni o`rnini to`ldirib turish uchun suv qo`shib turgan holda) qaynatiladi.

Tigeldagi bo`lgan aralashma konussimon probirkaga o`tkaziladi, sentrifugalanib, cho`kmasi ajratiladi. Olingan еритма "sodali o`rim" nomi bilan atalib, uning tarkibidagi гурӯҳ анионлари ko`rsatilgan tartibda topiladi. Analiz qilishdan oldin "sodali o`rim" natriy karbonatning ortiqchasini ўқотиш Maqsadida sirka kislota bilan neytrallanadi. Bu ishni juda ehtiyyotlik bilan bajarish lozim, kislotadan ko`proq qo`shilsa  $\text{S}^{2-}$ ,  $\text{NO}_2^-$  va ba`zi bir анионларни ўқотиб yuborish mumkin. Shuni e`tiborga olish kerakki,  $\text{CO}_3^{2-}$  аниони o`rim tayyorlashda

eritmaga kirib qoladi. Shu sababli  $\text{CO}_3^{2-}$  anioni quruq moddaning ozgina ulushidan xlorid kislota ta'sir ettirib topiladi.

Quruq modda eritmasi tarkibidagi kationlar va anionlar aniqlanib bo`lgach, tekshirilayotgan namunani-tuz tarkibi to`g'risida xulosa chiqariladi. Masalan, agar  $\text{Na}^+$ ,  $\text{K}^+$ ,  $\text{NH}_4^+$  kationlari va  $\text{NO}_3^-$  anioni topilgan bo`lsa, namuna kaliyli, natriyli va ammoniy nitratlari aralashmasidan iborat bo`ladi. Bordiyu,  $\text{K}^+$  kationi, shuningdek  $\text{SO}_4^{2-}$  va  $\text{NO}_3^-$  anionlari topilgan bo`lsa, unda quruq modda ikki tuz —  $\text{K}_2\text{SO}_4$  va  $\text{KNO}_3$  aralashmasi bo`lib chiqadi va hokazo.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Eruvchanlik ko‘paytmasi tushunchasini izohlang. Eruvchanlik ko‘paytmasi va ionlar faolligi ko‘paytmasi o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?
2. Kam eriydigan elektrolit cho‘kmasini ajratish sharoitini izohlang.
3. Kam eriydigan elektrolitlarni eruvchanligini ifodalash turlarini ko‘rsating.
4. Bir ismli ionlarning kam eriydigan elektrolitlar eruvchanligiga ta’siri.
5. Begona elektrolit ionlarining kam eriydigan elektrolit eruvchanligiga ta’siri.
6. «Tuz samarasi»ning ma’nosи va sababini misol asosida tushuntirib bering.
7. Eruvchanlik va eruvchanlik ko‘paytmasi o‘rtasida qanday bog‘liqlik bor?: a)  $\text{AgCl}$ ; b)  $\text{Ag}_2\text{CrO}_4$ ; v)  $\text{Ag}_3\text{PO}_4$  misollar asosida izohlang.

### **Laboratoriya mashg’uloti**

**Tortma analiz. Haydash usuli bo'yicha analiz qilish yo'li, yakka tartibda tarozida tortishni o'rgatish, ishchi ishqor eritmasini tayyorlash va uni konsentratsiyasini aniqlash.**

Maqsad:

- Tortma analiz. Haydash usuli bo'yicha analiz qilish yo'li, yakka tartibda tarozida tortishni o'rgatish, ishchi ishqor eritmasini tayyorlash va uni

konsentratsiyasini aniqlashga doir amaliy ko‘nikmalar hosil qilish va ularni nazariy bilimlar bilan birgalikda vaziyatli masalalarni hal etishda qo‘llay bilish;

O‘rganilayotgan mavzuning ahamiyati.

Tortma (gravimetrik analiz)ga doir olingan nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar quyidagi mavzularni o‘zlashtirish uchun zarur:

Maqsadga muvofiq topshiriqlar:

- Oldingi mashg‘ulotga asoslanib, quruq tuz analiziga doir hamma amallarni bajarish.
- mashg‘ulotda tayyorlangan laboratoriya jurnalidagi bayonnomani natijalar va xulosalar bilan to‘ldirish.
- analiz natijalariga asoslangan holda xulosa yozish.

Mustaqil tayyorlanish uchun savollar

1. EK qiymatidan qiyin eriydigan elektrolitlarni boshqa elektrolitlarga o‘tkazishda qo‘llay bilish.

2. Ishchi eritma tayyorlash va uning konsentratsiyasini aniqlab bilish.

*Kerakli asbob-uskuna va moddalar:*

- 1) texnik tarozi va tarozi toshlari;
- 2) analitik tarozi va tarozi toshlari;
- 3) analitik toza  $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ;
- 4) byuks;
- 5) qisqich;
- 6) quritish shkafi;
- 7) eksikator;
- 8) termometr.
- 9) tigel;
- 10) voronka;
- 10) halqa o’rnatalgan shtativ;
- 11) yuvgich;
- 12) analitik toza  $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  tuzi;

- 13) 2 n H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> eritmasi ;
- 14) 2 n HCl eritmasi ;
- 15) 0, 1 n AgNO<sub>3</sub> eritmasi ;
- 16) «Ko'k» lentali filtr qog'ozni.

#### O‘quv jadvallari

1. D.I.Mendeleyevning kimyoviy elementlar davriy sistemasi
2. Eruvchanlik jadvali

**Tortma analiz. Haydash usuli bo'yicha analiz qilish yo'li, yakka tartibda tarozida tortishni o'rgatish, ishchi ishqor eritmasini tayyorlash va uni konsentratsiyasini aniqlash.**

Tekshirilayotgan modda tarkibini tashkil etgan element yoki ion (yoki komponent) lar miqdorini aniqlashga imkon beruvchi usullar to'plamiga miqdoriy analiz usuli deb ataladi.

Miqdoriy analiz usullari tajriba mashg'ulotlarini bajarishda ishlatiladigan asboblarga ko'ra quyidagilarga bo'linadi:

1. Gravimetrik analiz
2. Titrimetrik analiz
3. Gaz analizi
4. Fizik-kimyoviy ( yoki instrumental) analiz usullari.

Ushbu qo'llanmada shulardan (ayrimlari) gravimetrik, titrimetrik va fizik-kimyoviy analiz usullariga to'xtalib o'tamiz.

#### Tortma (gravimetrik ) analiz

Gravimetrik analiz deb, miqdoriy analizning aniqlanadigan modda miqdorini, tekshiriladigan namuna massasini o'lchash bilan olib boriladigan aniqlash usuliga aytildi.

Gravimetrik analiz uch turga bo'linadi:

- 1) ajratish , 2) cho'ktirish, 3) haydash

1) Ajratish usulida aniqlanayotgan modda aralashmadan ajratib tozalanadi va massasi analitik tarozida tortiladi. Masalan: Temir bilan oltingugurtning aralashmasidan temirni magniga tortilish xususiyatidan foydalanib ajratish mumuin.


2) Cho'ktirish usulida aniqlanadigan modda kimyoviy reaksiya yordamida tarkibi aniq bo'lган qiyin eriydigan birikma holida cho'ktiriladi. Bunda cho'kma qizdirilib tarkibi aniq bo'lган boshqa moddaga aylantiriladi va shu moddaning massasi analitik tarozida tortilib modda miqdori aniqlanadi. Masalan:



|               |                 |              |
|---------------|-----------------|--------------|
| aniqlanadigan | chuktiriladigan | tortiladigan |
| modda         | shakl           | shakl        |

3) Haydash usulida aniqlanadigan modda uchuvchan birikma holida haydaladi. Bunda aniqlanadigan modda qizdirish yoki boshqa modda (reakтив) ta'sirida uchuvchan birikma hosil qiladigan holiga o'tkazish bilan ajratiladi. Haydash usullari to'g'ri va teskari bo'lishi mumkin.

To'g'ri haydash usullarida aniqlanadagan modda biror o'ziga xos yutuvchiga yutiladi va yutuvchi massasining oshishiga qarab aniqladigan moddaning miqdori hisoblanadi.



Teskari aniqlash usullarida aniqlanadigan modda to'liq parchalangandan keyin qolgan massasi o'lchanadi. Haydashdan oldingi va keyingi massalar farqi aniqlanadigan modda miqdorini hisoblash imkonini beradi.

Miqdoriy analizdagi xatolar

Miqdoriy analizdagi xatolar o'z xarakteriga ko'ra:

- 1) sistematik xatolar
- 2) tasodifiy xatolar
- 3) qo'pol xatolarga bo'linadi.

1. Sistematik xatolar deb, kattaligi doimiy bo'lgan yoki ma'lum qonun bo'yicha o'zgaradigan xatolarga aytildi. Sistematik xatolarni oldindan nazarda tutish va ularni yo'qotish, yoki tegishli tuzatishlar kiritish mumkin. Sistematik xatolarni quyidagi turlari mavjud.

a) Uslubiy xatolar. Bu xatolar qo'llanilayotgan analiz usuli xususiyatlariga bog'liq. Masalan: reaksiyani miqdoriy jihatdan to'la bormasligi, cho'kmani qisman eruvchanligi, cho'kma bilan birga qo'shimcha begona ionlarning cho'kishi, cho'kmani parchalanishi, moddaning gigroskopik ekanligi va hokazo.

b) Ishlatilayotgan asbob va reaktivlarga bog'liq bo'lgan xatolar. Tarozi elkalarini teng emasligi, hajmi aniq o'lchovli idishlarning tekshirilmaganligi, tekshirilayotgan eritmaga begona qo'shimchalarning tushib qolishi va boshqalar.

v) Individual xatolar. Bu xatolar analitikning shahsiy xususiyatlariga bog'liq bo'lgan xatolar. Masalan: eritma rangining o'zgarish paytini aniq sezabilmasligi, tarozi yoki byuretka shkalasidan to'g'ri raqamni bilib olmasligi va hokazo.

2. Tasodifiy xatolar. Kelib chiqishi ma'lum bir qonuniyatga asoslanmay, kattaligi va ishorasi noma'lum bo'lgan xatolar tasodifiy xatolar deb aytildi. Tasodifiy xatolar analitikning o'ziga bog'liq bo'lмаган tashqi omillar ta'sirida (haroratning o'zgarishi, havo namligini o'zgarishi, havoning iflosligi, xonaning etarli darajada yoritilmaganligi, binoning tebranishi va hokazolar) sodir bo'ladi. Sistematik xatolardan farqli ravishda tasodifiy xatolarni biror tuzatma kiritish yo'li bilan yo'qotib bo'lmaydi. Faqat parallel aniqlashlar olib borish bilan tasodifiy xatoni kamaytirish mumkin.

Qo'pol xatolar. Bunday xatolar jumlasiga torozida noto'g'ri tortish, byuretka shkalasi bo'yicha noto'g'ri hisoblash.

Miqdoriy aniqlashlarda yo'l qo'yilgan xatolarni quyidagicha ifodalash mumkin:

Absolyut xato. Aniqlanayotgan kattalikning haqiqiy miqdori bilan olingan natija o'rtasidagi farqning absolyut birliklarda ifodalangan qiymati absolyut xato deyiladi. Masalan:  $BaCl_2 \cdot 2H_2O$  tarkibida 14,75% kristallizasiya suvi borligi

aniqlangan, haqiqatda  $BaCl_2 \cdot 2H_2O$  tarkibida 14,70% kristallangan suvi bor. Demak, aniqlashning absolyut xatosi (D)

$$D = 14,70 - 14,75 = -0,05\%$$

Nisbiy xato. Absolyut xatoning aniqlanayotgan kattalikka nisbati, nisbiy xato deyiladi va % da ifodalanadi.

$$D_0 = \frac{0,05}{14,75} \cdot 100 = 0,34\% \text{ ga teng}$$

### Gravimetrik analizning bajarilish tartibi

Ko'pchilik hollarda yuqorida, ayrib o'tilgan usullardan biri-cho'ktirish usulidan foydalaniladi. Moddalarning miqdorini tortma analizning cho'ktirish usuli bilan aniqlash bo'yicha quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- 1) analiz uchun namuna olish ;
- 2) olingan namunani eritish ;
- 3) cho'ktiriladigan shaklni tanlash ;
- 4) cho'ktiruvchi modda (reagent) ni tanlash ;
- 5) cho'ktirish sharoitini tanlash ;
- 6) cho'kmani ajratish (filtrlash), yuvish ;
- 7) cho'kmani quritish va tortiladigan shaklga o'tkazish ;
- 8) analiz natijalarini hisoblash .

### Analiz uchun namuna olish

Analiz uchun olingan modda miqdori namuna deyiladi. Olinadigan namuna miqdori aniqlash usuliga (makro-, yarimmikro-, mikroanaliz), cho'maning xususiyati va tuzilishiga (kristall, amorf) bog'liq.

Tajribalar natijasi shuni ko'rsatadiki hosil bo'ladigan cho'kma kristall tuzilishli bo'lsa, massasi 0,5 g, amorf tuzilishli modda bo'lsa, 0,1 - 0,3 g atrofida bo'lishi kerak. Namunaning massasi cho'ktirish reaksiyasining tenglamasi asosida quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$\text{kristall cho'kma uchun} - m_H = \frac{a \cdot M_A \cdot 0,5}{b \cdot M_B}$$

$$\text{amorf cho'kma uchun} - m_H = \frac{a \cdot M_A \cdot 0,1}{b \cdot M_B}$$

$M_A$  – aniqlanadigan moddaning molekulyar massasi.

$M_B$  – tortiladigan shaklning molekulyar massasi.

$a, v$  – reaksiya tenglamasidagi stexiometrik koeffisientlar.



Namunaning massasi analitik tarozida  $0,0001\text{g}$ , to'rt xona ( $10^{-4}$ ) aniqlikda tortiladi.

### Olingan namunani eritish

Namunani eritish uchun zarur bo'lgan, tegishli erituvchi oldindan tanlanadi. Modda avval suvda eritiladi. Erimasa kislota yoki ishqorda, ba`zan kislota (ishqor) bilan oksidlovchi aralashmasini qizdirib eritiladi. Modda eritmaga o'tkazilgandan keyin aniqlash davom ettiriladi.

### Cho'ktiriladigan shaklni tanlash

Cho'kmanning tortiladigan shaklli kimyoviy formulasiga mos bo'lishi kerak. Chunki qizdirish vaqtida ko'pchilik cho'kmalar kimyoviy o'zgarishlarga uchraydi. Shuning uchun tortma analizda cho'ktiriladigan va tortiladigan shakl tushunchalari ishlataladi. Tegishli cho'ktiruvchi (reakтив) ta'sirida eritmadan cho'ktirilgan birikma, cho'ktiriladigan shakl deyiladi. Analizning ohirgi natijasini olish uchun tarozida tortiladigan birikma esa tortiladigan shakl deyiladi. Masalan:



### Cho'ktiriladigan shaklga qo'yiladigan talablar:

- a) aniq kimyoviy formulaga mos kelishi;
- b) kam eruvchan bo'lishi, ya'ni eruvchanlik ko'paytmasi  $1 \cdot 10^{-8}$  dan kichik bo'lishi ;

- v) kristall tuzilishga ega bo'lishi;
- g) oson yuvilishi va filtrlanishi;
- d) tortiladigan shaklga oson va to'liq o'tishi kerak.

Tortiladigan shaklga qo'yilgan talablar:

- a) tortiladigan shaklning tarkibi (aniq biror) kimyoviy formulasiga mos kelishi ;
- b) tortiladigan shakl kimyoviy jihatdan barqaror bo'lishi, ya`ni  $O_2$ , havo, oksidlovchilar,  $CO_2$ , nam ta`sirida o'zgarmasligi;
- v) katta molekulyar massaga ega bo'lishi kerak .

Cho'ktiruvchi modda (reagent)ni tanlash

Cho'kma ko'rinishga qo'yilgan talablar cho'ktiruvchi moddani (reagentni) to'g'ri tanlashni talab qiladi.

Masalan:  $Ba^{2+}$  ni bir necha xil qiyin eruvchan birikmalar ko'rinishida cho'ktirish mumkin. Qaysi bir cho'ktiruvchi aniqlanayotgan moddani to'la cho'kish imkonini bersa, ya`ni hosil bo'ladigan cho'kma eruvchanlik ko'paytmasining qiymati eng kichik bo'lsa, shu cho'ktiruvchidan foydalanish kerak.

Masalan:  $Ba^{2+}$  ionini cho'ktirish uchun cho'ktiruvchi modda tanlashda bariyning quyidagi kam eruvchi tuzlari eruvchanlik ko'paytmalarini solishtirilsa:

$$BaSO_4 - EK = 1,1 \cdot 10^{-10}$$

$$BaCrO_4 - EK = 1,2 \cdot 10^{-10}$$

$$BaMnO_4 - EK = 2,5 \cdot 10^{-10}$$

$$BaCO_3 - EK = 8,1 \cdot 10^{-9}$$

$$BaClO_4 - EK = 1,6 \cdot 10^{-7}$$

Bularning ichida eruvchanlik ko'paytmasi eng kichik bo'lgani  $BaSO_4$ . Shuning uchun  $Ba^{2+}$   $BaSO_4$  holida cho'ktirilishi kerak ekan. Demak, cho'ktiruvchi sifatida  $H_2SO_4$ ;  $Na_2SO_4$ ;  $K_2SO_4$ , ya`ni tarkibida  $SO_4^{2-}$  - ionи bo'lgan suvda yaxshi eriydigan moddalarni ishlatish kerak.

Cho'ktiruvchiga qo'yiladigan asosiy talablar:

- a) tez va oson kam eruvchan cho'kmani (birikma) hosil qilishi ;  
 b) selektiv bo'lishi, ya`ni faqat shu aniqlanayotgan modda bilan cho'kma hosil qilib, boshqa ionlar bilan reaksiyaga kirishmasligi ;  
 v) oson haydalishi yoki ajralishi;

Shunga ko'ra sulfatlarni cho'ktirish uchun  $H_2SO_4$ , gidroksidlarni cho'ktirish uchun -  $NH_4OH$ , xloridlarni cho'ktirish uchun -  $HCl$ , karbonatlarni cho'ktirish uchun -  $(NH_4)_2CO_3$  ishlatilgani maqsadga muvofiq bo'ladi.

- g) zaharli bo'lmasligi ;  
 d) ortiqcha miqdorda olinganda (kompleks hosil bo'lishi tufayli) cho'kmani eritmasligi, cho'ktiruvchining miqdori reaksiya tenglamasi bo'yicha hisoblanganda 1,5 marta ko'p olinishi kerak.

Cho'ktiruvchi hajmi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$V_B = \frac{a \cdot M_A \cdot m_H \cdot 100 \cdot 1,5}{\epsilon \cdot M_B \cdot c \cdot \rho}$$

$m_H$  – namunaning massasi, g

$M_A$  – aniqlanadigan moddaning molekulyar massasi, g

$M_B$  – cho'ktiruvchining molekulyar massasi, g

$V_B$  – cho'ktiruvchi eritmasining hajmi,  $\text{sm}^3$ , (ml)

$\rho$  - cho'ktiruvchi eritmasining zichligi,  $\text{g/sm}^3$  yoki  $\text{g/ml}$

$c$  – cho'ktiruvchi eritmasining foiz konsentrasiyasi

$a, v$  – reaksiya tenglamadagi stexiometrik koeffisiyentlar

### Cho'ktirish sharoitini tanlash

To'la cho'ktirishga ta'sir qiluvchi omillar:

- a) eritmaning pH,  $[\text{H}^+], [\text{OH}^-]$ ;  
 b) harorat;  
 v) begona ionlarning bor yoki yo'qligi.

Sharoitga qarab 2 xil:- kristall yoki amorf cho'kma hosil qilish mumkin.

Kristall cho'kmani cho'ktirishning shart-sharoitlari

- 1) cho'ktirish suyultirilgan eritmalarda olib borilishi kerak, bunda yirik kristallar hosil bo'ladi;
- 2) cho'ktiruvchi eritmasini tomchilab qo'shish va doimo aralashtirib turish kerak, aks holda mayda kristallar hosil bo'ladi;
- 3) cho'ktirish issiq eritmalarda olib borilishi shart. Qizdirilganda mayda kristallar eriydi va yirik kristallar hosil bo'lishi osonlashadi.

Kristall cho'kmalar eritmada oson ajratiladi (filtrlanadi), yuviladi va nihoyatda toza bo'ladi.

Amorf cho'kmalarini cho'ktirish shart-sharoitlari

- 1) cho'ktirishda aniqlanayotgan modda cho'ktiruvchining qaynoq eritmasi yordamida cho'ktiriladi;
- 2) cho'ktiruvchi eritmasidan tez-tez qo'shib eritma doimo aralashtirib turilishi kerak. Bunda hajmi katta amorf tuzilishli cho'kma hosil bo'ladi;
- 3) cho'ktirish koagulyatorlar ( $\text{NH}_4\text{Cl}$ , kislotalar) ishtirokida olib boriladi, bunda cho'kma hosil bo'lishi tezlashadi.
- 4) cho'ktirishda konsentrangan eritmalar ishlatiladi.

Amorf cho'kmalar, cho'ktirish jarayonida hosil bo'lgan kolloid eritmaning koagullanishi (cho'kishi) natijasida hosil bo'ladi va yana eritmaga o'tib ketishi mumkin. Bu jarayon peptizasiya deb ataladi. Demak, kolloid eritmalarining koagullanishiga imkon berish kerak.

Ayni sharoitda ishlatilayotgan reaktiv bilan cho'kma bermaydigan begona moddalarning cho'ktirilayotgan birikma bilan bиргалашиб cho'kmaga tushishi, биргалашиб cho'kish deyiladi.

Bиргалашиб cho'kish tortma analizda ham salbiy, ham ijobiy ahamiyatga ega. Avvalo u tortma analizda xatoning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Chunki tarkibida begona aralashmalar bo'lgan cho'kma (tortiladigan shakl) toza bo'lmaydi va aniq formulaga javob bermaydi. Tortiladigan moddaning formulasini aniq bilmay, uning tarkibidagi elementning miqdorini to'g'ri hisoblash mumkin emas.

Lekin birga cho'kishning ijobiy ahamiyatini analitik amaliyotda ko'rishi mumkin. Agar aniqlanayotgan komponentning eritmadiagi konsentrasiyasi juda kam bo'lib, uni cho'ktirish qiyin bo'lsa, o'zi bilan cho'kmaga olib tushuvchi modda kollektor bilan birga cho'ktirish mumkin.

Mikrokomponentlarni kollektor bilan birga cho'ktirish, usuli tarqoq va siyrak elementlarni o'rganishda foydalaniladi.

Analitik kimyo nuqtai nazaridan cho'kma bilan cho'kkani qo'shimchalar cho'kma zarrachalarining sirtida (sirtqi adsorbsiya) yoki ichida (okklyuziya) joylashishi mumkin.

Qattiq fazada (cho'kma) sirtida ionlarni yutilishi adsorbsiya deyiladi. Adsorbsiya hamma cho'kmalar uchun, ayniqsa sirti katta bo'lgan amorf cho'kmalarga xos jarayondir.

Cho'kma sirtiga kristall panjarada bo'lган eritmadiagi ortiqcha ionlar (moddalar) adsorbilanadi. Adsorbilangan moddalar yoki ionlarni cho'kmani yuvib yo'qotish mumkin.

Okklyuziya sirtqi adsorbsiyadan farqli, cho'kma bilan birga cho'kkani begona qo'shimchalar cho'kma zarrachalarining sirtida emas, ichida joylashgan bo'ladi. Shuning uchun okklyuziyalangan qo'shimchalarni cho'kmani yuvish bilan yo'qotib bo'lmaydi. Ularni eritmaga o'tkazish uchun cho'kmaning hammasini eritish zarur.

Okklyuziyaning oldini olish maqsadida quyidagilarga e'tibor berish kerak: begona kationlarning ichki adsorbsiyalanishini kamaytirish uchun cho'ktirishni cho'kmaning kristallari tarkibida cho'kma kationlari ortiqcha miqdorda bo'lgan eritmada, aksincha, begona anionlar okklyuziyalangan cho'kma olish uchun esa cho'ktirishni tarkibida cho'ktirilayotgan birikmaning anionlari ortiqcha miqdorda bo'lgan muhitda olib borish kerak.

### Cho'kmani filtrlash va yuvish

Cho'kmani eritmadan ajratish uchun, cho'kma turiga qarab filtrlanadi. Filtrlar tayyorlangan materialiga ko'ra (kulli, kulsiz) zichligiga va o'lchamiga ko'r har xil bo'ladi. Zichligi katta bo'lsa, mayda zarrachali cho'kmalarni filtrlashda

ishlatiladi (va aksincha). Cho'kmani ajratish (filtrlash) ga bosim, eritmaning yopishqoqligi (harorat), filtrning sirti kabi omillar ta'sir qiladi.

Filtrlashda filtrning katta kichikligi juda muhimdir. Filtrni filtrlanadigan suyuqlikning hajmiga qarab emas, balki cho'kmaning miqdoriga qarab tanlanadi. Cho'kma filtrga solinganda, uning yarmidan oshmasligi kerak, aks holda cho'kmani yaxshilab yuvib bo'lmaydi.

Voronka o'lchami shunday tanlanadiki, filtrning chekkalari 5-10 mm voronka chekkasidan past bo'lsin.

Filtr to'rt buklanadi, to'rtdan bir qismi ochiladi va odatdagи 60° burchakli voronka qo'yiladi. Filtr suv bilan ho'llanib, voronka devorlariga zikh qilib yopishtiriladi.

Filtrlanayotganda filtrning teshikchalari cho'kma zarrachalari bilan tez bekilib qolmasligi uchun, dastlab suyuqlikni filtrga shisha tayoqcha bo'ylab, cho'kmani chayqatmasdan quyiladi.

Shisha tayoqchani filtr qog'ozning uch qavatli joyining tepasida, o'rtada vertikal ushslash kerak. Tayoqchaning pastki uchi filtrdagи suyuqlikka tegmasligi kerak. Tayoqcha yo stakanda, yo filtr tepasida turishi kerak. Tayoqcha stolga qo'yilmaydi.

Cho'kmadan undagi suyuqlikning ko'p qismi filtrga quyilib, stakan tubida cho'kma ozgina suyuqligi bilan qolganda cho'kma dekantatsiya yo'li bilan yuviladi.

Cho'kmani yuvishdan maqsad, yuqoridagi mavzuda aytib o'tganimizdek, uning sirtiga adsorbsiyalangan begona qo'shimchalarni va cho'kmaga shamilgan asosiy eritmani yo'qotishdir.

Yuvuvchi suyuqliklar sifatida cho'ktiruvchining suyultirilgan eritmasi, elektrolit eritmasi, distillangan suv ishlatiladi. Buning uchun yuvgichdan suyuqlik oqimi shunday yo'naltiriladiki, u stakan devorlaridan unga yopishgan cho'kma zarrachalarini yuvib tushirsin. Cho'kma chayqatib loyqalantiriladi va stakan tubiga cho'kma yig'ilishi uchun qo'yib qo'yiladi. Tingan suyuqlik filtrga solinadi. Bu ish 3-4 marta takrorlanadi. Oxirida cho'kmani qolgan suyuqlik bilan chayqatib to'liq

filtrga solinadi. Stakan tubida va devorlarida qolgan cho'kma zarrachalarini yuvgichdagi yuvuvchi suyuqlik oqimi bilan filtrga tushiriladi. Stakan va shisha tayoqchaga mustahkam yopishib tushmay qolgan cho'kma zarrachalari kulsiz filtr bo'lakchasi suv bilan ho'llanib, artib olinadi. Filtr bo'lagi cho'kmali filtrga solinadi va yana stakan 2-3 marta yuviladi.

Cho'kma to'la yuvilganligini tekshirish uchun, filtdan ajralib o'tayotgan eritma (filtrat)dan olib tegishli ionga xos xususiy reaksiya qilib ko'rildi.

Cho'kmani quritish va tortiladigan shaklga o'tkazish

Yuvilgan cho'kma quritish pechida 90-105 °C atrofida ma'lum vaqt davomida quritiladi. Quritilgan kukunsimon modda massasi aniq bo'lgan biror idish (tigel) da qizdirish pechida (mufel pech) yuqori haroratda qizdiriladi. Qizdirilgandan so'ng xona haroratiga kelguncha eksikatorda saqlanadi va keyin analistik tarozida tortiladi.

Tortma analizning afzalligi - aniqligi katta.

Kamchiligi - aniqlash ko'p bosqichli bo'lgani uchun bu aniqlash ko'p vaqt talab qiladi, ya`ni tezkor - "ekspress" aniqlash emas.

Gravimetrik shaklni tortish va analiz natijalarini hisoblash.

Tortma analiz usulida miqdori aniqlanishi kerak bo'lgan moddaning o'zini emas, balki unga ekvivalent bo'lgan ikkinchi modda tortiladigan shakl tarozida tortiladi.

Tortiladigan shaklning topilgan miqdori (doimiy og'irlilikka keltirilgan cho'kmali tigel va bo'sh tigel og'irliliklarining farqi) aniqlanayotgan moddaning qancha miqdoriga to'g'ri kelishi hisoblab topiladi.

Aniqlanadigan modda massasi grammlarda quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$Q_h = m_1 \cdot F$$

$m_1$  – tortiladigan shaklning massasi, g

F – analistik ko'paytuvchi yoki qayta hisoblash omili aniqlanayotgan modda (element)ning molekulyar (atom) massasini cho'kma (tortiladigan shakl)

ning molekulyar massasiga nisbati F o'zgarmas son bo'lib, analiz uchun qancha modda tortib olinganligiga bog'liq emas.

$$F = \frac{a * M_A}{b * M_T}$$

$M_A$  – aniqlanadigan moddaning molekulyar massasi, g

$M_T$  – tortiladigan shaklning molekulyar massasi, g

a,v – reaksiya tenglamasidagi stixiometrik koeffisientlar.

Ayrim moddalar uchun analitik ko'paytuvchining qiymatlari "ma'lumotnomasi" larda berilgan.

Aniqlanadigan modda massasi % - larda quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$C_{\%} = \frac{m_1 \cdot F \cdot 100}{m_H}$$

$m_H$  – namuna massasi, g

### **1 – ish. $BaCl_2 \cdot 2H_2O$ tarkibidagi kristallangan suv miqdorini aniqlash.**

Tortma analizning haydash usulidan foydalanib, kristallogidratlar tarkibidagi kristallangan suv miqdori aniqlanadi.

Aniqlash tartibi: diametri 3-4 sm bo'lган byuks oling, shlifli qismiga oddiy qalam bilan nomeringizni qo'ying, yaxshilab yuving, distillangan suv bilan chayqab, quritish shkafida qopqog'ini yopmasdan qirrasi bilan qo'ying va 115-125°C haroratda quriting. 45 – 60 minut o'tgach byuksni eksikatorga qo'yib, sovugandan so'ng texnik tarozida, keyin analitik tarozida torting. Shundan keyin byuksga toza  $BaCl_2 \cdot 2H_2O$  dan 1,5 - 2 g atrofida soling, oldin texnik tarozida, keyin analitik tarozida torting. Byuks va byuksning modda bilan birgalikdagi massasini laboratoriya jurnalningizga yozib qo'ying.

Byuks qopqog'ini qirrasi bilan qo'ying va 1,5 – 2 soat 120 – 125°C da quritish shkafiga qo'ying. Ko'rsatilgan vaqt tugagandan so'ng olib eksikatorda sovuting va yana tarozida torting. Quritish va tortish ishlari byuksning ichidagi modda bilan birgalikdagi massasi o'zgarmay qolguncha (ikkinchisi totish

birinchisidan 0,0002 gr.dan ortiq farq qilmasligi kerak) quritish va tortishni davom ettiring.

Olingan natijalardan foydalanib  $BaCl_2 \cdot 2H_2O$  dagi kristallangan suvning miqdorini hisoblashni 16-jadval ko'inishida rasmiylashtiring.

**16 – jadval.  $BaCl_2 \cdot 2H_2O$  tarkibidagi kristallizasiya suvning miqdorini aniqlash.**

|    | Aniqlash tartibi va kattaliklar   | qiymat | Izoh |
|----|---|--------|------|
| 1. | Bo'sh byuksning qizdirilgandan keyingi massasi  |        |      |
| 2. | Byuksning namuna ( $BaCl_2 \cdot 2H_2O$ ) bilan quritishdan oldingi massasi, g                                  |        |      |
| 3. | Namuna ( $BaCl_2 \cdot 2H_2O$ ) massasi , g   |        |      |
| 4. | Byuksning tortim bilan quritishdan keyingi massasi;<br>1 – qizdirish, g<br>2 – qizdirish, g<br>3 – qizdirish, g |        |      |
| 5. | Tortimdagи kristallangan suvning amaliy hisoblashdagi miqdori<br>a) grammlarda<br>b) foizlarda, (%)             |        |      |
| 6. | Namunadagi kristallangan suvning nazariy hisoblangan miqdori<br>a) grammlarda<br>b) foizlarda, (%)              |        |      |
| 7. | Analiz natijalarini hisoblash   |        |      |

Olingan natijalar quyidagi formulalar asosida hisoblanadi:

$$(H_2O) x\% = \frac{m_1 \cdot 100}{m}$$

$m$  – namuna massasi, g;

$m_1$  – kristallangan suvning miqdori, g


Tajribaning xatosi:

a) absolyut xato –  $\Delta x = x_{max} - x_{min}$


b) nisbiy xato –  $\Delta x_{nuc} = \frac{\Delta x \cdot 100}{m_{min}}$

## **2 – ish. Bariy xlorid tarkibidagi bariyning miqdorini aniqlash.**

Bariy xlorid tarkibidagi  $\text{Ba}^{2+}$  ionlarini gravimetrik usulda aniqlash quyidagi reaksiyaga asoslangan.



ion – molekulyar ko’rinishi



Analiz uchun  $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  kristallangan tuzidan 0,5-0,6 g byuksda yoki soat oynasida oldin texnik keyin analitik tarozida tortib oling.

Modda hajmi 250-300 ml bo’lgan stakanga qo’yib olingandan keyin, byuks (soat oynasi) ni analitik tarozida tortib, namuna miqdorini farqidan topping.

$$m = m_1 - m_2$$

bunda:  $m_1$  – byuksning  $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  bilan massasi, g

$m_2$  – byuksning massasi, g

$m$  –  $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  ning massasi

Modda suyultirilgan eritmalaridan cho’ktiriladi. Shu sababli olingen tuz tortimini 80 – 100 ml distillangan suvda shisha tayoqcha bilan aralashtirib turib eriting va 60 – 70°C gacha qizdiring. Shisha tayoqchani cho’ktirishning oxirigacha stakandan olmang, chunki unda eritma tomchilari qolishi mumkin.  $\text{NaSO}_4$  cho’kmasi bilan eritmadi boshqa ionlar birgalikda cho’kmasligi uchun eritmaga 2-3 ml 2 n HCl eritmasidan quying.  $\text{H}_2\text{SO}_4$  Modda suyultirilgan eritmalaridan cho’ktiriladi, shu sababli olingen tuz tortimini 80 – 100 ml distillangan suvda shisha tayoqcha bilan aralashtirib turib eriting va  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasini tomchilatib issiq eritmaga qo’shib shisha tayoqcha bilan aralashtiring.  $\text{Ba}^{2+}$  ionlarining to’liq cho’ktirilganligini tekshiring. Buning uchun stakan devori bo’ylab eritmaga 2-3 tomchi sulfat kislota tomizing. Kislota tomchisi tushgan joyda loyqalanish bo’lmasa, cho’ktirish tugallangan deb hisoblang. Cho’kmani eritilishi uchun keyingi mashg’ulot darsigacha qoldiring. Cho’kmani ko’k lentali zichligi katta bo’lgan filtr orqali filtrlang va filtrdagi cho’kmani yuving. Yuvuvchi suyuqlik sifatida  $\text{HNO}_3$  kislota qo’shilgan qaynoq suv (100 ml suvda 2 n  $\text{HNO}_3$  eritmasidan

5 ml qo'shing) ishlating. Yuvishni cho'kmada  $\text{Cl}^-$  ionlari qolmaguncha davom ettiring. Buning uchun filtratdan olib,  $\text{Cl}^-$  ionlariga xos reaksiya bilan ( $\text{AgNO}_3$  ta'sir ettirib) tekshiring. Filtrdagи cho'kmani quritish shkafida quriting. Oldindan tozalab qizdirilgan tigelni analitik tarozida torting.

So'ngra filtrni cho'kma bilan birga ehtiyyotlik bilan tigelga soling va mufel pechida kuydiring. Eksikatorda sovutilgan tigelni analitik tarozida torting. Tigeli massasi o'zgarmay qolguncha qizdirish va tortishni takrorlang. Olingan analiz natijalarini 17-jadval ko'rinishida rasmiylashtiring.

### **17-jadval Bariy xlorid tarkibidagi bariyning miqdorini aniqlash.**

|    | Aniqlash tartibi va kattaliklar  | Qiymat | Izoh |
|----|--|--------|------|
| 1. | Bo'sh byuksning qizdirilgandan keyingi massasi, g  |        |      |
| 2. | Byuksning namuna ( $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ) bilan birgalikdagi massasi, g                             |        |      |
| 3. | Namuna ( $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ) ning massasi, g   |        |      |
| 4. | Bo'sh tigelning qizdirilgandan keyingi massasi, g  |        |      |
| 5. | Tigelning cho'kma bilan qizdirilgandan keyingi massasi, g:<br>1 – qizdirish, g   |        |      |
|    | 2 – qizdirish, g   |        |      |
|    | 3 – qizdirish, g   |        |      |
| 6. | Tortiladigan shakldagi $\text{BaSO}_4$ ning miqdori, g   |        |      |
| 7. | Tortiladigan shakldagi $\text{BaSO}_4$ tarkibidagi bariyning miqdori<br>a) grammlarda<br>b) foizlarda, (%)               |        |      |
| 8. | Namuna ( $\text{BaCl}_2 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ) tarkibidagi bariyning miqdori<br>a) grammlarda<br>b) foizlarda, (%) |        |      |
| 7. | Analiz natijalarini hisoblash  |        |      |

Olingan natijalar quyidagi formulalar asosida hisoblanadi:

$$(Ba) x\% = \frac{m_1 \cdot 100}{m}$$

$m$  – namuna tarkibidagi  $\text{Ba}^{2+}$  miqdori, g

$m_1$  – tortma ko’rinishidagi BaSO<sub>4</sub> tarkibidagi Ba<sup>2+</sup> miqdori, g

Tajribaning xatosi:

a) absolyut xato –  $\Delta x = x_{max} - x_{min}$

b) nisbiy xato –  $\Delta x_{\text{nisbiy}} = \frac{\Delta x \cdot 100}{m_{min}}$

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Tortma analizning mohiyati nimadan iborat? Bundagi asosiy jarayonlarning ketma-ketligini tushintiring.
2. Cho’kmaga, cho’ktiriladigan formaga, tortiladigann formaga qo’yiladigan talablarni ayting.
3. Cho’kmalarni yuvishda qanday usullar qo’llaniladi?
4. Analiz qilinadigan modda miqdoriga qanday faktorlar ta’sir etadi?
5. Analiz qilinayotgan moddaning foiz miqdori qanday aniqlanadi? .

## VAZIYATLI MASALALAR

1. AgBr eritmasiga 0,1M KBr yoki 0,1M KNO<sub>3</sub> qo’shilganda AgBr ning eruvchanligi ortadimi yoki kamayadimi?
2. Nima uchun Ba<sup>2+</sup> ionlarini Na<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> ta’sirida emas, balki sulfat kislota bilan cho’ktiriladi?
3. Agar tekshirilayotgan 0,5437 g moddadan cho’ktirishda 0,6343 g AgCl olingan bo’lsa, shu moddada qancha xlor bo’ladi?
4. Analiz natijalariga ko’ra KBr dagi brom miqdori 67,03%. Analizning absolyut va nisbiy xatolari qanchaga teng?

## Laboratoriya mashg’uloti

### **Titrimetrik analiz. Neytrallash usulida aniqlash.**

Maqsad:

Titrimetrik analizga doir amaliy ko’nikmalarini hosil qilish va ularni amalda qo’llay bilish.

Titrimetrik analizga doir masalalar yechish.

Maqsadni amalga oshirmoq uchun belgilangan vazifalar:

Mustaqil tayyorlanish uchun savollar:

1. Hajmiy analiz asosida qanday prinsip yotadi?
2. Standart ishchi eritmalar haqida ma'lumot.

**Kerakli asbob-uskuna va reaktivlar:**

- 1) 25,00 ml li byuretkali shtativ;
- 2) 5,00 yoki 10,00 ml li pipetka;
- 3) 10 ml li slindr;
- 4) 100,0 ml li o'lchov kolbasi;
- 5) 3 dona 50 ml li konussimon kolba;
- 6) 10 % li NaOH eritmasi;
- 7) 0,1000 n.  $HCl$  ( $H_2C_2O_4$ ) standart eritmasi;
- 8) fenolftalein (1% li spirtdagi) eritmasi.

### Titrimetrik analiz

Miqdoriy analizda aniqlanadigan modda miqdorini aniqlash uchun sarf bo'ladigan moddaning konsentrasiyasi aniq bo'lgan modda eritmasi hajmini o'lchashga asoslangan usuliga hajmiy (titrimetrik) analiz usuli deb aytildi.

Aniqlanadigan A modda eritmasiga oz-ozdan konsentrasiyasi aniq bo'lgan V modda eritmasi qo'shiladi. Bunda V moddadan A modda miqdoriga aniqlovchi modda miqdori ekvivalent bo'lgan holat ekvivalent nuqta deb ataladi. Ekvivalent nuqta maxsus asboblar yoki indikatorlar yordamida aniqlanadi. Indikator rangining o'zgarish holatiga titrlashning oxirgi nuqtasi deyiladi.

Konsentrasiyasi yoki boshqacha titri aniq bo'lgan eritma standart (titrlangan) eritma, yoki titrant deb aytildi. Standart eritmaning konsentrasiyasi

odatda grammning millilitrga nisbati (g/ml) yoki (normallik) gramm-ekvivalent/litr birligida ifodalanadi.

Aniqlanadigan modda eritmasiga sekinlik bilan titrantni qo'shish jarayoni titrlash deyiladi.

**Titrimetrik analiz usullari:** Analiz qilinadigan modda miqdorini aniqlashda boradigan asosiy reaksiyalarning turlariga qarab, hajmiy analiz usullari quyidagilarga:

- 1) neytrallash yoki kislota-asosli titrlash ;
- 2) oksidlanish-qaytarilish usullari, (oksidimetriya);
- 3) cho'ktirish va kompleks hosil qilish usullari (kompleksonometriya) ga bo'linadi.

Titrlashni bajarilish tartibiga ko'ra quyidagi usullarga bo'lismumkin:

- 1) to'g'ri titrlash - bu usulda aniqlanayotgan modda bilan aniqlovchi modda (reakтив) о'rtasida to'g'ridan- to'g'ri kimyoviy reaksiya boradi;
- 2) teskari titrlash - aniqlanayotgan modda eritmasiga muayyan ortiqcha (ammo aniq o'lchangan) miqdordagi standart moddaning ma'lum konsentrasiyali eritmasi qo'shiladi va bu stardart moddaning ortiqcha miqdori boshqa standart eritma bilan titrlanadi;
- 3) «o'rribbosar» ni titrlash - aniqlanayotgan moda va biror aniqlovchi modda o'rtasidagi reaksiya mahsulotini standart eritma bilan titrlashdir.

#### Titrlangan eritmalar tayyorlash

Konsentrasiyasi (titri) aniq ma'lum bo'lgan eritmalar titrlangan, titrant yoki standart eritmalar deyiladi. Ular quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- 1) modda kimyoviy toza bo'lishi;
- 2) moddaning tarkibi uning formulasiga to'la mos kelishi ;
- 3) modda quruq holda saqlanganda ham, eritma holda saqlanganda ham barqaror bo'lishi;
- 4) moddaning gramm ekvivalent qiymati mumkin qadar katta bo'lishi kerak. Chunki bu eritmaning titrini aniq topishga imkon beradi.

Ko'rsatilgan talablarga javob beradigan moddalar titrlangan yoki boshlang'ich moddalar deyiladi, chunki ulardan foydalanib qolgan boshqa moddalarning titri aniqlanadi.

Boshlang'ich moddalar quyidagi usullar bilan tayyorlanadi:

1. Fiksanal tayyorlash usuli. Fiksanal – 1 litr aniq 0,1000 n eritma tayyorlash uchun kerakli miqdorda aniq tortilib yoki aniq o'lchanib shisha ampulalarga solib kavsharlangan qattiq modda yoki titrlangan eritmalaridir. Fiksanaldan titrlangan eritma tayyorlash ampuladagi moddani hajmi 1 litrli kolbaning bo'g'ziga varonka qo'yib, uning ichida bayok (nayza) qo'yiladi va shu bayok yordamida ampulaning yupqa devorli tubi sindiriladi. Ampulaning yuqori qismidagi chuqurcha uchi o'tkir shisha tayoqcha bilan teshiladi. Teshikdan ampula ichiga yuvgich yordamida suv purkab yuviladi. So'ngra varonka yuviladi va uni olib qo'yib, kolbadagi suyuqlikning hajmi distillangan suv qo'shib belgisigacha yetkaziladi.

2. Tortim usuli. Kerakli moddadan analistik tarozida aniq tortib olib o'lchov kolbasida eritiladi va eritmaning hajmi kolbaning belgisiga yetguncha distillangan suv bilan to'ldiriladi. Eritmaning titri quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$T = \frac{m}{V}, \text{ g/ml}$$

$m$  – erigan moddaning massasi, g

$V$  – eritmaning hajmi, ml

Bunday eritmalariga birlamchi standart eritmalar yoki tayyorlangan eritmalar deyiladi. Lekin hamma moddalarning eritmasini masalan, (HCl, NaOH) tayyorlab bo'lmaydi.

3. Titrlash usuli. Titrlangan eritmalar qo'yiladigan talablarga (yuqoriga qarang) javob bera olmaydigan eritmalar titrlash usuli bilan tayyorlanadi. Bunda taxminan kerakli konsentrasiyali eritma tayyorlanadi, aniq (titri) konsentrasiyasini esa, biron to'g'ri keladigan boshqa birlamchi standart eritma bilan titrlab aniqlanadi.

Titri boshqa eritma yordamida titrlash usuli bilan topilgan eritmalar titri aniqlangan eritmalar yoki ikkilamchi standart eritmalar deyiladi.

Kislota – asosli titrlash (neytrallash) usuli.

Titrimetrik analizda modda miqdorini aniqlash, neytrallanish reaksiyasiga asoslangan usuli kislota-asosli titrlash yoki neytrallash usuli deyiladi. Neytrallash jarayoni eritmalarida gidroksoniy ( $H_3O^+$ ) (yoki  $H^+$ ) ionlarining gidroksil  $OH^-$  ionlari bilan o'zaro ta'sirlashib kuchsiz elektrolit suvning hosil bo'lishidir.



Demak, eritmada  $H^+$  va  $OH^-$  ionlari konsentrasiyasining, ya`ni pH ini o'zgarishi kuzatiladi.

Bu usul bilan biror kislotaning titrlangan eritmasidan foydalanib ishqorlarning miqdorini aniqlash (asidimetriya) yoki ishqorning titrlangan eritmasidan foydalanib, kislotalarning miqdorini aniqlash (alkalimetriya) mumkin.

Neytrallash usuli oziq-ovqat sanoatida shu jumladan xamirturush (droja), un, sut, muzqaymoq, pivoning kislotalilagini, sirka kislota tarkibidagi sirka miqdorini aniqlashda ishlatiladi.

Kislotalarning titrini aniqlashda boshlang'ich modda sifatida:  $Na_2B_4O_7 \cdot 10H_2O$ ,  $Na_2CO_3$ ,  $C_2H_5ONa$  lar ishlatiladi.

Ishqorlarning titrini aniqlashda:  $H_2C_2O_4 \cdot 2H_2O$ , qahrabo kislotasi,  $H_2C_4H_4O_6$  ishlatiladi.

Titrlash jarayonida pH ning ma'lum qiymatida ekvivalent nuqtaga erishiladi va titrlash to'xtatiladi. Neytrallash reaksiyası qandaydir tashqi o'zgarish bilan ketmaydi. Shuning uchun ekvivalent nuqta- titrlashning oxirgi nuqtasini aniqlash uchun maxsus indikatorlar ishlatiladi.

### **Indikator tanlash.**

Titrlashda eng asosiy sharoit indikatorni to'g'ri tanlash kerak. Agar analizdagi hamma shartlar to'g'ri bajarilgan bo'lib, indikator to'g'ri tanlanmasa, olingan natijalar noto'g'ri bo'ladi.

Indikatorning o'zgarish sohasi - pH sakramaga, indikatorning titrlash ko'rsatkichi esa, ekvivalent nuqtaning pH iga to'g'ri kelishi kerak.

Shuning uchun indikatori tanlashdan oldin, titrlash egri chiziqlaridan pH sakrama oralig'i aniqlanadi, keyin o'zgarish sohasi shu oraliqga to'g'ri keladigan indikator tanlanadi.

Masalan: titrlash egri chiziqlaridan (1,2,3-chizmalar) ko'rindaniki,

a) kuchli kislotani kuchli asos bilan titrlaganda pH sakramami 4,3 - 9,7 oralig'iga to'g'ri keladigan indikatorlar: metiloranj, fenolftalein, lakkmus; metilqizil;

b) kuchsiz kislota kuchli asos bilan titrlaganda pH sakramasi 7,74 - 10 oralig'iga to'g'ri keladigan indikatorlar; fenolftalein, timolftalein;

v) Kuchsiz asosni kuchli kislota bilan titrlaganda pH sakramasi 4-6,24 oralig'iga to'g'ri keladigan indikatorlar: metil qizil, metiloranj ishlataladi.

### **1 – ish. Sirkadagi sirkta kislota miqdorini aniqlash.**

Hajmi 100 ml bo'lgan o'lchov kolbasiga pipetkada 10,00 ml sirkadan olib, belgisigacha distillangan suv bilan suyultiriladi. Tayyorlangan eritmadan titrlash kolbasiga 10,00 ml olib, 1-2 tomchi fenolftalein qo'shiladi va titri aniq bo'lgan NaOH ning 0,1000 mol/l eritmasi bilan och pushti rang hosil bo'lguncha titrlanadi. Titrlashni kamida uch marta takrorlanadi.

1 ml 0,1000 mol/l NaOH eritmasiga 0,00600 ( $CH_3COOH$ ) kislotasi to'g'ri keladi. Sirkta kislota miqdorini (Q g/100 ml sirkada), quyidagi formula bilan hisoblanadi.

$$Q = \frac{V_{\text{жп.NaOH}} \cdot N_{NaOH} \cdot 0,06 \cdot 100 \cdot 100}{V_1 \cdot V_2} = \frac{V_{\text{жп.NaOH}} \cdot N_{NaOH} \cdot 600}{V_1 \cdot V_2}$$

bu yerda

$V_1$  – aniqlash uchun olingan sirkaning hajmi, ml

$V_2$  - suyultirilgan sirkaning hajmi, ml.

Sirkada 6% atrofida sirkta kislota bo'lishi mumkin.

## **2– ish. Nonning kislotaliliginini aniqlash.**

Xamir achishi natijasida nonda sirka va sut kislotasi hosil bo'ladi. Nonning mazasi uning kislotaliligi bilan xarakterlanadi. Nonning kislotaliligi graduslarda ifodalanadi. Masalan: qora nonda – 12<sup>0</sup>, bug'doy unidan tayyorlangan nonda – 6<sup>0</sup> dan yuqori bo'lmashligi kerak. Kislotaliligi 1<sup>0</sup> bo'lgan 100 g non tarkibidagi kislotani neytrallash uchun 1,00 n NaOH eritmasidan 1 ml sarf bo'ladi.

**Aniqlash tartibi:** 500 ml konussimon kolbaga analitik tarozida o'lchab olingan 50 g qora nonni maydalab solinadi, ustiga 200 ml issiq distillangan suv qo'shib aralashtiriladi va yana 50 ml distillangan suv qo'shiladi. Tindirish uchun bir soat qo'yib quyiladi. Bir soatdan keyin tindirilgan eritmaning ustki tiniq qismidan pipetka yordamida 50 ml olinadi, ustiga 2-3 tomchi fenolftalein tomizilib 0,1000 n NaOH eritmasi bilan och pushti rang hosil bo'lguncha titrlanadi.

**Hisoblash.** Qora nonning ivishidan hosil bo'lgan 50,00 ml suyuqlikni (vityajka) titrlash uchun NaOHning 0,1000 n eritmasidan 7,2 ml sarf bo'ldi. 250,0 ml uchun esa

$$50,00 \text{ ml} \rightarrow 7,2 \text{ ml}$$

$$250,0 \text{ ml} \rightarrow x \quad x = \frac{250 \cdot 7,2}{50} = 36 \text{ ml}$$

50,00 g qora non tarkibidagi kislotani neytrallash uchun 36 ml 0,1000 n NaOH eritmasi sarf bo'lsa, 100,0 g qora nondagi kislotani neytrallash uchun 2 marta ko'p 72,0 ml 0,1000 n NaOH, 1,00 n NaOH eritmasidan 10 marta kam 7,2 ml sarf bo'ladi.

Demak, tekshirilgan qora nonning kislotaliligi 7,2<sup>0</sup>. Davlat standarti bo'yicha qora nonning kislotaliligi 12<sup>0</sup> dan oshmasligi kerak.

Foizlarda hisoblaganda,

$$12^0 \rightarrow 100\%$$

$$7,2^0 \rightarrow x \quad x = \frac{7,2 \cdot 100}{12} = 60\%$$

Agar nonni kislotaliligi 100 % bo'lsa, non etilgan xamirdan tayyorlangan bo'ladi. Agar nonni kislotaliligi 100 % yuqori bo'lsa, non achigan xamirdan tayyorlangan bo'ladi.

## **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Titrimetrik analizning mohiyati va turlari.
2. Titrlashda qo'llaniladigan reaksiyalar qanday talablarga javob berishi kerak?
3. Qanday moddalar boshlang'ich moddalar deyiladi va ular qanday talablarga javob berishi kerak?
4. Quyidagi tushunchalarga ta`rif bering: a) titrant, b) standart eritma, v) titrlashning ohirgi nuqtasi, g) ekvivalent nuqta.
5. Standart eritmalar qanday usullar bilan tayyorlanadi?
6. Neytrallash usulida qanday indikatorlar ishlataladi va ular qanday talablarga javob berishi kerak?
7. Indikator nazariyasining mohiyati nimadan iborat?

## **VAZIYATLI MASALALAR**

1. 0,1040 n 25,00 ml NaOH ning eritmasini titrlash uchun, 11 eritmada 9,7780 g konsentrangan  $HNO_3$  tutgan eritmagan 25,45 ml sarf bo'ldi. Eritmadagi  $HNO_3$  ning % miqdorini hisoblang.

2. Texnik o'yuvchi kaliydan tayyorlangan eritmani titrlash uchun fenolftalein ishtirokida 0,09500 n HCl eritmasidan 22,40 ml sarf bo'lган, metiloranj ishtirokida titrlanganda esa HCl ning xuddi shu eritmasidan 25,80 ml sarf bo'lган. Texnik o'yuvchi kaliy tarkibida qancha KOH va  $K_2CO_3$  bor?

3.  $Na_2CO_3$  va  $NaHCO_3$  aralashmasi eritmasining 25,00 ml ni fenolftalein ishtirokida titrlash uchun  $H_2SO_4$  ning 0,1200 n eritmasidan 9,46 ml, metiloranj ishtirokida titrlash uchun esa 24,86 ml sarf bo'lган. Shu eritmaning 250 ml da necha gramm  $Na_2CO_3$  va necha gramm  $NaHCO_3$  borligini aniqlang.

4. 100 ml "qattiq" suvni titrlash uchun HCl ning 0,0900 n eritmasidan 5,00 ml sarf bo'lgan bo'lsa, suvning karbonat qattiqligini hisoblang.

5. 100 ml suvga  $Na_2CO_3$  ning 0,1100 n eritmasidan 10,00 ml ta'sir ettirib bug'latilgandan so'ng ortib qolgan  $Na_2CO_3$  ni teskari titrlash uchun HCl ning 0,1000 n eritmasidan 6,20 ml sarf bo'lgan bo'lsa, suvning qattiqligini hisoblang.

### **Laboratoriya mashg'uloti**

Ishchi ishqor eritmasining konsentratsiyasini aniqlash. Berilgan kislotani foiz konsentratsiyasini aniqlash

Maqsad:

Ishchi ishqor eritmasining konsentratsiyasini aniqlash. Berilgan kislotani foiz konsentratsiyasini aniqlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarini hosil qilish.

Mavzuning ahamiyati

Maqsadni amalga oshirish uchun belgilangan vazifalar:

- Ishchi eritmalar tayyorlay olish;
- Eritma konsentratsiyasini aniqlay bilish;
- Titrlash tajribalarini bajara olish;

Mustaqil tayyorlanish uchun vazifalar:

1. To'g'ri va teskari titrlash
2. Neytrallash metodi haqida ma'lumot
3. Eritma konsentratsiyasini aniqlash usullari

*Kerakli asbob – uskuna va reaktivlar:*

- 1) 25,00 ml li byuretkali shtativ;
- 2) 5,00 yoki 10,00 ml li pipetka;
- 3) 10 ml li slindr;
- 4) 100,00 ml li o'lchov kolbasi;
- 5) 3 dona 50 ml konussimon kolba;
- 6) 10 % li NaOH eritmasi;
- 7) 0,1000 n.  $HCl$  ( $H_2C_2O_4$ ) standart eritmasi;

8) fenolftalein (1% li spirtdagi) eritmasi.

1 – ish. NaOH eritmasining titrini aniqlash.

0,1000 n  $HCl$  ( $H_2C_2O_4$ ) ning standart eritmasi fiksanaldan tayyorlanadi yoki ishchi eritmasining titri, bura (yoki soda) bilan titrlab aniqlanadi.

NaOH eritmasini tayyorlash. ~ 0,1 n 100 ml NaOH eritmasi laboratoriyada oldindan tayyorlab qo'yilgan 10 % li eritmada tayyorlanadi.

Hisoblash:

$$C_H = N = \frac{m \cdot 1000}{\mathcal{E} \cdot V}; \mathcal{E}_{NaOH} = 40$$

$$m = \frac{N \cdot \mathcal{E} \cdot V}{1000} = \frac{0,1 \cdot 40 \cdot 100}{1000} = 0,4 \text{ g.}$$


100 gr eritmada – 10 g NaOH erigan

x gr eritmada – 0,4 g NaOH erigan

$$x = \frac{100 \cdot 0,4}{10} = 4 \text{ gr}$$

Eritmaning zichligi 1 g/sm<sup>3</sup> ga juda yaqin bo'lgani uchun bu eritmaning 4 gr. 4 ml deb olinadi.

Demak, 10 % NaOH eritmasidan 4 ml slindr bilan olib 100 ml li o'lchov kolbasiga solinadi va uning belgisigacha distillangan suv bilan suyultirib 0,1 n NaOH eritmasi tayyorlanadi. NaOH eritmasining titrini standart  $HCl$  ( $H_2C_2O_4$ ) bilan aniqlash quyidagi reaksiyaga asoslangan bo'lib, u to'g'ri titrlash orqali bajariladi.



**Ishning bajarilish tartibi:** Tayyorlangan 0,1 n NaOH eritmasini byuretkaga qo'yiladi.

Titrlash kolbasiga pipetka yordamida aniq hajmda HCl ning standart 0,1000 n eritmasidan (5 yoki 10 ml) o'lchab olinadi. Uning ustiga 2-3 tomchi fenolftalein eritmasidan qo'shib, byuretkadagi NaOH eritmasi bilan titrlanadi. NaOH eritmasidan oz-oz qo'shiladi, kolbani tekis aylanma harakatga keltirish

bilan suyuqlikni doimo chayqatib turiladi. Titrlashni 1 tomchi NaOH ta`sirida och pushti rangga o'tguncha davom ettiriladi. Tajribani kamida uch marta (bir-biriga yaqin qiymatlar olguncha) takrorlanadi. Olingan analiz natijalarini 18-jadval ko'rinishida rasmiylashtirib, quyidagi formulalar yordamida hisoblanadi.

*18-jadval*

| Nº | V <sub>HCl</sub> – ml. | V <sub>NaOH</sub> – ml. | Indikator |
|----|------------------------|-------------------------|-----------|
| 1. | 10,0                   |                         |           |
| 2. | 10,0                   |                         |           |
| 3. | 10,0                   |                         |           |

$$1. \quad V_{NaOH}^{o'r} = \frac{V_1 + V_2 + V_3}{3}$$

$$2. \quad N_{HCl} \cdot V_{HCl} = N_{NaOH} \cdot V_{NaOH}^{o'r} \quad N_{NaOH} = \frac{N_{HCl} \cdot V_{HCl}}{V_{NaOH}^{o'r}}$$

$$3. \quad T_{NaOH} = \frac{N_{NaOH} \cdot \Theta_{NaOH}}{1000}$$

$$4. \quad T_{NaOH/HCl} = \frac{N_{NaOH} \cdot \Theta_{HCl}}{1000}$$

## **2 – ish. Eritmadagi $H_2SO_4$ miqdorini aniqlash.**

100,00 ml o'lchov kolbasiga ma'lum miqdorda  $H_2SO_4$  eritmasidan (o'qituvchi tomonidan) beriladi.

**Ishning bajarilish tartibi:** Eritmani kolbaning belgisigacha distillangan suv bilan suyultiriladi va yaxshilab aralashtiriladi. Titrlash kolbasiga 10,00 ml pipetkada kontrol eritmadan olinadi, ustiga 2-3 tomchi fenolftalein qo'shiladi. 1 – ishda titri aniqlangan NaOH eritmasi bilan eritma och pushti rangga kirduncha titrlanadi. Tajribani uch marta takrorlab 19-jadval ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

*19-jadval*

|  | V <sub>K.Ə.</sub> – ml | V <sub>NaOH</sub> – ml. | Indikator |
|--|------------------------|-------------------------|-----------|
|  |                        |                         |           |

|  |       |  |  |
|--|-------|--|--|
|  | 10,00 |  |  |
|  | 10,00 |  |  |
|  | 10,00 |  |  |

Analiz natijasini quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi.

$$Q_{H_2SO_4} = \frac{N_{NaOH} \cdot V_{o'r.NaOH} \cdot \varTheta_{H_2SO_4} \cdot V_K}{1000 \cdot V_n}$$

$$X_{H_2SO_4(\%)} = \frac{N_{NaOH} \cdot V_{o'r.NaOH} \cdot \varTheta_{H_2SO_4} \cdot V_K \cdot 100}{1000 \cdot V_n \cdot V_{K.\varTheta.}}$$

$V_{K.E.}$  – o'qituvchi tomonidan berilgan kontrol eritma hajmi, ml.da

$V_K$  – suyultirib ishlatilgan kontrol eritma – kolba hajmi, ml.da

$V_n$  –  $H_2SO_4$  kontrol eritmasining titrlash uchun olingan hajmi, ml (pipetka hajmi) da.

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. 0,050 n 255,0 ml NaOH eritmasini tayyorlash uchun 5 % li eritmasidan necha ml olish kerak?
2. Titri 0,003556 gr/ml bo'lgan 2,0 l eritma tayyorlash uchun zichligi 1,179 gr/ml bo'lgan HCl eritmasidan qancha olish kerak?
3. Sulfat kislotaning 180 ml 2,5 M va 300 ml 4,0 M eritmalarini aralashdirildi. Hosil bo'lgan eritmaning molyar konsentratsiyasini hisoblang.
4. 200 ml 0,20 n eritma tayyorlash uchun  $d = 1,307 \text{ g/sm}^3$  bo'lgan 40 % li  $H_2SO_4$  eritmasidan necha millilitr olish kerak?
5. KOH ning 0,2 n eritmasidan 500 ml tayyorlash uchun tarkibida 20% suv bo'lgan KOH dan necha gramm kerak?
6. Zichligi  $1,825 \text{ g/sm}^3$  ga teng bo'lgan 92 % li  $H_2SO_4$  eritmasining normalligini, titrini va molyarligini hisoblang.

### **Laboratoriya mashg'uloti**

**Suvning karbonatli qattiqligini aniqlash.**

Mashg‘ulotning maqsadi:

Suvning karbonatli qattiqligini aniqlash reaksiyalarini bajarish uchun amaliy ko‘nikmalar hosil qilish;

Suvning qattiqligini hisoblashni o‘rganish;

Maqsadni amalgalash uchun berilgan vazifalar:

- Suvning karbonatli qattiqligini aniqlashga oid analistik reaksiyalarini bajara bilish;
- Suvning karbonatli qattiqligini aniqlash uchun tegishli sharoitni hosil qila bilish va indikator tanlash;

Mustaqil tayyorlanish uchun vazifalar:

1. Suvning karbonatli va doimiy qattiqligi
2. Suvning qattiqligini yo’qotish usullari

*Kerakli asbob – uskuna va reaktivlar:*

- 1) shtativ;
- 2) 25,00 ml li byuretka;
- 3) konussimon kolba
- 4) metiloranj in
- 5) qora erioxrom T;
- 6) amiakli bufer eritma.
- 7) 0,1n NaOH
- 8) 0,1n HCl

Suvning qattiqligi unda kalsiy va magniyning eruvchan tuzlari mavjudligi bilan belgilanadi. Bu tuzlarning xiliga qarab suvning qattiqligi karbonatli (muvaqqat) va doimiy qattiqlikka bo’linadi.

Suvning karbonatli qattiqligi undagi kalsiy va magniy bikarbonatlar miqdori bilan belgilanadi. Agar tarkibida bunday tuzlar bo’lgan suv qaynatilsa, ular o’rta tuz cho’kmalarini hosil qilish bilan parchalanadi va suvning qattiqligi yo’qoladi:





Shu sababli suvning karbonatli qattiqligi muvaqqat qattiqlik deb ham yuritiladi. Suv qaynatiladigan idishlarda quyqa hosil bo'lishi ana shunday cho'kmalarning hosil bo'lishidandir.

Suvning doimiy qattiqligi kalsiy va magniyning suvda erigan boshqa xil tuzlari (sulfatlari va xloridlari) miqdori bilan belgilanadi. Suvning doimiy qattiqligi suv qaynatilganda yo'qolmaydi. Suvning doimiy va muvaqqat qattiqligi yig'indisi uning *umumiyligini* tashkil etadi.

Suvning qattiqligini 11 suvda erigan kalsiy va magniy tuzlarining milligramm-ekvivalent miqdori bilan ifodalash qabul qilingan.

Suvning karbonatli qattiqligini aniqlashda ma'lum hajmdagi suv metiloranj indikatori ishtirokida xlorid kislota bilan titrlanadi. Bunda quyidagicha reaksiya sodir bo'ladi.



**Ishning bajarilish tartibi:** Konussimon kolbaga pipetka yordamida tekshiriladigan suvdan 50 yoki 100 ml solinadi. Unga 2-3tomchi metiloranj qo'shib, HCl eritmasi bilan titrlanadi. Tekshirishni 2-3 marta takrorlab, bir-biriga mos keladigan raqamlarning o'rtacha arifmetik qiymati olinadi.

Karbonatli qattiqlikning nechaga tengligini bilish uchun 11 suvga to'g'ri keluvchi karbonatlarning mg-ekv larini hisoblash yo'li bilan tuzlarning normal konsentratsiyasi hisoblanadi va olingan natija 1000ga ko'paytiriladi:

$$K = \frac{V(HCl) \cdot N(HCl) \cdot 1000}{V_{H_2O}}$$

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Suvning umumiyligini haqida ma'lumot bering.
2. Suvning karbonatli qattiqligi va uni yo'qotish usullari haqida ma'lumot bering.

3. 55,00 ml suvni titrlash uchun 0,5550 n "Trilon B" eritmasidan 4,00 ml sarflandi. Suvning qattiqligini hisoblang.

4. Suvning qattiqligi 9,0 mg-ekv/l. ga teng. Shu suvning 88,00 ml ni titrlash uchun 0,05550 n "Trilon B" eritmasidan necha ml sarflanadi?

**Laboratoriya mashg'uloti**  
**Permanganatometrik usulda ishchi eritma tayyorlash va uni**  
**konsentratsiyasini aniqlash**

**Mashg'ulotning maqsadi:**

Permanganatometrik usulda ishchi eritma tayyorlash va uni konsentratsiyasini aniqlash reaksiyalarini bajarishni o'rghanish;

Permanganatometriya usuliga doir masalalar yechish;

**Mavzuning ahamiyati:**

Mashg'ulot natijasida orttirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar quyidagi mavzularni o'zlashtirish uchun kerak bo'ladi.

Maqsadni amalga oshirmoq uchun belgilangan vazifalar

Bilish kerak:

Titrimetrik (hajmiy) analizga xarakterli reaksiyalarni bajarish va ishchi eritma tayyorlab bilish;

Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. Hajmiy analizning oksidlanish-qaytarilish usullari va ularning mohiyati.

2. Oksidlanish-qaytarilish potensiali, unga ta'sir etuvchi omillar.

3. Nernst tenglamasi, undagi barcha qiymatlarga izoh.

Laboratoriya ishi:

Kerakli asbob – uskunalar va reaktivlar:

1) Shtativ;


- 2) 25,00 ml li byuretka ;
- 3) 10 va 20 ml li silindr;
- 4) 100,0 ml. li o'lchov kolbasi;
- 5) 5,00 ml li pipetka;
- 6) 0,1000 n  $H_2C_2O_4$  ning standart eritmasi;
- 7) 5 % li  $KMnO_4$  eritmasi.

Permanganatometrik usulda ishchi eritma tayyorlash va uni konsentratsiyasini aniqlash

Bu usul moddalar miqdorini permanganat ioni  $MnO_4^-$  bilan oksidlash reaksiyasi yordamida aniqlashga asoslangan. Permanganat ioni kislotali, ishqoriy va neytral muhitda qaytaruvchilar bilan reaksiyaga kirishadi.

Kaliy permanganatni kislotali muhitda qaytarilishi.

Masalan:






Bu reaksiyada  $KMnO_4$  ning molyar ekvivalent massasi  $M_{(KMnO_4)} = M/n = M(KMnO_4)/5 = 158,04/5 = 31,61$  g/ekv ga teng.

$FeSO_4$  ning molyar ekvivalent massasi  $M(FeSO_4):1 = 55,85$  g/ekv ga teng.

Kaliy permanganatni neytral yoki kuchsiz ishqoriy muhitda qaytarilishi.




Masalan:



Bu reaksiyada  $KMnO_4$  molyar ekvivalent massasi  $M (KMnO_4):3 = 158,04:3 = 52,68$  g-ekv.  $FeSO_4$  molyar ekvivalent massasi  $M(FeSO_4):1 = 55,85$  g-ekv.

*Kaliy permanganatni ishqoriy muhitda qaytarilishi.*

Masalan:



Elektron tenglamaga ko'ra  $FeSO_4$  va  $KMnO_4$  molyar ekvivalent massasi molekulyar massalariga teng.  $M(FeSO_4):I=55,85$ ;  $M(KMnO_4):I=158,04$

Kaliy permanganatning kislotali muhitda oksidlovchilik xossasi neytral va ishqoriy muhitga qaraganda ancha kuchli. Birinchidan, oksidlanish-qaytarilish potensiallari orasidagi farqning qiymati

$$E_{MnO_4^- + 8H^+ / Mn^{2+} + 4H_2O} = +1,51 \text{ B}, \quad E_{MnO_4^- + 2H_2O / MnO_2 + 4OH^-} = +0,59 \text{ B} \text{ katta.}$$

Ikkinchidan,  $MnO_4^-$  ionlari kislotali muhitda rangsiz  $Mn^{2+}$  ionlarigacha qaytariladi, ortiqcha  $MnO_4^-$  ion esa eritmani och pushti rangga bo'yaydi. Ekvivalent nuqtani aniqlash juda oson bo'lgani uchun permanganatomertik usul bilan bog'liq bo'lgan barcha aniqlashlar kislotali muhitda olib boriladi.

$KMnO_4$  eritmasining titrini aniqlash uchun turli hil aniqlovchi moddalardan foydalanish mumkin. Bulardan  $H_2C_2O_4 \cdot 2H_2O$ ,  $Na_2C_2O_4$ ,  $As_2O_3$ ,  $K_4[Fe(CN)_6] \cdot 3H_2O$ , temir kukuni va hokazolar. Ko'pchilik hollarda  $Na_2C_2O_4$  yoki  $H_2C_2O_4 \cdot 2H_2O$  kabi qaytaruvchilarning standart eritmasidan foydalaniladi.

*Permanganatometrik titrlash usulining ishlatalishi. Permanganatometrik titrlash usuli zavodlarning analitik kimyo laboratoriylarida, ilmiy tekshirish va o'quv laboratoriylarida keng qo'llaniladigan oksidlanish-qaytarilish usullaridan biridir. Permanganatometrik usul bilan turli xil organik va anorganik moddalarni aniqlash mumkin:*

Masalan: qaytaruvchilar:  $Fe$ ,  $Bi$ ,  $Ag$ ,  $Cd$ ,  $Zn$ ,  $Sb$ ,  $As$ ,  $P$ ,  $Fe^{2+}$ ,  $Cr^{2+}$ ,  $Mn^{2+}$ ,  $Sn^{2+}$ ,  $Cu^+$ ,  $Ti^{3+}$ ,  $Cl^-$ ,  $Br^-$ ,  $J$ ,  $S^{2-}$ ,  $SO_3^{2-}$ ,  $SeO_3^{2-}$ ,  $S_2O_3^{2-}$ ,  $SCN^-$ ,  $CN^-$ ,  $NO_2^-$ , aldegid, mochevina, askorbin kislota, polifenollar, shakar va hokazo.

oksidlovchilar:  $Fe^{3+}$ ,  $Ce^{+4}$ ,  $V^{+5}$ ,  $Mo^{+6}$ ,  $W^{+6}$ ,  $Cr^{+6}$ ,  $MnO_2$ ,  $PbO_2$ ,  $NO_3^-$ ,  $BrO_3^-$ ,  $ClO_3^-$ ,  $JO_3^-$ , va hokazolar.

*Permanganatometrik titrlash usulining afzalligi:*

- 1) Ekvivalent nuqtani  $KMnO_4$  ning ortiqcha 1 tomchisini tomizib eritmani pushti rangga kirishiga qarab bilish mumkin (to'g'ri titrlashda)
- 2) Titrlashni kislotali yoki ishqoriy muhitda olib borish mumkin.
- 3)  $KMnO_4$  oksidlanish - qaytarilish potensialining yuqori ( $E_{MnO_4^- + 8H^+ / Mn^{2+} + 4H_2O} = +1,51\text{ V}$ ) bo'lganligi sababli kuchsiz oksidlovchilar yordamida aniqlab bo'lmaydigan moddalarni ham bu usul bilan aniqlash mumkin
- 4)  $KMnO_4$  arzon va qulay reaktiv
- 5) Oksidlanish-qaytarilish xossasiga ega bo'lмаган moddalarni ham aniqlash mumkin.


*Permanganatometrik titrlash usulining kamchiliklari:*

- 1) Boshlang'ich  $KMnO_4$  eritmasini olish qiyin.
- 2)  $KMnO_4$  vaqt o'tishi bilan o'zini titrini o'zgartiradi, shuning uchun ishlatishtdan oldin,  $KMnO_4$  ni titri aniqlanishi kerak.
- 3) Permanganatometrik usulni  $Cl^-$  ionlari bilan birgalikda olib borilmaydi, chunki  $2Cl^- \xrightarrow{-2e} Cl_2^0$  oksidlanadi.
- 4) Permanganatometrik titrlashni xona haroratida olib borilganda reaksiya sekin boradi, shuning uchun qizdirish talab qilinadi.

### **1- ish. $KMnO_4$ ning ishchi eritmasini tayyorlash va titrini aniqlash.**

*$KMnO_4$  ning ishchi eritmasini tayyorlash.* Quruq  $KMnO_4$  tuzi toza bo'lmaydi, uning tarkibida qaytarilgan  $MnO_2$  bo'ladi. Ba'zi holda tayyorlangan eritmasi ham chang bilan birga suvga tushgan qaytaruvchilar ( $NH_3$ , organik moddalar) ta'siridan oson buziladi. Natijada, tayyorlangan  $KMnO_4$  eritmasining konsentrasiyasi bir oz o'zgaradi. Demak,  $KMnO_4$  ning standart eritmasini quruq tuzdan aniq miqdorda tortib olish bilan tayyorlab bo'lmaydi. Shuning uchun laboratoriyada oldindan (8-10 kun oldin) tayyorlab qo'yiladi (5% li). Eritma  $MnO_2$

cho'kmasidan ajratib tashlanadi, aks holda u katalizator sifatida  $KMnO_4$  ning parchalanishini tezlashtiradi. Tayyorlangan eritma qorong'i joyda yoki qora shisha idishlarda saqlanishi kerak.  $KMnO_4$  ning parchalanish reaksiyasi yorug'lik ta'sirida tezlashadi.



$KMnO_4$  ning ishchi eritmasini laboratoriyada bo'lgan 5 % li eritmada 0,1 n 100,0 ml eritma tayyorlang.

$$m = \frac{\Theta \cdot N \cdot V}{1000}$$

$KMnO_4$  ning kislotali muhitda molyar ekvivalent massasi 31,61 grammga tengligini bilib,

$$m = \frac{31,61 \cdot 0,1 \cdot 100}{1000} = 0,3161 \text{ g}$$

$$100 \text{ gr eritmada} \rightarrow 5 \text{ gr } KMnO_4$$

$$x \rightarrow 0,3161 \text{ g } KMnO_4$$

$$x = \frac{10 \cdot 0,316}{5} = 6,32 \text{ g.}$$

Eritmaning zichligi 1g/sm<sup>3</sup> ga juda yaqin bo'lgani uchun bu eritmaning 6,32 gr mi 6,32 ml ga teng.

**Ishning bajarilish tartibi:** Demak, slindr yordamida 5 % li  $KMnO_4$  eritmasidan 6,3 ml olib 100,0 ml o'lchov kolbaga quyib, kolbaning belgisigacha distillangan suv bilan suyultirib, 0,1 n.  $KMnO_4$  eritmasi tayyorlab byuretkaga quyiladi.  $KMnO_4$  ning titrini fiksanaldan yoki tortma usuli bilan aniq tayyorlangan 0,1000 n  $H_2C_2O_4 \cdot 2H_2O$  eritmasi bilan aniqlanadi. Titrlash kolbasiga 5,000 ml pipetka yordamida 0,1000 n  $H_2C_2O_4$  eritmasidan, ustiga 5 ml 10 %  $H_2SO_4$  eritmasidan silindr bilan olib quyiladi. Aralashmani 70 – 80°C gacha qizdiriladi va byuretkadagi  $KMnO_4$  eritmasidan tomchilab uzluksiz aralashtiriladi. Keyingi tomchi eritma rangsizlangandan so'ng qo'shiladi. Bu avtokatalitik reaksiya bo'lib, reaksiya uchun katalizator bo'lgan  $Mn^{2+}$  ionlarining hosil bo'lishi bilan eritma tez rangsizlanadi. Bir tomchi  $KMnO_4$  ta'siridan 1–2 minut ichida yo'qolmaydigan och pushti rang hosil bo'lguncha titrlash davom ettiriladi. Tajribani 3 marta

takrorlanadi. Olingan natijalarni jadval ko'rinishida rasmiylashtirilib, quyidagi formulalar yordamida  $KMnO_4$  ning titri hisoblanadi.

| Nº | $V_{(H_2C_2O_4)}$ , ml | $V_{(H_2SO_4)}$ , ml | $V_{(KMnO_4)}$ , ml | Indikator |
|----|------------------------|----------------------|---------------------|-----------|
| 1  | 10,00                  | 8,00                 |                     |           |
| 2  | 10,00                  | 8,00                 |                     |           |
| 3  | 10,00                  | 8,00                 |                     |           |

$$N_{KMnO_4} \cdot V_{o'r.KMnO_4} = N_{H_2C_2O_4} \cdot V_{H_2C_2O_4} \quad (1)$$

$$N_{KMnO_4} = \frac{N_{H_2C_2O_4} \cdot V_{H_2C_2O_4}}{V_{o'r.KMnO_4}}$$

$$T_{KMnO_4} = \frac{N_{KMnO_4} \cdot \vartheta_{KMnO_4}}{1000} \quad (2)$$

$$T_{KMnO_4 / H_2C_2O_4 \cdot 2H_2O} = \frac{N_{KMnO_4} \cdot \vartheta_{H_2C_2O_4 \cdot 2H_2O}}{1000} \quad (3)$$

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Permanganatometrik usulining mohiyati nimada?
2. Yodometrik usulning mohiyati. Ishchi eritmalarini tayyorlash haqida qisqacha tushuncha bering.
3. Yodometrik analiz usuli bilan qanday moddalar miqdori aniqlanadi? Bu usulda to'g'ri, teskari va o'rribosarni titrlashga misollar keltiring.
4. Titrimetrik analizda qo'llaniladigan oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari qanday talablarga javob berishi kerak?

## VAZIYATLI MASALALAR

1. Nima uchun  $KMnO_4$  ning standart eritmasini bevosita uning tuzidan tayyorlab bo'lmaydi?
2. Agar 0,07000 g "temir" simni havo kiritmasdan  $H_2SO_4$  da eritilgandan hosil bo'lgan  $FeSO_4$ , eritmasini titrlash uchun (kislotali muhitda)  $KMnO_4$  ning

0,05000 n eritmasidan 14,42 ml sarf bo'ldi. "Temir sim" tarkibidagi temirning miqdorini grammlarda va %-larda hisoblang.

**3.** Tarkibida  $MnO_2$  bo'lgan 0,2000 g ruda (kislotali muhitda) 25,00 ml  $H_2C_2O_4 \cdot 2H_2O$  bilan ishlandi. Reaksiyaga kirishmay qolgan  $H_2C_2O_4 \cdot 2H_2O$  ni titrlash uchun (kislotali muhitda)  $KMnO_4$  ning 0,2000 n eritmasi bilan teskari titrlanganda 20,00 ml sarf bo'ldi. Agar 25,00 ml  $H_2C_2O_4$  eritmasini titrlash uchun 45,00 ml  $KMnO_4$  eritmasi sarf bo'lishi ma'lum bo'lsa, rudadagi marganesning foiz miqdorini hisoblang.

**4.** Agar 25,00 ml  $CaCl_2$  eritmasiga  $(NH_4)_2C_2O_4$  0,1000 n eritmasidan 40,00 ml qo'shib, hosil bo'lgan  $CaC_2O_4$  cho'kmani ajratib olgandan so'ng reaksiyaga kirishmay qolgan ortiqcha  $(NH_4)_2C_2O_4$  ni titrlash uchun  $KMnO_4$  ning 0,0200 n eritmasidan 15,00 ml sarf bo'lsa, 250,0 millilitr  $CaCl_2$  eritmasida necha gr kalsiy bo'ladi?

### **Laboratoriya mashg'uloti**

#### **Permanganometrik usulida temirni miqdorini aniqlash ishini bajarish**

Mashg'ulotning maqsadi: Permanganometrik usulida temirni miqdorini aniqlash ishini bajarishni o'rganish.

Permanganometriya usiliga doir masalalar yechish.

Mavzuning ahmiyati:

Mashg'ulot natijasida orttirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar quyidagi mavzularni o'zlashtirish uchun kerak bo'ladi.

Maqsadni amalga oshirmoq uchun belgilangan vazifalar

Bilish kerak:  $KMnO_4$  ning ishchi eritmasini tayyorlash va titrini aniqlash.

Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1.Oksidlanish-qaytarilish usullarida ekvivalent nuqta qanday aniqlanadi?

2.Oksidimetrik titrlashda avtokatalitik reaksiyasining ahmiyati nimada?

**3.**Oksidlanish-qaytarilish indikatorlari nima? Bu indikator rangi qanday kimyoviy jarayonlar natijasida o'zgaradi?

**4.**Oksidimetrik titrlash usuli yordamida qanday moddalar miqdorini aniqlash mumkin?



Laboratoriya ishi:

*Kerakli asbob – uskuna va reaktivlar:*

- 1) Shtativ;
- 2) byuretka (25 ml.li);
- 3) slindr (20 ml.li);
- 4)  $KMnO_4$  ning ishchi eritmasi ;
- 5) Mor tuzi eritmasi;
- 6) 10 % li  $H_2SO_4$ .

### **Permangonometrik usulida temirni miqdorini aniqlash ishini bajarish**

**Ishning bajarilish tartibi:** Titrlash quyidagi reaksiyaga asoslangan.



Mor tuzi tarkibidagi temirning molyar ekvivalent massasi, atom massasi (A: 1 - 58,85 g.) ga teng. O'qituvchi tomonidan berilgan kontrol eritmaga 10-12 ml 10 %  $H_2SO_4$  qo'shiladi va yuqoridagi ishda titri aniqlangan.  $KMnO_4$  eritmasi bilan pushti rang hosil bo'lguncha titrlanadi. Olingan natijalar asosida eritmadagi temir (III) miqdori quyidagi formulalar bilan hisoblanadi.

$$1) g_{Fe} = \frac{N_{KMnO_4} \cdot V_{KMnO_4} \cdot \vartheta_{Fe}}{1000}$$

$$2) g_{Fe} = \frac{N_{KMnO_4} \cdot V_{KMnO_4} \cdot \vartheta_{Fe} \cdot V_{y.k.}}{1000 \cdot V_{pipetka}}$$

$V_{o.k.}$  – o'lchov kolbaning hajmi (o'qituvchi tomonidan berilgan kontrol eritma);

*V<sub>pipetka</sub>* – titrlash uchun olingan eritma hajmi.

### **Laboratoriya mashg'uloti**

#### **Yodometriya usulida ishchi eritmani konsentratsiyasini aniqlash va shu usul bilan ishlash. Eritmadagi misning miqdorini aniqlash**

Mashg'ulotning maqsadi:

Yodometriya usulida ishchi eritmani konsentratsiyasini aniqlash va shu usul bilan ishlashni o'rghanish.

Yodometriya usuliga doir masalalar yechish.

Mavzuning ahamiyati:

Mashg'ulot natijasida orttirilgan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar quyidagi mavzularni o'zlashtirish uchun kerak bo'ladi.

Maqsadni amalgaga oshirmoq uchun belgilangan vazifalar

Bilish kerak:

Yodometriya usulida ishchi eritmani konsentratsiyasini aniqlash va shu usul bilan ishlash.

Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. Yodometrik usulning mohiyati. Ishchi eritmalarini tayyorlash.
2. Yodometrik analiz usuli bilan qanday moddalar miqdori aniqlanadi? Bu usulda to'g'ri, teskari va o'rribbosarni titrlashga misollar keltiring.
3. Titrimetrik analizda qo'llaniladigan oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga qo'yiladigan talablar.

Laboratoriya ishi:


*Kerakli asbob – uskunalar va reaktivlar:*

- 1) analitik tarozi va toshlari;
- 2) 5,00 yoki 10,00 ml. li pipetka;
- 3) kraxmal;
- 4) 0,1n Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub> eritmasi;

- 5) shtativ;
- 6) 25,00 ml. li byuretka ;
- 7) slindr (25 ml.li);
- 8) 250 ml li o'lchov kolbasi;
- 10) 20 %  $KJ$  eritmasi;
- 11)  $J_2$  kristali;
- 12) titrlash kolbasi (konussimon 150 ml li);
- 13) 0,1 n  $Na_2S_2O_3$  eritmasi.

### **Yodometrik usul**

Yodometrik usulning asosida quyidagi reaksiyalar:



Bu usul bilan (a) reaksiya yordamida qaytaruvchilarni ( $H_2SO_3$ ,  $H_3AsO_3$ ,  $HSbO_3$  ning tuzlari, erkin  $H_2S$ ,  $SnCl_2$  va boshqalar) va (b) reaksiya yordamida oksidlovchilarni ( $Cl_2$ ,  $Br_2$ ,  $KMnO_4$ ,  $KClO_3$ ,  $H_2O_2$ ,  $Cu^{+2}$ ,  $Fe^{+3}$  va boshqalar) aniqlash mumkin.

Qattiq holdagi (kristallik) yod suvda kam eriydi. Shuning uchun standart eritma sifatida yodning  $KJ$  dagi eritmasi ishlataladi. Yod kaliy yodid eritmasida eriganda  $[J_3^-]$  kompleks ionlarini hosil qiladi.



Triyodad - yodid oksidlanish-qaytarilish juftining normal oksidlanish - qaytarilish potensiali  $E_{[J_3^-]/3J^-} = + 0,5355$  B ga,  $E_{[J_2]/2J^-} = + 0,5345$  V teng bo'lgani uchun  $J_2/2J^-$  va  $[J_3^-]/3J^-$  oksidlanish - qaytarilish juftlarining oksidlanish potensiallarini teng deb olishimiz mumkin.

Yodometrik aniqlashda boradigan reaksiyaning asosiy tenglamasini quyidagicha ifodalash mumkin:




Bu reaksiyada sistemaning oksidlanish potensiali vodorod ionlarining konsentratsiyasiga bog'liq emas.

Ammo tarkibida kislorod tutgan moddalar  $J_2$  yoki  $[2J^-]$  bilan vodorod ionlari ishtirokida reaksiyaga kirishib neytral suv molekulasi hosil bo'ladi.




Bunday hollarda esa sistemaning oksidlanish-qaytarilish potensiali eritmadagi  $[H^+]$  ionlariga bog'liq bo'ladi.

Qaytaruvchilarni aniqlash: Agar natriy tiosulfat ( $Na_2S_2O_3$ ) eritmasiga erkin yod ta'sir ettirilsa, quyidagi reaksiya sodir bo'ladi:



Reaksiya natijasida natriy tetratyonat deb ataladigan  $Na_2S_4O_6$  birikma hosil bo'ladi. Bu reaksiya yodometrik usulning muhim reaksiyasi bo'lib, ionli shaklda quyidagicha yoziladi:



Natriy tiosulfatning molyar-ekvivalenti 248,2 Ch 2:2=248,2 g. ga teng ( $Na_2S_2O_3 \cdot 5H_2O$  formulaga muvofiq). Yodning molyar-ekvivalenti uning molyar-massasiga teng.  $Na_2S_2O_3$  ning titrlash uchun olingan hamma eritmasi titrlanib bo'lganda, titrlanayotgan suyuqlik bir tomchi yod eritmasi qo'shilishi bilan och sariq tusga kiradi. Demak, bu holda ham xuddi xromatometrik va permanganatometrikdag'i kabi indikator ishlatmay turib titrlash mumkin. Lekin yodning titrlash oxirida namayon bo'ladigan rangi bilinar-bilinmas bo'lishi sababli ekvivalent nuqtaning aniqlanishini qiyinlashtiradi. Shuning uchun indikator sifatida yod uchun nihoyatda sezgir reaktiv-kraxmal eritmasi ishlatiladi. Ma'lumki, kraxmal yod bilan birikib, ko'k tusli adsorbsion birikma hosil qiladi, kraxmal eritmasidan foydalanilganda, titrlash oxirida suyuqlikka yod eritmasidan ortiqcha bir tomchi qo'shish bilan u ko'k tusga kiradi, natijada titrlashning oxirgi nuqtasi aniqlanadi.

### **Yodometrik titrlash usulining afzalliklari:**

1. Yodometrik usul bilan ko'pgina  $J_2$  va  $J^-$  bilan reaksiyaga kirishmaydigan moddalarni aniqlash mumkin: Masalan:  $H_2O$  ni Fisher usuli bilan.
- 1.Boshqa oksidlanish-qaytarilish usullariga nisbatan aniqligi katta.

2.J<sub>2</sub> o'ziga xos rangga ega bo'lganligi sababli ekvivalent nuqtani indikatorsiz ham aniqlash mumkin.

3.J<sub>2</sub> suvli eritmadan tashqari organik erituvchilarda yaxshi eriydi. Shu sababli titrlashni suvsiz eritmalarda ham olib borish mumkin.

### **Yodometrik titrlash usulining kamchiliklari:**

1.J<sub>2</sub> uchuvchan.



3. Yodometrik titrlash usulini ishqoriy muhitda olib borilmaydi, chunki disproporsiyalanish reaksiyasi boradi.

4. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyasi sekin boradi.

5. Reaksiya natijasida hosil bo'lgan cho'kma yoki boshqa aktiv moddalarda J<sub>2</sub> adsorbsiyalanadi.

6. J<sub>2</sub> va Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub> eritmalari vaqt o'tishi bilan titrini o'zgartiradi.

### **1-ish. Yodometrik titrlashda standart va ishchi eritmalarni tayyorlash.**


*Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub> ning ishchi eritmasini tayyorlash.* Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub> ning titrlangan eritmasini ayrim sabablarga ko'ra tortim usuli bilan tayyorlab bo'lmaydi.

1. Chunki tiosulfat dastlabki moddalarga qo'yilgan talablarga javob bermaydi. Aksariyat hollarda suvda erigan karbonat kislotasi bilan quyidagi tenglamaga muvofiq reaksiyaga kirishadi:



Natijada uning konsentratsiyasi o'zgaradi. Shuning uchun Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub> eritmasining titri 8-10 kundan keyin aniqlanadi.

2. Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub> havodagi kislorod bilan oksidlanadi.



3. Xuddi shunday Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub> eritmasining konsentratsiyasi mikroorganizmlar ta'sirida ham o'zgaradi.

Demak, Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub> ning titri vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradi. Shuning uchun uning titrini ishlatalishdan oldin tekshirib turish kerak.

$Na_2S_2O_3$  ning molyar– ekvivalent massasi 248,2 gr ekanligini bilib, 0,050 n 250,0 ml eritmasidan tayyorlash uchun:


$$m = \frac{N \cdot \mathcal{E} \cdot V}{1000} = \frac{0,05 \cdot 248,2 \cdot 250}{1000} = 3,1020 \text{ g}$$

3,5 g  $Na_2S_2O_3$  texnokimyoviy tarozida tortib, 250 ml o'lchov kolbasiga eritib, belgisigacha distillangan suv quyib eritma tayyorlanadi.

Yod eritmasini tayyorlash. Yodning molyar– ekvivalent massasi, gramm – atomiga, ya`ni  $126,9 = 127$  g teng 0,050 n 250,0 ml yodning eritmasini tayyorlash uchun:

$$m = \frac{N \cdot \mathcal{E} \cdot V}{1000} = \frac{0,05 \cdot 127 \cdot 250}{1000} = 1,587 \text{ gr. } J_2 \text{ kerak bo'ladi.}$$

Yodning suvda yomon erishini bilgan holda, yodni KJ ning to'yingan eritmasida (2-3 g KJ ozgina suvda) eritiladi, bunda quyidagi tenglamaga muvofiq qizil – qo'ng'ir tusli va suvda eruvchan kompleks birik  $K[J_3]$  hosil bo'ladi:



*Kraxmal eritmasini tayyorlash:*

~ 0,5 g kraxmal 50 ml suvda eritilib 100 ml qaynoq suvgaga aralashtiriladi va shaffof eritma hosil bo'lguncha qaynatiladi. Eritma sovutilib indikator sifatida ishlatiladi.

$K_2Cr_2O_7$  ning standart eritmasini tayyorlash.  $K_2Cr_2O_7$  barqaror, boshlang'ich moddalarga qo'yilgan talablarga javob bergenligi sababli molyar ekvivalent massasi 294,  $18 : 6 = 49,03$  g ga teng bo'lgan 0,05000 n. 250,0 ml  $K_2Cr_2O_7$  eritmasini tayyorlash uchun qayta kristallangan  $K_2Cr_2O_7$  dan

$$m = \frac{N \cdot \mathcal{E} \cdot V}{1000} = \frac{0,05 \cdot 49,06 \cdot 250}{1000} = 0,6128 \text{ g.}$$

analitik tarozida tortib olinadi 250,0 ml o'lchov kolbasida eritib tayyorlanadi.

$Na_2S_2O_3$  ning titrini aniqlash. Yuqorida tayyorlangan  $Na_2S_2O_3$  ning 0,050 n eritmasi byuretkaga quyiladi. Konussimon katta kolbaga yodning KJ dagi eritmasidan slindrda 5-7 ml o'lchab olinadi. Ustiga  $H_2SO_4$  ning 0,050 n eritmasi

byuretkaga quyiladi. Konussimon katta kolbaga yodning KJ dagi eritmasidan slindrda 5-7 ml o'lchab olinadi. Ustiga  $K_2Cr_2O_7$  ning standart eritmasidan 25 ml olib quyiladi va yod uchib ketishining oldini olish uchun kolbaning og'zini soat oynasi bilan bekitilib, aralashma reaksiya tugaguncha, ya'ni 5 minut qorong'u joyga qo'yiladi.


Bundan keyin soat oynasi olinib, u distillangan suv bilan aralashma ustida chayiladi. Kolbaga yana, 200 ml suv quyiladi, undagi eritma tiosulfat bilan titrlanadi. Eritma to'q qo'ng'ir tusdan och sariq tusga kirgandan keyin unga kraxmal eritmasidan 5 ml ga yaqin solinadi va  $Na_2S_2O_3$  eritmasining eng keyin qo'shiladigan bir tomchisi ta'siridan eritmaning ko'k tusi och yashil tusga aylanguncha titrlash davom ettiriladi. Tajribani 3 marta takrorlanadi. Olingan natijalar asosida  $Na_2S_2O_3$  ning titri hisoblanadi.

$$N_{Na_2S_2O_3} = \frac{N_{K_2Cr_2O_7} \cdot V_{K_2Cr_2O_7}}{V_{Na_2S_2O_3}}$$

$$T_{Na_2S_2O_3} = \frac{N_{Na_2S_2O_3} \cdot \vartheta_{Na_2S_2O_3}}{1000}$$

## **2- ish. Mis kuporosi tarkibidagi misni aniqlash.**

Misni yodometrik aniqlash asosida quyidagi reaksiya yotadi.



Kontrol eritma sifatida  $CuSO_4$  ning eritmasi o'qituvchi tomonidan beriladi.

**Ishning bajarilish tartibi:** Titrlash kolbasiga 20 %li KJ eritmasidan 15 ml va 2n  $H_2SO_4$  eritmasidan 2ml solib, uning ustiga kontrol eritmadan ( $CuSO_4$ ) pipetkada 25,00 ml olib quyiladi. Kolbaning og'zini soat oynasi bilan yopib, qorong'u joyga 5 minut qo'yiladi. Keyin byuretkadagi  $Na_2S_2O_3$  eritmasi bilan titrlanadi; Xuddi yuqoridagidek titrlash oxirida eritma va unga aralashgan cho'kma sariq rangga o'tganidan keyin 5 ml kraxmal eritmasi qo'shiladi. Eritmaning to'q rangi oxirgi tomchi  $Na_2S_2O_3$  eritmasi ta'siridan yo'qolib, qaytadan paydo bo'lmasligiga erishish kerak( $CuJ$  cho'kmasi aralashganligi uchun titrlash oxirida eritma biroz sarg'ish tusda bo'ladi);

Eritmaning o'ta titrlanmaganligiga to'liq ishonch hosil qilish uchun byuretkadan qancha  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  sarflanganligini yozib olgandan so'ng eritmaga bir tomchi  $\text{CuSO}_4$  eritmasidan soling. Agar eritma o'ta titrlangan bo'lsa, barqaror ko'k rang hosil bo'ladi.

Aniq titrlash 2-3marta takrorlanadi, bir-biriga mos keluvchi natijalardan o'rtacha qiymat olinadi.

$$Q_{Cu(ep)} = \frac{\mathcal{E}_{Cu} \cdot N_{\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3} \cdot V_{\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3}}{1000}$$

### **NAZORAT SAVOLLARI**

**1.** 0,1150 g ximiyaviy toza  $\text{K}_2\text{Cr}_2\text{O}_7$  saqlagan eritmaga kislotali sharoitda KJ qo'shilgan. Ajralib chiqqan yodni titrlash uchun 24,80 ml  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  sarf bo'lgan.  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  ni titrini hisoblang.

**2.** 0,8432 g  $\text{Na}_2\text{S}$  saqlagan 200,00 ml eritmaning, 20,00 ml ni titrlashda 14,42 ml 0,1000 n yod eritmasidan sarf bo'lgan.  $\text{Na}_2\text{S}$  ning % miqdorini hisoblang.

**3.** 3,7900 g  $\text{FeCl}_3$  saqlagan 250,00 ml eritmaning, 25,00 ml ga kislotali muhitda KJ qo'shildi. Ajralib chiqqan yod 32,10 ml 0,1 n  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  eritmasi bilan titrlandi.  $\text{FeCl}_3$  ning % miqdorini hisoblang.

**4.** 500,00 ml 0,02000 m eritmada necha gr  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  borligini va eritmaning yod bo'yicha titrini hisoblang.

**5.** 10,00 ml yod eritmasini titrlash uchun 13,00 ml 0,2660 n  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  sarflandi. Yod eritmasining normalligini va eritmaning  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  bo'yicha titrini hisoblang.

### **Laboratoriya mashg'uloti**

#### **Komplekszonometriya usulida ichimlik suvining umumiy qattiqligini aniqlash.**

Mashg'ulotning maqsadi:

Kompleksonometriya usulida ichimlik suvining umumiyligini aniqlashni o‘rganish.

Kompleksonometriya usuliga doir masalalar yechish.

Mavzuning ahamiyati:

Mashg‘ulot natijasida orttirilgan nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar quyidagi mavzularni o‘zlashtirish uchun kerak bo‘ladi.

Maqsadni amalgaga oshirmoq uchun belgilangan vazifalar

Bilish kerak:

Kompleksonometriya usulida ichimlik suvining umumiyligini aniqlash, titrlashda ishlataladigan indikatorlar, ekvivalent nuqtani aniqlash.

Mustaqil tayyorlash uchun savollar

1. Cho’ktirish usulining mohiyati.
2. Cho’ktirish usulida ekvivalent nuqtani aniqlash.
3. Kompleksonlar haqida tushuncha.

Laboratoriya ishi:

*Kerakli asbob – uskuna va reaktivlar:*


- 1) shtativ;
- 2) 25,00 ml li byuretka;
- 3) 0,1000 n Trilon B eritmasi;
- 4) 3 dona 100 ml titrlash kolbasi;
- 5) qora erioxrom T;
- 6) amiakli bufer eritma.

### **Kompleks hosil qilish usuli**

Kompleks hosil qilish usullari kompleks hosil qilish reaksiyalarining qo’llanishishiga asoslangan.

Masalan: Kompleks hosil qilish usulini qo'llab, kompleks hosil qilishga moyil bo'lgan kationlarni ( $Ag^+$ ,  $Mg^{2+}$ ,  $Al^{3+}$ ,  $Fe^{3+}$ ,  $Ca^{2+}$ ,  $Ni^{2+}$ ) va anionlarni ( $CN^-$ ,  $F^-$ ,  $Cl^-$  va hokazo) miqdorini aniqlash mumkin.

Oxirgi yillarda ko'pchilik kationlar bilan kompleks hosil qiladigan organik moddalar keng yoyildi. Bu moddalar kompleksonlar deyiladi. Ulardan eng muhimi ko'p sonli kationlarni aniqlash uchun ishlatiladigan "Trilon B" (etilendiamintetrasirka kislotaning ikki natriyli tuzi) dir. "Trilon B" ning ishchi eritmasi yordamida suvning umumiy qattiqligini aniqlash mumkin. Kompleksonlar ba`zi aminopolikarbon kislotalar yoki ularning tuzlaridir. Etilendiamintetrasirka kislota (EDTA) va uning tuzi – etilendiamintetrasirka kislotaning ikki natriyli tuzi (Trilon-B) turli kationlarni aniqlashda ishlatiladigan kompleksdir (komplekson-III): Uning formulasi:



Suvning qattiqligi, 1,0 1 suvda bo'lgan kalsiy va magniy ionlarining milligramm - ekvivalent miqdori bilan ifodalanadi. Suv tarkibidagi  $Ca^{2+}$  va  $Mg^{2+}$  ionlari kompleksonlar bilan barqaror kompleks birikmalar hosil qiladi. Shuning uchun suvning qattiqligini kompleksonometrik usul bilan aniqlash juda qulay.

**Ishning bajarilish tartibi:** Titrlash kolbasiga 50,00 ml analiz qilinadigan suv, 5 ml amiakli bufer aralashma qo'shiladi. Unga 20-30 mg atrofida quruq qora erioxrom T (NaCl yoki KCl bilan aralashmasi) solinadi va titri aniqlangan byuretkadagi trilon B eritmasi bilan eritma to'q (vino) qizil rangi ko'k rangga o'tguncha titrlanadi. Titrlashni 3-4 marta takrorlanadi, olingan analiz natijalarini 20-jadval ko'rinishida rasmiylashtiriladi.

#### 20-jadval

| Nº | $V_{H_2O}$ , ml | $V_{T.B.}$ , ml | Indikator       |
|----|-----------------|-----------------|-----------------|
| 1. | 50,00           |                 | Qora erioxrom T |

|    |       |  |  |
|----|-------|--|--|
| 2. | 50,00 |  |  |
| 3. | 50,00 |  |  |

Aniqlash natijalarini quyidagi formula asosida hisoblang.

$$K = \frac{N_{T.B.} \cdot V_{T.B.}^{yp} \cdot 1000}{V_{H_2O}}$$

bunda

K – suvning qattiqligi, mg-ekv/l

### **NAZORAT SAVOLLARI**

1. Kompleks hosil qilish usulining mohiyati nimada?
2. Metalloxrom indikatorlari nima?
3. 1,5 1 0,02000 n eritma tayyorlash uchun "Trilon B" dan necha g olish kerak?
4. 20,00 ml "Trilon B" eritmasini titrlash uchun 0,1120 n.  $ZnSO_4$  eritmasidan 19,50 ml sarflandi. "Trilon B" eritmasining normalligi va titrini hisoblang.
5. 1,3250 g quritilgan  $CaCO_3$  250,0 ml li o'lchov kolbasida eritildi. Tayyorlangan eritmaning 25,00 ml ni titrlash uchun 26,47 ml "Trilon B" eritmasi sarf bo'ldi. "Trilon B" eritmasini kalsiy bo'yicha titrini va normal konsentatsiyasini hisoblang.
6. 100,00 ml suv "qora xromogen T" indikatori ko'k rangga kirdguncha 0,1012 n 19,20 ml "Trilon B" eritmasi bilan titrlandi. Magniyning suvdagi konsentatsiyasini mg ekv/l-da hisoblang.

### **MASALALAR YECHISHNI O'RGANAMIZ**

#### **Analitik reaksiyalarning seziluvchanligi**

Sifat analizida analitik reaksiyalarning seziluvchanligi katta ahamiyatga ega. Reaksiyaning sezgirligi qancha katta bo'lsa, moddaning ochish miqdori shuncha kam bo'ladi.

Agar modda qiyin eriydigan bo'lsa, topiladigan ionning konsentratsiyasi nihoyatda oz bo'lsa, ham cho'kma tushsa, bunday reaksiyalar seziluvchan reaksiyalar deyiladi.

Reaksiyaning seziluvchanligi miqdoriy jihatdan bir-biriga bog'langan: topilish minimumi ( $m$ ), cheksiz suyultirgandagi konsentratsiya ( $S_{\text{chek.suyul.}}$ ) yoki cheksiz suyultirish chegarasi ( $V_{\text{chek.suyul.}}$ ) va cheksiz suyultirilgandagi eng kam hajm ( $V_{\min}$ ) bilan tavsiflanadi.

Topilish minimumi berilgan sharoitda reaksiyaning bajarish mumkin bo'lgan modda yoki ionning eng kam miqdori topilish minimumi mikrogrammlarda ifodalanib, grekcha  $\gamma$  (gamma) harfi bilan belgilanadi:

$$1 \text{ mkg} = 0,001 \text{ mg} = 10^{-6} \text{ g yoki } 10^{-9} \text{ kg.}$$

Masalan: Kalsiy ionini  $\text{H}_2\text{SO}_4$  bilan ta'sirlashib mikrokristall cho'kma hosil qilish reaksiyasining ochilish miniumi  $0,4 \cdot 10^{-10}$  kg.ni tashkil etdi. Demak, eritmada  $\text{Ca}^{2+}$  ionini miqdori  $0,4 \cdot 10^{-10}$  kg bo'lsa,  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ta'sirida cho'kma hosil bo'ladi, undan kam bo'lsa, cho'kma tushmaydi. Ochilish minimumi qancha kichik bo'lsa, reaksiya to'liq va tez boradi. Topilish minimumi reaksiyaning seziluvchanligini to'liq ifoda qila olmaydi, chunki eritmada tegishli modda yoki ionning faqat absolyut miqdorigina emas, balki konsentratsiyasi ham ahamiyatlidir. Shuning uchun modda (ion)ning tegishli reaksiyasi bilan topish mumkin bo'lgan eng kam konsentratsiyasini ifodalovchi kattalik cheksiz suyultirgandagi konsentratsiyadan ham foydalilanadi. Cheksiz suyultirgandagi konsentratsiya aniqlanadigan ionning massasini eng ko'p erituvchining massasiga nisbati bilan ifodalandi.  $C_{\text{chek.suyul.}}, \text{g/ml}, \text{kg/m}^3$ . Agar erituvchi suv bo'lsa, massa o'rniga hajmi olinadi. Cheksiz suyultirgan konsentratsiyaning teskari qiymati – cheksiz suyultirish chegarasi deyiladi.

U 1 kg aniqlanadigan ion qancha massa erituvchida saqlanishini ko'rsatadi ( $\text{g/ml}$ ,  $\text{kg/m}^3$ ). Cheksiz suyultirish konsentratsiyasi qancha kichik bo'lsa, cheksiz suyultirish chegarasi shuncha katta bo'ladi.

Aniqlanadigan ionni topish minimumini saqlagan eritma hajmi cheksiz suyultirilgandagi eng kam hajmi deyiladi ( $V_{\min}$ ).

Yuqoridagi kattaliklar orasida quyidagi bog'lanish mavjud:

$$m = C_{\text{чек.супол.}} * V_{\text{мин}} * 10^6, \text{мкг} \quad \text{yoki}$$

$$m = C_{\text{чек.супол.}} * V_{\text{мин}} * 10^{-3}, \text{кг} \quad (1)$$

Agar  $C_{\text{чек.супол.}}$  o'rniga  $V_{\text{чек.супол.}}$  berilgan bo'lsa,

$$m = \frac{V_{\text{мин}} * 10^6}{V_{\text{чек.супол.}}} \text{мкг} \quad \text{yoki} \quad m = \frac{V_{\text{мин}} * 10^{-3}}{V_{\text{чек.супол.}}} \text{кг} \quad (2)$$

(1) tenglamadan,

$$C_{\text{чек.супол.}} = \frac{m}{V_{\text{мин}} * 10^6} \text{с/мл} \quad \text{yoki} \quad C_{\text{чек.супол.}} = \frac{m}{V_{\text{мин}} * 10^{-3}} \text{кг/м}^3 \quad (3)$$

Agar cheksiz suyultirish chegarasi  $V_{\text{чек.супол.}}$  berilgan bo'lsa, unda  $S_{\text{чек.супол.}}$  quyidagicha hisoblanadi:

$$C_{\text{чек.супол.}} = \frac{1}{V_{\text{чек.супол.}}} (\text{с/мл}) \quad \text{yoki} \quad C_{\text{чек.супол.}} = \frac{1}{V_{\text{чек.супол.}} * 10^{-3}} (\text{кг/м}^3) \quad (4)$$

(1) va (2) tenglamadan

$$V_{\text{чек.супол.}} = \frac{V_{\text{мин}} * 10^6}{m} (\text{мл/с}) \quad \text{yoki} \quad V_{\text{чек.супол.}} = \frac{V_{\text{мин}} * 10^{3+}}{m} (\text{м}^3 / \text{кг}) \quad (5)$$

Agar cheksiz suyultirish konsentratsiyasi berilgan bo'lsa, unda  $V_{\text{чек.супол.}}$  quyidagicha hisoblanadi:

$$V_{\text{чек.супол.}} = \frac{1}{C_{\text{чек.супол.}}} (\text{мл/с}) \quad \text{yoki} \quad V_{\text{чек.супол.}} = \frac{10^{-3}}{C_{\text{чек.супол.}}} (\text{м}^3 / \text{кг})$$

Cheksiz suyultirgandagi eng kam hajm quyidagicha hisoblanadi:

$$V_{\text{мин}} = \frac{m * V_{\text{чек.супол.}}}{10^6} (\text{мл}) \quad \text{yoki} \quad V_{\text{мин}} = \frac{m * V_{\text{чек.супол.}}}{10^{12}} (\text{м}^3)$$

### Masalalar yechishga doir namunalar

**1-masala.** Alyuminiy ionnini mikrokristalloskopik ochishda cheksiz suyultirish chegarasi 150000 ml/g, eritmaning eng kam hajmi 0,06 ml bo'lsa, topish minimumini hisoblang.

Berilgan:

$$V_{\text{чек.супол.}} = 150000 \text{ ml/g}$$

$$V_{\text{мин}} = 0,06 \text{ ml}$$

$M_{min}$  - ?

Yechish.

Topish minimumi quyidagi formula asosida hisoblanadi.

$$V_{\text{нек.сюл.}} = \frac{V_{\text{мин}} * 10^6}{m_{\text{мин}}} (\text{мл} / \text{г})$$

$$m_{\text{мин.}} = \frac{V_{\text{мин}} * 1 * 10^6}{V_{\text{нек.сюл}}} = \frac{0,06 * 10^6}{150000} = \frac{6}{15} = 0,4 \text{мкг}$$

**2-masala.**  $\text{Ca}^{2+}$  ionning sulfat ionni bilan topilish minimumi 0,04 mkg.

Eritmaning cheksiz suyultirish chegarasi 1250000 ml/g. Tekshiriladigan eritmani eng kam hajmini hisoblang.

Berilgan:

$$m_{\text{мин}} = 0,04 \text{ мкг}$$

$$V_{\text{нек.сюл.}} = 1250000 \text{ мл/г}$$

$V_{\text{мин.}}$  - ?

Yechish.

Eritmaning eng kam hajmi quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$V_{\text{нек.сюл.}} = \frac{V_{\text{мин}} * 1 * 10^6}{m_{\text{мин}}}$$

$$V_{\text{мин.}} = \frac{V_{\text{нек.сюл.}} * m}{1 * 10^6} = \frac{0,04 * 1250000}{1000000} = 0,5 \text{мл}$$

**3-masala.**  $\text{Ni}^{2+}$  ionini tomchi reaksiyasi bilan aniqlashda, cheksiz suyultirish chegarasi 400000 mol/ g, eng kam hajmi 0,02 ml bo'lsa, topilish minimumini hisoblang.

Berilgan:

$$V_{\text{мин}} = 0,02 \text{ мл}$$

$$V_{\text{нек.сюл.}} = 400000 \text{ мл/г}$$

$m_{\text{мин.}}$  - ?

Yechish:

Topilish minimumini hisoblashda quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$V_{\text{чек.сюл.}} = \frac{V_{\text{мнн}} * 1 * 10^6}{m_{\text{мнн}}}$$

$$m_{\text{мнн}} = \frac{V_{\text{мнн}} * 1 * 10^6}{V_{\text{чек.сюл.}}} = \frac{0,02 * 1 * 10^6}{400000} = 0,05 \text{ мкг}$$

### **Mustaqil yechish uchun masalalar**

1. Ag<sup>+</sup> ionini xlorid kislota bilan topilish minimumi 0,1 mkg eritmaning cheksiz suyultirish chegarasi 10000 ml/g. Tekshiriladigan eritmaning eng kam hajmini hisoblang. (J. 0,001 ml)
2. Eritmada Ca<sup>2+</sup> ionini cheksiz suyultirish chegarasi 50000 ml/g Ca<sup>2+</sup> ionini oksalat ioni bilan aniqlashdagi eng kam hajm 0,03 ml. Topilish minimumini hisoblang. (J.0,6 mkg)
3. Ba<sup>2+</sup> ionini mikrokristalloskopik reaksiya asosida SO<sub>4</sub><sup>2-</sup> ioni bilan 0,001 ml eritmadan aniqlash mumkin. Eritmani cheksiz suyultirish chegarasi 20000 md/g bo'lsa, topilish minimumini hisoblang. (J.0,05 mkg)
4. Ca<sup>2+</sup> ionini ( ammoniy oksalat bilan cheksiz suyultirgandagi konsentratsiya 1:20000 g/ml, eritmani eng kam hajmi 1\*10<sup>-3</sup> ml. Shu reaksiya uchun Ca<sup>2+</sup> ionini topilish minimumini hisoblang. (J.0,05 mkg)
5. Co<sup>2+</sup> ionini pikrin kislotasi bilan cheksiz suyultirgandagi konsentratsiyasi 1:6500 g/ml, topilish minimumi 0,3 mkg bo'lsa, eritmaning eng kam hajmini hisoblang. (J.0,002 ml)
6. Bi<sup>3+</sup> ionini β-naftalamin bilan topilish minimumi 1 mkg. Vismut tuzi eritmasining eng kam hajmi 0,001 ml. Tekshiriladigan eritmaning cheksiz suyultirgandagi konsentratsiyasini va cheksiz suyultirgandagi hajmini hisoblang. (J.1:1000 g/ml; 1000 ml/g)
7. Cu<sup>2+</sup> ionini mikrokristalloskopik reaksiya bilan K<sub>2</sub>PbCu(NO<sub>2</sub>)<sub>6</sub> ko'rinishida o'rghanishda tomchida topilish minimumi 0,03 mkg, hajmi 0,001 ml. Cheksiz suyultirishdagi konsentratsiyani hisoblang. (J.1:33000 g/ml)

8. Noma'lum ionini tomchi reaksiyasi bilan alizarin yordamida cho'ktirishda topilish minimumi 0,15 mkg, cheksiz suyultirish chegarasi 333000 ml/g. Eng kam eritma hajmini hisoblang.

9. Fe<sup>2+</sup> ionini Chugaev reaktivи bilan ochishda eng kam hajm 0,05 ml cheksiz suyultirish chegarasi 125000 ml/g bo'lsa, topilish minimumini hisoblang.

10. Ca<sup>2+</sup> ionini kalsiy oksalat holida cho'ktirish reaksiyasi uchun cheksiz suyultirish chegarasi 2000 ml/g topilish minimumi 25 mkg bo'lsa, sifat reaksiyasini bajarish uchun zarur bo'lgan eng kam eritma hajmini hisoblang.

11. Ni<sup>2+</sup> ionini dimetilglioksim bilan topilish minimumi 0,16 mkg cheksiz suyultirish chegarasi 300000 ml/ g bo'lsa, eng kam eritma hajmini hisoblang. (J.0,05 ml)

12. 0,05 ml Cu<sup>2+</sup> ionini topilish minimumi 0,2 mkg bo'lsa, eritmani cheksiz suyultirish chegarasini hisoblang.

### **Eritma konsentratsiyasini ifodalash usullari**

Analitik kimyoda hamma vaqt aniq konsentratsiyadagi eritmalar dan foydalaniadi. Konsentratsiya eritmada erituvchi va erigan modda qanday nisbatlarda bo'lishini ifodalaydi. Eritmalar tayyorlash usuli va konsentratsiyalarining o'lchov birligiga qarab miqdoriy va hajmiy konsentratsiyalarga bo'linadi:

Miqdoriy konsentratsiya o'z navbatida foizli va molyal konsentratsiyaga ajratilgan. a) Foizli konsentratsiya - 100 g yoki  $1 \cdot 10^{-2}$  kg eritmada erigan moddaning g yoki kg miqdori bilan (%) hisoblanadi, ya'ni eritmada erigan moddaning gramm massasi uning foizini bildiradi.

$$C_{\%} = \frac{m}{m + m_1} \text{ yoki } C_{\%} = \frac{m_{\text{ерган.модда}}}{m_{\text{ергумма}}} * 100\%$$

bunda, m – erigan modda miqdori, kg

$m_1$  – erituvchining miqdori, kg

Eritmalar suyuq holda bo'lgani uchun uning miqdori hajm birligida (V, ml, l, m<sup>3</sup>) ifodalanadi. Bunday hollarda eritma massasi bilan hajmi orasidagi bog'lanish m = V\*d holida yoziladi. d-eritma zichligi, g/ml; g/sm<sup>3</sup>; kg/m<sup>3</sup>.

Unda, eritmaning foiz konsentratsiyasi

$$C_{\%} = \frac{m}{V * d} * 100\%$$

b) Molyal konsentratsiya deb, 1000 g yoki 1\*10<sup>-3</sup> kg erituvchida 1 mol modda erishidan hosil bo'lgan eritmaga aytildi, ya'ni erituvchining massasi e'tiborga olinadi. U quyidagicha hisoblanadi.

$$C_m = \frac{m * 1000}{M * G}; \frac{\text{моль оол}}{\text{м}^3} \left( \frac{\text{моль оол}}{a} \right)$$

Bunda, m – erigan modda miqdori, kg;

M - erigan moddaning molekulyar massasi;

G – eritma massasi, kg.

2). Hajmiy konsentratsiya o'z navbatida molyar, normal va titr konsentratsiyaga bo'linadi.

a) Molyar konsentratsiyali eritma deb, 1000 ml yoki 1\*10<sup>-3</sup> m<sup>3</sup> eritmada bir mol modda erishidan hosil bo'lgan eritmaga aytildi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi.

$$C_m = \frac{n}{V} \text{ yoki } C_m = \frac{m}{M * V} * 1000 \frac{\mathcal{Z} - \text{молб}}{\text{м}^3}; \frac{\mathcal{K}2 - \text{молб}}{\text{м}^3}$$

Bunda, n – erigan moddaning mollar soni;

m erigan moddaning miqdori, g yoki kg;

M – erigan moddaning molekulyar massasi;

V – eritma hajmi, l, m<sup>3</sup>

b) Normal eritma deb, 1000 ml yoki 1\*10<sup>-3</sup> m<sup>3</sup> eritmada g-ekv yoki kg-ekv modda erishidan hosil bo'lgan eritmaga aytildi. U quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$C_n = \frac{n_{(\mathcal{Z}-\mathcal{E}K\mathcal{B})}}{V_{(\text{зумп})}}; n_{(\mathcal{Z}-\mathcal{E}K\mathcal{B})} = \frac{m}{\mathcal{E}}; C_n = N = \frac{m}{\mathcal{E} * M} * 1000 \frac{\mathcal{Z} - \mathcal{E}K\mathcal{B}}{\text{м}^3}; \frac{\mathcal{K}2 - \mathcal{E}K\mathcal{B}}{\text{м}^3}$$

Bunda,  $C_n$  yoki N normal konsentratsiya;

E – erigan moddaning gramm ekvivalenti;

V – eritma hajmi, ml.

v) Titr. Eritma titri deb, 1 ml yoki yo litr eritmada erigan moddaning g yoki kg larda ifodalangan miqdoriga aytiladi.

$$T = \frac{m}{V}; \frac{\varrho}{M}; \frac{\kappa\varrho}{M^3}$$

Eritmaning titri va normal konsentratsiyasi o’rtasida quyidagi bog’lanish mavjud

$$T = \frac{N * \varrho}{1000}; N = \frac{T * 1000}{\varrho} = \frac{m * 1000}{\varrho * V}$$

Ayrim paytda moddaning titri aniqlanayotgan modda bo'yicha hisoblanadi:

$$T_{A/B} = \frac{N_A * \varrho_B}{1000}$$

$T_{A/V}$  - 1 ml A moddani titplash uchun shuncha gramm V modda kerakligini ko'rsatadi.

### Masalalar yechishga doir namunalar

**1-masala.** 20 % li NaOH eritmasini tayyorlash uchun 2 mol NaOH ni qancha hajm suvgaga eritish kerak.

Berilgan:

$$S\% = 20\%$$

$$n = 2 \text{ mol}$$

$$V_{H_2O} - ?$$

Yechish. 1) 100 g eritmada 20 g NaOH va 80 g ( $d=1 \text{ g/ml}$  bo'lgani sababli 80 ml)  $H_2O$  bo'ladi.

2) 20 g NaOH da necha mol bor.

$$M_{NaOH} = 40 \text{ g/mol}$$

$$n_{NaOH} = 20/40 = 0,5 \text{ mol}$$

3) 2 mol NaOH qancha suvgaga eritilishi kerak.

$$80 \text{ g } N_2O \quad --- \quad 0,5 \text{ mol NaOH}$$

$$X \text{ g } N_2O \quad --- \quad 2 \text{ mol NaOH}$$

$$X = \frac{80 * 2}{0,5} = 320 \text{ g}$$

Demak, 20 % li eritma tayyorlash uchun 2 mol NaOH ni 320 ml N<sub>2</sub>O ga eritish kerak.

**2-masala.** 270 ml H<sub>2</sub>O 30 g NaCl eritildi. Hosil bo'lgan eritmani foiz(%) konsentratsiyasini hisoblang.

Berilgan:

$$m = 30 \text{ g} = 30 * 10^{-3} \text{ kg} = 3 * 10^{-2} \text{ kg}$$

$$\underline{V_{H_2O} = 270 \text{ ml} = 2,7 * 10^{-4} \text{ m}^3}$$

S% - ?

Yechish. Eritmani foiz(%) konsentratsiyasi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$C\% = \frac{m}{m + m_1} * 100\%; \quad d_{H_2O} = 10 \text{ ml} = 10^3 \text{ kg/m}^3$$

$$\text{bo'lgani sababli } m = d * V = 10^3 * 2,7 * 10^{-4} = 0,27 \text{ kg}$$

$$C\% = \frac{3 * 10^{-2}}{3 * 10^{-2} + 0,27} * 100\% = \frac{0,03}{0,03 + 0,27} = 10\%$$

**3-masala.** 10 % li 0,5 l HCl eritmasini tayyorlash uchun 30 % li eritmasidan necha ml olish kerak.

Berilgan:

$$V = 0,5 \text{ l} = 500 \text{ ml}$$

$$C\% = 10 \%$$

$$\underline{C\% = 30 \%}$$

V - ?

Yechish. 1) 10 % li 500 ml HCl eritmasining massasini hisoblaymiz:

$$10 \% \text{ eritmani zichligi } d = 1,05 \text{ g/ml}$$

$$d = \frac{m}{V}; m = d * V = 1,05 * 500 = 525$$

2) Shu eritmadaagi HCl ning massasini hisoblaymiz:

100 - 10 g HCl

525 - X g HCl

$$X = \frac{525 * 10}{100} = 52,5\text{g} = 52,5 * 10^{-3} \text{kg}$$

3) 52,5 g HCl 30 % eritmaning qanchasi bo'ladi?

30 % eritmaning zichligi  $d = 1,15 \text{ g/ml}$

100 - 30 g HCl

X - 52,5 g

$$X = \frac{100 * 525}{30} = 175\text{g} = 0,175 \text{kg}$$

4) 175 g HCl saqlagan 30 % eritmani hajmini hisoblaymiz:

$$V = \frac{m}{d} = \frac{175}{1,15} = 152 \text{ml} = 152 * 10^{-3} \text{m}^3 = 0,152 * 10^{-3} \text{m}^3$$

**4-masala.** 10 % li HCl eritmasining molyar konsentratsiyasini hisoblang ( $d = 1,05 \text{ g/ml}$ ).

Berilgan:

$C\% = 10 \%$

$d = 1,05 \text{ g/ml} = 1,05 * 10^{-3} \text{ kg/m}^3$

$C_m - ?$

Yechish. 1) 10 % li 1 l eritmani massasini hisoblaymiz:

$m = V * d = 1000 * 1,05 = 1050 \text{ g} = 1,05 \text{ kg}$

2) 1050 g 10 % HCl eritmasidagi HCl ning massasini hisoblaymiz:

100 --- 10 g HCl

1050 --- x g HCl

$$X = \frac{1050 * 10}{100} = 105\text{g} = 0,105 \text{kg}$$

3) Modda miqdorini «mol»larda hisoblaymiz:

$$n = \frac{m}{M} = \frac{105}{36,5} = 2,88 \text{ моль}$$

**5-masala.** 2 l 0,5 m H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> eritmasini tayyorlash uchun, 10 % li H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> dan necha ml olish kerak.

Berilgan:

$$V = 2 \text{ l} = 2000 \text{ ml}$$

$$C_m = 0,5 \text{ m}$$

$$C\% = 10 \%$$

$$V - ?$$

Yechish. 1) 2 l 0,5 m eritmada necha gramm H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> borligi hisoblanadi:

$$1 \text{ l} - 49 \text{ g H}_2\text{SO}_4 - 0,5 \text{ m}$$

$$2 \text{ l} - x \text{ g H}_2\text{SO}_4 - 0,5 \text{ m}$$

$$X = 2 * 49 = 98 \text{ g} = 0,098 \text{ kg}$$

2) 10 % eritmani qanchasida 98 g H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> bo'lishini topamiz:

$$100 \text{ g} \quad --- \quad 10 \text{ g H}_2\text{SO}_4$$

$$u \text{ g} \quad --- \quad 98 \text{ g H}_2\text{SO}_4$$

$$y = \frac{100 * 98}{10} = 980 \text{ g} = 0,980 \text{ kg}$$

3) 10 % eritmani hajmini hisoblaymiz:  $d_{H_2SO_4} = 1,07 \text{ g/ml}$

$$V = \frac{m}{d} = \frac{980}{1,07} = 916 \text{ ml}$$

**6-masala.** 5 litr 2 n H<sub>3</sub>PO<sub>4</sub> eritmasini tayyorlash uchun 30 % (d=1,18 g/ml) eritmadan qancha hajm olish kerak.

Berilgan:

$$V = 5 \text{ l} = 5 * 10^{-3} \text{ m}^3$$

$$C_n = 2 \text{ n}$$

$$C\% = 30 \%$$

$$V - ?$$

Yechish. 5 litr 2 n H<sub>3</sub>PO<sub>4</sub> eritmasida necha g-ekvivalent molyar massa bo'ladi.

$$M_{H_3PO_4} = 98 ; M_e = \frac{98}{3} = 32,66 \text{ g/mol}$$

1 l --- 32,66 g/mol H<sub>3</sub>PO<sub>4</sub>

5 l --- x g H<sub>3</sub>PO<sub>4</sub>

$$X = 5 * 2 * 32,66 = 326,6 \text{ g} = 0,3266 \text{ kg}$$

2) 326,6 g H<sub>3</sub>PO<sub>4</sub> 30 % eritmaning qancha miqdorida bo'ladi.

100 g --- 30 g H<sub>3</sub>PO<sub>4</sub>

X --- 326,6 g H<sub>3</sub>PO<sub>4</sub>

$$x = \frac{326,6 * 100}{30} = 1088 \text{ g} = 1,088 \text{ kg}$$

3) Kislota hajmini hisoblaymiz:

$$V = \frac{m}{d} = \frac{108,8}{1,18} = 922 \text{ ml} = 9,22 * 10^{-6} \text{ m}^3 = 0,922 * 10^{-3} \text{ m}^3$$

**7-masala.** Kislotali muhitda ishlatiladigan 0,5 n 2 l KMnO<sub>4</sub> eritmasini tayyorlash necha gramm KMnO<sub>4</sub> kerak bo'ladi.

Berilgan:

C<sub>n</sub> = 0,5 n

V = 2 l = 2000 ml = 2 \* 10<sup>-3</sup> m<sup>3</sup>

m - ?

Yechish. 1) KMnO<sub>4</sub> ning kislotali muhit uchun ekvivalent molyar massasini hisoblaymiz.



$$M_{\text{э}} = \frac{M}{5} = \frac{158}{5} = 31,61 \text{ g}$$

2) 0,5 n 2 l eritma tayyorlash uchun kerak bo'lgan KMnO<sub>4</sub> massasini hisoblaymiz.

$$C_n = \frac{m * 1000}{M_{\text{э}} * V}; m = \frac{C_n * M_{\text{э}} * V}{1000} = \frac{0,5 * 31,61 * 2000}{1000} = 31,61 \text{ g} = 0,0316 \text{ kg}$$

### Mustaqil yechish uchun masalalar

13. 40 g suvgaga 6 g shakar eritilgan eritmaning foiz konsentratsiyasini hisoblang.

14. 2 kg 5 % li  $\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7 \cdot 10\text{H}_2\text{O}$  eritmasini tayyorlash uchun necha gramm suvsiz  $\text{Na}_2\text{B}_4\text{O}_7$  bura olish kerak. (J.189,5 g)

15. 600 ml eritmaga 1,260 g nitrat kislota saqlagan, eritmani molyar konsentratsiyasini hisoblang. (J.0,033 m)

16. Zichligi 1,16 g/ml bo'lgan 22 % li  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasini normal konsentratsiyasini hisoblang. (J.5,2 n)

17. 10 % li  $\text{HNO}_3$  eritmasini tayyorlash uchun, 50 g 30 % li  $\text{HNO}_3$  eritmasiga qancha suv qo'shish kerak. (J.100 ml)

18. 3000 g 50 % li eritma tayyorlash uchun, 80 % li va 20 % li  $\text{H}_3\text{PO}_4$  eritmalaridan necha grammdan olish kerak. (J.1500 g dan)

19. 200 g 20 % li HC eritmasiga 100 ml suv qo'shilganda hosil bo'lgan eritmani foiz konsentratsiyasini hisoblang. (J.13,33 %)

20. 1 1 10 % li ( $d=1,07$  g/ml)  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasini tayyorlash uchun 62 % li ( $d=1,52$  g/ml) eritmadan necha millilitr olish kerak. (J.113,5 ml)

21. 200 ml 10 % li ( $d=1,05$  g/ml) va 300 ml 30 % li ( $d=1,15$  g/ml) HC eritmalarini aralashtirildi. Hosil bo'lgan eritmani foiz konsentratsiyasini hisoblang. (J.22,43 %)

22. 2 1 0,5 m nitrat kislota eritmasini tayyorlash uchun 15 % li ( $d=1,08$  g/ml) eritmadan necha millilitr olish kerak. (J.388,9 ml)

23. 2 1 0,2 m xlorid kislota eritmasini tayyorlash uchun 30 % li ( $d=1,15$  g/ml) eritmadan necha ml olish kerak. (J.42,3 ml)

24. 200 ml 20 % li ( $d=1,145$  g/ml) sulfat kislota eritmasidan necha ml 0,1000 n  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasini tayyorlash mumkin. (J.9347 ml)

25. 2 1 0,25 n  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  eritmasini tayyorlash uchun 1 m eritmasidan necha ml olish kerak. (J.250 ml)

26. 2 1 2 n  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasini tayyorlash uchun 38,6 % li ( $d=1,29$  g/ml) shu kislota eritmasidan necha millilitr olish kerak. (J.393,8 ml)

27. 1 m  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ning 50 ml da qancha molyar ekvivalent massa  $\text{H}_2\text{SO}_4$  dan saqlagan. (J.0,1g-ekv)

28. 100 ml 2 m sirka kislota eritmasini tayyorlash uchun 25 % li ( $d=1,03$  g/ml)  $\text{CH}_3\text{COOH}$  dan necha ml olish kerak. (J.46,6 ml)
29. 50 g  $\text{NaOH}$  saqlagan 250 ml eritmadan 1 M eritma tayyorlash uchun, necha ml suv qo'shish kerak. (J.1000 ml)
30. 150 ml 20 % li ( $d=1,1$  g/ml)  $\text{HCl}$  eritmasini 900 ml gacha suyultirildi. Hosil bo'lgan eritmani molyar konsentratsiyasini hisoblang. (J.1 m)
31. Kislotali muhitda oksidlovchi sifatida ishlatiladigan  $\text{KMnO}_4$  ning 200 ml 0,04 n eritmasida necha gramm  $\text{KMnO}_4$  borligini hisoblang. (J.0,253 g)
32. 250 ml suvgaga 5,3 g suvsiz  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  eritilgan. Eritmani titr va normal konsentratsiyasini hisoblang. (J.0,0212 g/ml, 0,4 n)

## **MASSALAR TA'SIRI QONUNI SIFAT ANALIZI ASOSIDIR**

### **Kuchli va kuchsiz elektrolitlar**

**Dissotsiyalanish darajasi va doimiyligi.** Ma'lumki elektrolitlar suvli eritmada har xil miqdorda ionlarga ajraladi. Erigan elektrolitning umumiyligini miqdoridan qanday qismi ionlarga ajralganini ko'rsatuvchi son *ionlanish yoki dissotsiyalanish darajasi (a)* deyiladi.

$$\alpha = (n/n_0) * 100 \%$$

n – dissotsiyalangan molekulalar soni;

$n_0$ - umumiyligini molekulalar soni

Masalan. Sirka kislotaning 0,01 m eritmasining dissotsiyalanish darajasi 0,0419 demak berilgan konsentratsiyadagi  $\text{CH}_3\text{COOH}$  4,19 % ionlarga ajraladi, 95,81 % esa ionlarga ajralmagan molekula holida bo'ladi.

Elektrolitlar ionlanish darajasiga qarab kuchli va kuchsiz bo'ladi. Kuchli elektrolitlar suvli eritmada to'liq ionlarga ajraladi. Ularga kuchli kislotalar ( $\text{HC}$ ,  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{HNO}_3$ ), ishqorlar ( $\text{NaOH}$ ,  $\text{KOH}$ ) va suvda yaxshi eriydigan tuzlarning hammasi kiradi. Kuchsiz elektrolitlarga esa kuchsiz kislota ( $\text{H}_2\text{S}$ ,  $\text{CH}_3\text{COOH}$ ,  $\text{H}_2\text{CO}_3$ ) va kuchsiz asoslar ( $\text{NH}_4\text{OH}$ ), suv va ayrim tuzlar kiradi.

Elektrolit dissotsiyalanish qaytar jarayon bo'lganligi sababli, kimiyoiy muvozanat ro'y beradi. Le-Shatele prinstitiga muvofiq, erituvchi qo'shish (ya'ni, eritmani suyultirish) bilan dissostiasiyalangan molekulalar soni oshadi, bu esa  $\alpha$ -qiymatini oshishiga olib keladi. Shuning uchun  $\alpha$  ning qiymatiga qarab elektrolitlarni kuchli va kuchsizga ajratish bir oz qiyin.

Elektrolitik dissotsiyalanish jarayonini dissotsiyalanish doimiyligi bilan tavsiflash qulay.



Moddalar massasi ta'siri qonuniga ko'ra dissotsiyalanish doimiyligi

$$K = \frac{[A^+][V^+]}{[AV]}$$

bunda,  $[A^+]$ ,  $[V^+]$ ,  $[AV]$  – komponentlarni molyar konsentratsiyasi.

Dissotsiyalanish doimiyligi faqat kuchsiz elektrolitlar uchun xarakterli bo'lib, uning qiymati ma'lumotnomalarga keltirilgan (1-jadval).

Dissotsiyalanish doimiysi va darjasи orasida quyidagi bog'lanish mavjud (Ostvaldning suyultirish qonuniga binoan). Eritmaning molyar konsentratsiyasi –  $S$ ; bitta molekula dissostiasiylanganda molyar konsentratsiya  $\alpha S$  ga teng. Unda yuqoridagi jarayon uchun,  $[A^+] = [V^+] = \alpha S$ .

$$K = \frac{\alpha C * \alpha C}{(1-\alpha)C} = \frac{\alpha}{1-\alpha}$$

$\alpha$  juda kichik bo'lganda  $1-\alpha=1$  olinadi, unda  $K = \alpha^2 S$ ;

$$\alpha = \sqrt{K/C} \text{ bo'ladi.}$$

### Masalalar yechishga doir namunalar

Bu bobdagи masalalarni yechishda quyidagi tartibga rioya qiling:

1. Kimiyoiy reaksiya tenglamani molekulyar va ionli ko'rinishda yozing;
2. Muvozanat doimiyligi ifodasini yozib, uni qiymatini, ma'lumotnomadan toping;

3. Reaksiyaga kirishayotgan moddalarning muvozanatdag'i konsentratsiyasini yoki muvozanatdag'i eng kichik konsentratsiyani x bilan belgilab kimyoviy formula tagidan yozing;
4. Muvozanat doimiyligi ifodasiga muvozanatdag'i konsentratsiyalarini quyib, ifodani soddalashtiring;
5. Hisoblashni boshlang.

### **Elektrolitik dissotsiyalanish**

**1-masala.** 1,5% li chumoli kislotaning dissotsiyalanish darajasini hisoblang.

Berilgan:

$$\underline{C = 1,5 \%}$$

$$K_{\text{diss}} - ?$$

Yechish. 1) Kislotaning molyar konsentratsiyasini hisoblaymiz.

$$C_{\text{m}} = \frac{m * 1000}{M * V}; M_{\text{HCOOH}} = 46 \text{ g/mol}; m = 1,5 \text{ g}; V = 100 \text{ mL}$$

$$C_{\text{m}} = \frac{1,5 * 1000}{46 * 100} = 3,26 * 10^{-1} \text{ моль/л}$$

2) HCOOH dissotsiyalanish tenglamasi:



Tenglamadan muvozanat doimiyligi ifodasini yozib dissotsiyalangan ionlar konsentratsiyasini hisoblaymiz:

$$K = \frac{[\text{HCOO}^-][\text{H}^+]}{[\text{HCOOH}]}$$

$$[\text{HCOO}^-] = [\text{H}^+] = X; [\text{HCOOH}] = 3,26 * 10^{-1} \text{ mol/l}$$

$K = 1,77 * 10^{-4}$ ; qiymatlarni ifodaga quysak:

$$1,77 * 10^{-4} = \frac{X * X}{3,26 * 10^{-1}};$$

$$[\text{HCOO}^-] = [\text{H}^+] = X = \sqrt{1,77 * 10^{-4} * 3,26 * 10^{-1}} = 7,7 * 10^{-3} \text{ моль/л}$$

3) Dissotsiyalanish darajasini hisoblaymiz:

$$\alpha = \frac{C_{\text{дис}}}{C_{\text{ум}}^{\text{ум}}} = \frac{7,6 \cdot 10^{-3}}{3,26 \cdot 10^{-1}} = 0,0233 \text{ foizlarda } 2,33 \%$$

**2-masala.** 3 % li sirkal kislotaning 0,6 % ionlarga ajralgan bo'lsa, dissotsiyalanish doimiyligini hisoblang.

Berilgan:

$$C_{\text{CH}_3\text{COOH}} = 3\%$$

$$\alpha_{\text{дис}} = 0,6 \%$$

$$K_{\text{дис}} - ?$$

Yechish. 1)  $\text{CH}_3\text{COOH}$  ning molyar konsentratsiyasini hisoblaymiz:


$$C = \frac{3 \cdot 1000}{60 \cdot 100} = 0,5 \text{ моль / л}$$

2) Dissostiasiyalangan ionlar konsentratsiyasini hisoblaymiz:

$$\alpha = \frac{C_{\text{дисс}}}{C_{\text{ум}}^{\text{ум}}} * 100\%$$

$$C_{\text{дисс}} = [H^+] = [CH_3\text{COO}^-] = \frac{\alpha * C_{\text{ум}}^{\text{ум}}}{100} = \frac{0,6 * 0,5}{100} = 3 * 10^{-3} \text{ г-нон/л}$$

3) Dissotsiyalanish tenglamasini yozib, dissotsiyalanish doimiyligini hisoblaymiz:



$$K = \frac{[CH_3\text{COO}^-][H^+]}{[CH_3\text{COOH}]} = \frac{[H^+]^2}{[CH_3\text{COOH}] - [CH_3\text{COO}^-]} = \frac{(3 * 10^{-3})^2}{0,5 - 0,003} = 1,8 * 10^{-5}$$

**3-masala.** 0,1 n  $\text{NH}_4\text{OH}$  ning dissotsiyalanish darajasi 4,2 % bo'lsa eritmadagi  $\text{NH}_4^+$   $\text{OH}^-$  ionlarining konsentratsiyasini eritma pHni va  $\text{NH}_4\text{OH}$  ning dissotsiyalanish doimiyligini hisoblang.

Berilgan:

$$C_{\text{NH}_4\text{OH}} = 0,1 \text{ н}$$

$$\alpha_{\text{дис}} = 4,2 \% = 0,042$$

$$[\text{OH}^-] - ?$$

$[\text{NH}_4^+]$  - ?

$K_{\text{diss}}$  - ?

Yechish. 1) Ostvaldning suyultirish qonuniga asosan,  $K = \alpha^2 S$  bu formuladan  $\text{NH}_4\text{OH}$  ning dissotsiyalanish doimiyligini hisoblaymiz.

$$K = (0,042)^2 * 0,1 = 1,76 * 10^{-4}$$

2)  $\text{NH}_4\text{OH}$  kuchsiz elektrolit bo'lganligi sababli:



Bu tenglamadan massalar ta'siri qonuniga muvofiq

$$K_{\text{diss}} = \frac{[\text{NH}_4^+][\text{OH}^-]}{[\text{NH}_4\text{OH}]}; C_{\text{NH}_4\text{OH}} = [\text{NH}_4\text{OH}]$$

bunda,

$$[\text{NH}_4^+] = [\text{OH}^-] = \sqrt{K_{\text{diss}} [\text{NH}_4\text{OH}]} = \sqrt{1,76 * 10^{-4} * 0,1} = \sqrt{1,76 * 10^{-6}} = 4,2 * 10^{-3} \text{ M}$$

Demak, eritmadi  $[\text{NH}_4^+] = [\text{OH}^-] = 4,2 * 10^{-3}$  g-ion/l ga teng.

3) Eritmaning pOH ini hisoblaymiz

$$\text{pOH} = -\log[\text{OH}^-] = \log 4,2 * 10^{-3} = \log 4,2 * 10^{-3} = 3 - 0,62 = 2,38$$

4) Eritmaning pH ini hisoblaymiz

$$\text{pH} + \text{pOH} = 14$$

$$\text{pH} = 14 - \text{pOH} = 14 - 2,38 = 11,62$$

### Aktivlik va aktivlik koefisiyenti

Kuchli elektrolitlarning kimyoviy reaksiyaga kirishish xususiyatini baholash uchun aktivlik tushunchasi kiritilgan. Ionning aktivligi ( $a$ ) deganda, uning shunday effektiv tajribada aniqlanadigan konsentratsiyasini tushunmoq kerakki, u kimyoviy reaksiyalarda ana shu konsentratsiyaga muvofiq ta'sir ko'rsatadi.

Cheksiz suyultirilgan eritmalarda aktivlik konsentratsiyaga teng:

$$a = s$$

Real eritmada ionlararo kuchning ta'siri tufayli aktivlik konsentratsiyadan kichik bo'ladi. Buni baholash uchun birinchi marta 1918-yilda Daniya olimi N.Berrum *aktivlik koefisiyenti* degan tushuncha kiritdi.

Aktivlikni ionning haqiqiy konsentratsiyasiga nisbatli *aktivlik koeffisienti* ( $f$ ) deyiladi:

$$f=a/s$$

Demak, aktivlik koeffisienti faqat eritmadagi elektrolitning konsentratsiyasiga bog'liq bo'lib qolmay, balki shu eritmadagi tashqi ionlar konsentratsiyasiga ham bog'liqdir. Shu ionlarning o'zaro ta'sir kuchini ifodalovchi kattalik *ion kuchi* qonunini 1921 yil Amerika olimlari T.N.Lyuis va M.Rendal kashf qildi. Eritmaning ion kuchi ( $\mu$ ) eritmadagi barcha ionlar konsentratsiyalarining o'sha ion zaryadlari kvadrati ko'paytmasi yig'indisining yarmiga teng, ya'ni:

$$\mu = \frac{1}{2}(C_1 Z_1^2 + C_2 Z_2^2 + \dots + C_n Z_n^2)$$

#### bu yerda

$C_1, C_2, \dots, C_n$ - eritmadagi har bir ionning konsentratsiyasi (g-ion/l);

$Z_1, Z_2, \dots, Z_n$ - ionlarning zaryadlari.

$$\text{Umumiy holda: } \mu = \frac{1}{2} \sum_{m=1}^{m-1} C_i Z_i^2$$

*Ion kuchi ortishi bilan eritmada aktivlik koeffisienti kamaya boradi.* Ammo ma'lum bir minimal qiymatga erishgandan so'ng ion kuchi ortishi bilan aktivlik koeffisienti ham orta boradi.

Suyultirilgan eritmalar uchun aktivlik koeffisienti quyidagi formula bilan hisoblanadi.

$$\mu \leq 0,016\text{Jca}, \ell qf = -0,5 * z^2 \sqrt{\mu}$$

$$\mu \leq 0,016\text{Jca}, \ell qf = \frac{-0,5 * z^2 \sqrt{\mu}}{1 + \sqrt{\mu}}$$

**4-masala.** 0,002 M CaC<sub>2</sub> eritmasidagi ionlarning aktivlik koeffisienti va aktivligini hisoblang.

Berilgan:

$$C_m = 0,002 \text{ M}$$

$$f_{Ca^{2+}} - ? \quad f_{Cl^-} - ?$$

$$a_{Ca^{2+}} - ? \quad a_{Cl^-} - ?$$

Yechish. 1)  $CaC_2$  eritmasining ion kuchini hisoblaymiz:

$$\mu = \frac{1}{2}(C_1 Z_1^2 + C_2 Z_2^2 + \dots + C_n Z_n^2) = \frac{1}{2}(0,002 * 2^2 + 0,004 * 1^2) = 0,006$$

2) Eritmadagi ionlarni aktivlik koeffisientini hisoblaymiz.

$$\ell g f = -0,5 Z^2 \sqrt{M}$$

$$\ell g f_{Ca^{2+}} = -0,5 * 2^2 \sqrt{0,0006} = -2 * 0,0775 = -0,155 = 1,845$$

Aktivlik koeffisientining antilogarifmi:  $f_{Ca^{2+}} = 0,70$

$$\ell a f_{Cl^-} = -0,6 * 1^2 * 0,006 = -0,0775 = -0,0387 = 1,9613$$

$$f_{Cl^-} = 0,915$$

3) Eritmadagi ionlarning aktivligini hisoblaymiz:

$$a_{Ca^{2+}} = f_{Ca^{2+}} * C_{Ca^{2+}} = 0,70 * 0,002 = 0,0014 = 1,4 * 10^{-3} \text{ э-ион/л.}$$

$$a_{Cl^-} = f_{Cl^-} * C_{Cl^-} = 0,915 * 0,004 = 0,00366 = 3,66 * 10^{-3} \text{ э-ион/л}$$

**5-masala.** 0,03 м ли  $Na_2SO_4$  eritmasning ion kuchini hisoblang.

Berilgan:

$$\underline{\underline{C_{Na_2SO_4} = 0,03\text{м}}}$$

$$\mu - ?$$

Yechish. Eritmaning ion kuchi quyidagi formula asosida hisoblanadi.

$$\mu = \frac{1}{2}(C_1 Z_1^2 + C_2 Z_2^2 + \dots + C_n Z_n^2)$$

Formuladagi S va Z larning o'rniga qiymatini quyib hisoblaymiz:

$$\mu = \frac{1}{2}(2 * C_{Na^+} 1^2 + C_{SO_4^{2-}} * 2^2) = \frac{1}{2}(0,06 + 0,12) = \frac{0,18}{2} = 0,09$$

**6-masala.** 0,005 м ли  $ZnSO_4$  va 0,01 м ли  $AlCl_3$  eritmasining ion kuchini va eritmadagi sulfat ionini aktivligini hisoblang.

Berilgan:

$$C_{ZnSO_4} = 0,005\text{M}$$

$$C_{AlCl_3} = 0,01\text{M}$$

$$\mu - ? \quad a_{SO_4^{2-}} - ?$$

Yechish. 1) Ion kuchini hisoblash formularsi asosida eritmani ion kuchini hisoblaymiz:

$$\mu = \frac{1}{2}(0,005*2^2 + 0,005*2^2 + 0,01*3^2 + 3*-0,01*1^2) = \frac{1}{2}(0,02 + 0,02 + 0,09 + 0,03) = \frac{0,16}{2} = 0,08$$

2)  $SO_4^{2-}$  ionini aktivligini hisoblaymiz.


$$a = c * f$$

aktivlik koeffisientining qiymatini \_\_\_\_\_ jadvaldan olamiz.

$$f = 0,47 < \text{unda } a = 0,005 * 0,47 = 0,00235 = 2,35 * 10^{-3} \text{ mol/l.}$$

### Suvning ion ko'paytmasi, vodorod ko'rsatkich (pH)

Toza suv ma'lum elektr o'tkazuvchanlik va amfoterlik xossaga ega bo'lgan kuchsiz elektrolit. Suvning ionlanishi quyidagi tenglama ko'rinishida ifodalanadi:



Tenglamani soddalashtirilgan holda yozsak  $H_2O \rightarrow H^+ + OH^-$ .

Bunga massalar ta'siri qonunini qo'llasak, suvning dissotsiyalanish doimiyligi

$$K_{H_2O} = \frac{[H^+] \cdot [OH^-]}{[H_2O]} \quad (2) \text{ kelib chiqadi.}$$

Suvning ionlanish darajasi juda kichik:  $25^\circ C$  da 1 litr suvdagi  $10^{-7}$  ta molekula ionlarga ajraladi, shuning uchun ionlarga ajralmagan molekulalar soni ionlarga ajralgan molekulalar sonidan bir necha barovar katta bo'ladi,  $K_w$  doimiy kattalik bo'lib suvning ion ko'paytmasi deyiladi.

$$K_w = K_{H_2O} * [H_2O] = [H^+] \cdot [OH^-] \quad (3)$$

$$K_{H_2O} = 1,8 * 10^{-16} - cuvning dissotsiyalanish doimiyligi$$

$$[H_2O] = C_{H_2O} - 1 \text{ suvdagi ( } 4^\circ S \text{ } 1000 \text{ sm}^3 = 1 \text{ g) mollar soni}$$

$$[H_2O] = \frac{1000}{18,015} = 55,5 \text{ моль/л}$$

u holda oxirgi tenglikdan.

$$K_w = 18 \cdot 10^{-16} \cdot 55,5 = 1 \cdot 10^{-14};$$

$$K_w = [H^+] \cdot [OH^-] = 1 \cdot 10^{-14} \quad (4)$$

(4) – tenglamadan  $[H^+]$  va  $[OH^-]$  topsak,

$$[H^+] = [OH^-] = \sqrt{K_w} = \sqrt{1 \cdot 10^{-14}} = 10^{-7}, \text{э.ион/л} \quad (5)$$

Bu tenglamadan xulosa qilish mumkinki, suvli eritmadagi  $[H^+]$  va  $[OH^-]$  konsentratsiyasining har qanday qiymatlarida ularning ko'paytmasi doimiy son bo'lib,  $1 \cdot 10^{-14}$  ga teng. Hisoblashlarda qulaylik bo'lishi uchun vodorod (pH) va gidroksil (pOH) ko'rsatkich kiritilgan. Eritmadagi vodorod ionlari konsentratsiyasining ko'rsatkichi yoki oddiygina qilib vodorod ko'rsatkich deyiladi.

$$pH = -\lg[H^+] \quad (6)$$

Xuddi shu singari  $OH^-$  ionlari ko'rsatkichi ham qabul qilgan

$$pH = -\lg[OH^-] \quad (7)$$

Umuman, har qanday eritma uchun vodorod ko'rsatkich va giroksid ko'rsatkich yig'indisi 14 ga teng.

$$pH + pOH = 14 \quad (8)$$

pH va pOH ning qiymatlari eritmaning muhitini xarakterlaydi.

Shunga ko'ra:

agar  $pH > 7$  bo'lsa, eritmaning muhiti kislotali;

agar,  $pH < 7$  bo'lsa, eritmaning muhiti ishqoriy;

agar,  $pH = pOH = 7$  bo'lsa, eritmaning muhiti neytral bo'ladi.

Vodorod ko'rsatkichning qiymati 1 dan 14 gacha qabul qilingan. Eritmadagi ionlar ko'rsatkichlaridan biri ma'lum bo'lsa ikkinchisini yuqoridagi formulalardan foydalanib topish mumkin.

### Kislota va asos eritmalarining pHini hisoblash

Kuchli kislotalarning suyultirilgan eritmalarida, ular to'liq dissostiastiyalanganligi sabab, kislota konsentratsiyasi ma'lum bo'lsa, eritma pH i oson hisoblanadi. Umumiyl holda:

$$[\text{H}^+] = C_{\text{kisl}} ; [\text{OH}^-] = K_w / C_{\text{kisl}}$$

Masalan. 0,001 m HCl eritmasini pH va pOH ini hisoblang.

$$[\text{H}^+] = 1 \cdot 10^{-3} \text{ mol/l}; \text{pH} = -\log[\text{H}^+] = \log 1 \cdot 10^{-3} = 3; \text{pOH} = 14 - 3 = 11$$

Kuchli asos (ishqoriy va ishqoriy er metallarining gidroksidlari) lar ham suyultirilgan suvli eritmada ionlarga to'liq dissostiastiyalanadi. Agar gidroksidning konsentratsiyasi ma'lum bo'lsa, pH va pOH ni hisoblash mumkin. Umumiyl holda:

$$[\text{OH}^-] = C_{\text{asos}} ; [\text{H}^+] = K_w / C_{\text{asos}}$$

Masalan. 0,025 m NaOH eritmasinip pH va pOH ini hisoblang.

$$[\text{OH}^-] = 2,3 \cdot 10^{-2}; \text{pOH} = -\log 2,3 \cdot 10^{-2} = -\log 2,3 - \log 10^{-2} = -(0,40 - 2) = 1,6;$$

$$\text{pH} = 14 - 1,6 = 12,40$$

Kuchsiz kislota va asos eritmalarini pHini hisoblashda ularning dissotsiyalanish doimiyligidan foydalaniladi. Kuchsiz kislotaning dissotsiyalanish  $\text{HAn} \leftrightarrow \text{H}^+ + \text{An}^-$

$$K_{\text{HAn}} = \frac{[\text{H}^+] \cdot [\text{An}^-]}{[\text{HAn}]}$$

$$\text{Eritmada } [\text{H}^+] = [\text{An}^-], [\text{HAn}] = C_{\text{kisl}} = S_{\text{HAn}}$$

$$\text{unda, } [\text{H}^+] = \sqrt{K_{\text{HAn}} * C_{\text{HAn}}}$$

$$-\log[\text{H}^+] = -\frac{1}{2} \log K_{\text{An}} - \frac{1}{2} \log C_{\text{HAn}}$$

$$pH = \frac{1}{2} pK - \frac{1}{2} \log C_{\text{HAn}},$$

$$\text{unda } \text{pOH} = 14 - pH = 14 - \frac{1}{2} pK_{\text{HAn}} + \frac{1}{2} \log C_{\text{HAn}}$$

Kuchsiz asos eritmalarining pHli ham xuddi yuqoridagidek hisoblanadi:



$$K_{\text{KtOH}} = \frac{[\text{Kt}^+] \cdot [\text{OH}^-]}{[\text{KtOH}]}$$

Eritmada  $\text{Kt}^+$  va  $\text{OH}^-$  ionlarining konsentratsiyasi bir xil  $[\text{Kt}^+] = [\text{OH}^-]$

$$\text{Demak, } [\text{OH}^-] = \sqrt{K_{\text{KtOH}} * C_{\text{KtOH}}}$$

$$-\log[\text{OH}^-] = -\frac{1}{2} \log K_{\text{KtOH}} - \frac{1}{2} \log C_{\text{KtOH}}$$

$$pOH = \frac{1}{2} pK_{KtOH} - \frac{1}{2} \lg C_{KtOH},$$

$$\text{unda, } pH = 14 - pOH = 14 - \frac{1}{2} pK_{KtOH} + \frac{1}{2} \lg C_{KtOH}$$


**7-masala.** 0,003 n HCl eritmasining pH qiymatini hisoblang.

Berilgan:

$$[H^+] = 0,003 \text{ n}$$

pHl - ?

Yechish. 1) HCl ning dissotsiyalanish tenglamasi yoziladi:



1-bosqich – kuchli elektrolit dissotsiyalanish. 2-bosqich kuchsiz elektrolitlarning dissotsiyalanishi kabidir. Dissotsiyalanishi qaytar jarayon bo'lganligi sababli, muvozanat qaror topganda massalar ta'siri qonuniga ko'ra muvozanat doimiyligi quyidagicha yoziladi:

$$K_{[\text{Ag}(\text{NO}_2)_2]} = \frac{a_{\text{Ag}^+} * a_{\text{NO}_2}^2}{a_{[\text{Ag}(\text{NO}_2)_2]}^-}$$

Muvozanat doimiyligi kompleks ionning dissotsiatsiyalangan doimiyligi yoki kompleksning beqarorlik doimiyligi deyiladi. Agar  $a = s$  bo'lsa,

$$K_{\delta_{\text{ekarop}}} = K_{[\text{Ag}(\text{NO}_2)_2]} = \frac{[\text{Ag}^+][\text{NO}_2^-]^2}{[\text{Ag}(\text{NO}_2)_2]^-}$$

Beqarorlik doimiyligi qancha kichik bo'lsa, kompleks birikma shuncha barqaror bo'ladi. Uning qiymatini bilgan holda kompleks birikma tarkibidagi ionlarning konsentratsiyasini hisoblab, ionlarni ochishda reaksiya yo'nalishini aniqlash mumkin.

## Masalalar yechish uchun namunalar

**1-masala.** 1 m  $[Zn(NH_3)_4]Cl_2$  eritmasidagi  $Zn^{2+}$ ,  $NH_3$  ionlarini konsentratsiyasini va kompleks ionning dissotsiyalanish darajasini hisoblang.

Yechish. 1) Kompleks ionning eritmada quyidagicha dissotsiatsiyalanadi:



2) Kompleks ionning beqarorlik doimiyligini yozamiz:

$$K_{beqaror} = \frac{[Zn^{2+}][NH_3]^4}{[Zn(NH_3)_4]^{2+}}$$

$[Zn^{2+}] = X$   $[NH_3] = 4X$  ionlarga ajralmagan ionlar konsentratsiyasi  $1 - X$  bilan ifodalanadi.

3) Beqarorlik doimiyligi formulasiga ifodalarni qo'yamiz.

$$K_{beqaror} = \frac{X * (4X)^4}{1 - X} = 2,6 * 10^{-10}$$

X 1 ga nisbatan juda kichik bo'lganligi sababli X ning qiymatini hisobga olmaymiz:

$$K = X(4X)^4 = 256X^5 = 2,6 * 10^{-10}$$

$$X = [Zn^{2+}] = \sqrt[5]{\frac{2,6 * 10^{-10}}{256}} = 3,99 * 10^{-3} \approx 4,0 * 10^{-3}$$

$$[Zn^{2+}] = 4,0 * 10^{-3} \text{ mol/l}$$

Unda ammiakning konsentratsiyasi:

$$[NH_3] = 4,0 * 10^{-3} * 4 = 16 * 10^{-3} = 1,6 * 10^{-2} \text{ mol/l}$$


4) Dissotsiyalanish darajasini hisoblaymiz

$$\alpha = \frac{C_{ducc}}{C_{yym}} = \frac{4 * 10^{-3}}{1} = 0,004$$

$$\text{Foizlarda } \alpha = 0,004 * 100 = 0,4 \%$$

**2-masala.** 0,2 m  $CuSO_4$  eritmasiga teng hajmda 2 m ammiak eritmasi qo'shildi. Eritmada  $[Cu(NH_3)_4]^{2+}$  kompleks ion hosil bo'lgan deb,  $Cu^{2+}$  ionni konsentratsiyasini hisoblang.

Yechish. 1) Kompleks ion quyidagicha dissostiastiyalanadi:



$$K_{beqaror} = \frac{[Cu^{2+}][NH_3]^4}{[Cu(NH_3)_4]^{2+}} = 9,33 \cdot 10^{-13}$$

2)  $Cu^{2+}$  ionlarining muvozanatdagi konsentratsiyasi X deb,  $[Cu(NH_3)_4]^{2+} = 0,2 - x$ . Kompleks hosil bo'lganda ammiakning konsentratsiyasi  $4*(0,2-x)$  ga kamayadi.

Muvozanatdagi konsentratsiyasi

$$2 - 4(0,2 - x) = 1,2 - 4x \text{ (mol)}$$

$$\text{Eritmada: } [Cu^{2+}] = x, \quad [Cu(NH_3)_4]^{2+} = 0,2 - x, \quad [NH_3] = 1,2 - 4x$$

3) Topilgan ifodalarni beqarorlik doimiyligi ifodasiga qo'yamiz:

$$\frac{x * (1,2 - 4x)^4}{0,2 - x} = 9,33 \cdot 10^{-13}$$

0,02 va 1,2 qiymatlari x dan katta bo'lganligi sababli

$$\frac{1,2^4 * x}{0,2} = 9,33 \cdot 10^{-13}$$

$$x = \frac{9,33 \cdot 10^{-13} * 0,2}{1,2^4} = \frac{18,66 \cdot 10^{-14}}{2,074} = 8,1 \cdot 10^{-14}$$

4) Demak, eritmada  $Cu^{2+}$  ionlari konsentratsiyasi  $8,1 \cdot 10^{-4} \text{ mol/l}$ .

Kompleks ionlarning buzilish va cho'kmalarning erishidan ularning bo'lishi kompleks ionning beqarorlik doimiyligi va qiyin eruvchanlik birikmani eruvchanlik ko'paytmasi ma'lum bo'lsa, kompleks ionni buzilishi va qiyin eruvchan birikma hosil bo'lishi to'g'risidagi masalani hal qilish mumkin.

**3-masala.** 10 ml 0,01 m  $Na[AgS_2O_3]$  tuzi eritmasiga 0,1 m KBr eritmasi qo'shilganda  $AgBr$  cho'kmasi hosil bo'ladimi?

Yechish. 1) Eritmalarni aralashtirilganda moddalarning konsentratsiyasi o'zgaradi:

$$[Na[AgS_2O_3]] = \frac{0,01 * 10}{30} = 3,3 \cdot 10^{-3} \text{ моль/л}$$

$$[KBr] = \frac{0,1 * 20}{30} = 6,66 \cdot 10^{-2} \text{ моль/л}$$

2) Kompleks ion quyidagicha dissotsiatsiyalanadi:




$$K_{\text{beqaror}} = \frac{[Aq^+][S_2O_3^{2-}]}{[AqS_2O_3]} = 1,51 \cdot 10^{-9}$$

3)  $\text{Ag}^+$  va  $\text{S}_2\text{O}_3^{2-}$  ionlarini konsentratsiyasi x teng, kompleks ionni konsentratsiyasi  $0,0033 - x$  deb ifodalaymiz unda,

$$K_{\text{beqaror}} = \frac{x \cdot x}{0,0033 - x} = \frac{x^2}{0,0033 - x} \approx \frac{x^2}{0,0033} = 1,51 \cdot 10^{-9}$$

$$x = [Aq^+] = [S_2O_3^{2-}] = \sqrt{0,0033 \cdot 1,51 \cdot 10^{-9}} = \sqrt{4,98 \cdot 10^{-12}} = 2,23 \cdot 10^{-6} \text{ mol/l}$$

4) KBr kuchli elektrolit bulib eritmada to'liq ionlarga dissotsiatsiyalanadi.



$$[\text{Br}^-] = 6,66 \cdot 10^{-2} \text{ mol/l}$$



5) AgBr eruvchanlik ko'paytmasini yozsak:

$$\text{EK}_{\text{AgBr}} = [\text{Ag}^+] [\text{Br}^-] = 2,23 \cdot 10^{-6} \cdot 6,66 \cdot 10^{-2} = 14,85 \cdot 10^{-8} = 1,48 \cdot 10^{-7}$$

Ma'lumotnomadan olingan eruvchanlik ko'paytmasining qiymati ( $\text{EK}_{\text{AgBr}} = 5,3 \cdot 10^{-13}$ ) bilan solishtirilsa,  $1,4 \cdot 10^{-7} > 5,3 \cdot 10^{-13}$  dan, demak berilgan sharoitda AgBr cho'kmaga tushadi.

**4-masala.** 0,1 g AgJ eritish uchun 1 m  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  eritmasidan necha ml kerak.

Yechish. 1) AgJ ning  $\text{Na}_2\text{S}_2\text{O}_3$  da erish jarayonini quyidagi tenglama bilan ifodalash mumkin.



2) Muvozanat doimiyligi quyidagicha yoziladi:

$$K_{\text{mybos}} = \frac{[\text{AgS}_2\text{O}_3]^- \cdot [\text{J}^-]}{[\text{S}_2\text{O}_3^{2-}]} \quad (1)$$

$$\text{EK}_{\text{AgJ}} = [\text{Ag}^+] [\text{J}^-] \text{ bunda } [\text{J}^-] = \frac{\mathcal{E}K_{\text{AgJ}}}{[\text{Ag}^+]} \quad (2)$$

(2) ni (1) chi tenglama qo'ysak,

$$K_{\text{Mybos}} = \frac{[AqS_2O_3]^- * \mathcal{K}_{\text{AgJ}}}{[S_2O_3^{2-}][Aq^+]} \quad (3)$$

$$K_{\text{Mybos}} = \frac{[AqS_2O_3]^-}{[S_2O_3^{2-}][Aq^+]} \quad (4)$$

(4) ni (3) chi tenglamaga qo'ysak,

$$K_{\text{Mybos}} = \frac{\mathcal{K}_{\text{AgJ}}}{K_{[AqS_2O_3]^-}} ;$$

$$\text{Ma'lumotnomalardan } \mathcal{K}_{\text{AgJ}} = 8,3 * 10^{-17}; K_{[AqS_2O_3]^-} = 1,5 * 10^{-9}$$

$$K_{\text{Mybos}} = \frac{x * x}{1,5 * 10^{-9}} = 5,54 * 10^{-8}$$

3) Eritmaga o'tgan AgJ ning mol miqdorini x bilan, unda AgJ ning erish tenglamasidan  $[AgS_2O_3]^- = [J^-] = x$ , muvozanatdagi  $[S_2O_3^{2-}] = 1-x$ . Bu qiymatlarni muvozanat doimiyligi qiymatiga qo'ysak,

$$K_{\text{Mybos}} = \frac{x * x}{1-x} = 5,54 * 10^{-8}$$

Maxrajdagi x ni hisoblab olmasak

$$\frac{x^2}{1} = 5,54 * 10^{-8}; x = \sqrt{5,54 * 10^{-8}} = 2,35 * 10^{-4} \text{ моль/л}$$

Demak, 1 1 1 m  $Na_2S_2O_3$  eritmasiga  $2,35 * 10^{-4}$  mol AgJ erishi mumkin.


$$4) 0,1 \text{ g AgJ} \quad \frac{0,1}{234,8} = 4,254 * 10^{-4} \text{ mol}$$

Agar 1 1  $Na_2S_2O_3$   $2,35 * 10^{-4}$  mol AgJ ni eritsa,  $4,25 * 10^{-4}$  mol AgJ ni eritish uchun qancha hajm  $Na_2S_2O_3$  kerak bo'ladi.

$$V = \frac{4,25 * 10^{-4}}{2 / 35 * 10^{-4}} = 1,80 \text{ л} = 1800 \text{ мл}$$

### Mustaqil yechish uchun masalalar



1. Quyidagi har bir kompleks birikmani dissotsiyalanish reaksiya tenglamalarini tuzing va ularni nomlang.




2. Quyidagi kompleks birikmalarini hosil bo'lish, parchalanish reaksiya tenglamalarini yozing: a)  $[Cu(NH_3)_4](OH)_2$ ;  $Na[Ag(CN)_2]$ ;  $K_2[HgJ_4]$ . Elektrolitik dissotsiatsiyasini va beqarorlik konstantalarini qiymatini keltiring.

- b)  $K_2[N(CN)_4]$ ;  $K_2[Hg(CN)_4]$ ;  $[Ag(NH_3)_2]$ ;
- v)  $[Ag(NH_3)_2]OH$ ;  $[Co(NH_3)_6]C$ ;  $K_2[N(CN)_4]$ ;
- g)  $[Zn(NH_3)_4](OH)_2$ ;  $K_4[Fe(CN)_6]$ ;  $K[Ag(CN)_2]$ ;
- d)  $[Ag(NH_3)_2]$ ;  $(NH_4)_2[Co(SCN)_4]$ ;  $K_4[Fe(CN)_6]$ ;
- e)  $K[BJ_4]$ ;  $[Cu(NH_3)_4]SO_4$ ;  $Fe_4[Fe(CN)_6]_3$
- j)  $Na_3[Co(NO_2)_6]$ ;  $(NH_4)_2[Hg(SCN)_4]$ ;  $[N(NH_3)_6]SO_4$

3.\* Quyidagi kompleks birikmalar uchun hosil bo'lish va elektrolitik dissotsiyanish tenglamalarini yozing va barqarorlik doimiysining qiymatini keltiring.



11.\*\* Quyidagi kompleks birikmalarni IYuPAK qoidalari bo'yicha nomlang va analistik xususiyatlarini (rangi, kristall tuzilishi, eruvchanligi, barqarorlik doimiysi qiymatlari) keltiring.



18. \*\*  $K_3[Ag(S_2O_3)_2]$  ;  $K_2[Hg(CN)_4]$ ;  $K_2[(CN)_4]$
19. \*\*  $Na_2[Cd(NH_3)_4]$  ;  $[Cu(NH_3)_4]C_2$  ;  $Na_2[CdJ_4]$
20. \*\*  $Na_2[Co(NH_3)_6]$  ;  $K_4[Fe(CN)_6]$ ;  $K_2[HqJ_4]$
21. 0,01 m li a)  $[Ag(NH_3)_2]NO_2$  ; b)  $K[Ag(CN)_2]$  kompleks tuz eritmalaridagi kumush ionini konsentratsiyasini hisoblang. (J.a)  $5,24 \cdot 10^{-4}$  g-ion/l; b)  $3,31 \cdot 10^{-3}$  g-ion/l)
22. 0,01 m li  $K[Au(CN)_6]$  kompleks tuz eritmasidagi oltin ionini  $Au^+$  konsentratsiyasini hisoblang. ( $J. 2,3 \cdot 10^{-14}$  g-ion/l)
23. Bir xil konsentratsiyali kompleks tuz eritmalarining qaysi birida kumush ionini konsentratsiyasi katta  $[Ag(NH_3)_4]OH$  yoki  $K[HgS_2O_3]$ . (J. Ammiakli birikmada)
24. Qaysi kompleks birikmada 0,1 m li  $xCd(NH_3)S_2$  yoki 0,1 m li  $K_2[Cd(CN)_4]$  da kadmiy ionini –  $Cd^{2+}$  konsentratsiyasi ko'p. (J.  $[Cd(NH_3)_4C_2$  – eritmasida)
25. 0,1 m li  $K_2[HgCl_4]$  eritmasidagi simob- (II)-  $Hg^{2+}$  ionlari konsentratsiyasini hisoblang. (J.  $1,19 \cdot 10^{-4}$  mol/l)
26. 0,1 m li  $K[Ag(CN)_2]$  kompleks tuzi eritmasidagi  $Ag^+$  ionlari konsentratsiyasini hisoblang. (J.  $2,92 \cdot 10^{-8}$  mol/l)
27. 0,1 m li  $K_4[Fe(CN)_6]$  kompleks tuzi eritmasidagi  $Fe^{2+}$  ionlari konsentratsiyasini hisoblang. (J.  $1,54 \cdot 10^{-8}$  mol/l)
28. Bir xil konsentratsiyali  $K_2[HgJ_4]$  va  $K_2[Hg(CN)_4]$  qaysi birida  $Hg^{2+}$  ionini konsentratsiyasi ko'p. (J.  $K_2[HgJ_4]$  eritmasida)
29.  $1 \cdot 10^{-3}$  m li 1 1 kadmiy nitrat  $Cd(NO_3)_2$  eritmasidagi  $Cd^{2+}$  ionlari konsentratsiyasini  $1 \cdot 10^{-8}$  mol/l gacha kamaytirish uchun necha mol KCSN qo'shish kerak. (J.  $4,0 \cdot 10^{-3}$  mol)
30. 0,5 m li 1 1  $AgNO_3$  eritmasidagi  $Ag^+$  ionlari konsentratsiyasini  $10^{-5}$  mol/l gacha kamaytirish uchun necha mol ammiak qo'shish kerak. (J. 1,006 mol)
31. 20 ml suvga 0,1842 g  $K_4[Fe(CN)_6]$  eritildi. Eritmadagi  $Fe^{2+}$  ionlari konsentratsiyasini hisoblang. (J.  $1,27 \cdot 10^{-6}$  mol/l)

32. 0,1 m li  $[Cd(CO_3)_4]C_2$  tarkibli kompleks tuzga teng hajmda 0,1 m li  $Na_2S$  qo'shilganda kadmiy sulfid-  $CdS$  cho'kmaga tushadimi? (J. Cho'kma tushadi)

33. 1 l suvga 0,02 mol  $AgNO_3$  0,02 mol  $NaC$  va 0,5 mol ammiak -  $NH_3$  eritilsa kumush xlorid cho'kmaga tushadimi? (J.cho'kma tushmaydi)

34. 0,2 m li  $K_4[Fe(CN)_6]$  tarkibli kompleks tuzga 0,02 m li  $Na_2S$  qo'shganda  $FeS$  cho'kmasi hosil bo'ladi? (J.cho'kma hosil bo'ladi)

35. 10 ml 0,05 m li  $K_3[AgF_6]$  kompleks tuzi eritmasiga 10 ml 0,1 m li kalsiy nitrat qo'shilganda kompleks birikma buziladimi? ( $K_{[AgF_6]^{3-}} = 2,14 \cdot 10^{-21}$ ) (J.Kompleks birikma buziladi)

36. 0,001 m li  $[Ag(NH_3)_2]Cl$  eritmasiga sulfid ionlari konsentratsiyasi  $1 \cdot 10^{-10}$  mol/l bo'lguncha vodorod sulfid yuborilsa  $AgCl$  cho'kmaga tushadimi? (J.cho'kma tushadi)

37. 1 litr 1 m li ammiak eritmasiga  $Zn(OH)_2$  eritlishi natijasida  $[Zn(NH_3)_4]^{2+}$  tarkibli kompleks ion hosil bo'lsa  $Zn(OH)_2$  eritmadiagi eruvchanligini hisoblang. ( $J. 5,13 \cdot 10^{-3}$  mol/l)

38. 1 litr 1 ml. li ammiak eritmasiga necha gramm  $AgCl$  eriydi? (J.6,88 g).

39. 0,1 m li ammiak eritmasida kumush brom –  $AgBr$  ning eruvchanligini mol/l da hisoblang. (J.  $2,14 \cdot 10^{-4}$  mol/l ).

40. 0,1 g kumush xloridni eritish uchun 1 m. li ammiak eritmasidan necha millilitr kerak. (J.14,6 ml)

41.  $[Zn(NH_3)_4]^{2-}$  kompleks ionli birikma hosil qilish uchun 5 ml 2 m li ammiak eritmasiga necha milligramm  $Zn(OH)_2$  eritish kerak. (J.69,3 mg)

42. 0,1 g kumush yodid  $AgJ$  ni eritish uchun necha millilitr 5 m li ammiak eritmasidan olish kerak.(J.2470 ml)


43. 1,33 g  $AgCl$  1 ml 2 m li ammiak eritmasiga eritildi. Hosil bo'lgan eritmadiagi  $Ag^+$  ionini konsentratsiyasini hisoblang. ( $J. 1,65 \cdot 10^{-10}$  mol/l)

## **II Qism. Miqdoriy tahlil.**

### **Masalalar yechishga doir namunalar**

**1-masala.** Tortma analiz usuli bilan bariy xlorid tarkibidagi bariyni aniqlash uchun bariy xlorid  $\text{BaCl}_2$  dan qancha namuna olish kerak.

Yechish. Eritmadan bariy  $\text{BaSO}_4$  shaklda cho'ktiriladi.



$\text{BaSO}_4$  – cho'ktiriladigan va tortiladigan shakldagi kristall cho'kma, demak 0,5 g atrofida namuna olish kerak.

$$m = \frac{aM_{\text{BaSO}_4} * 0,5}{bM_{\text{BaSO}_4}} \quad m_{\text{BaCl}_2} = 207; M_{\text{BaSO}_4} = 233; m = \frac{207 * 0,5}{233} \\ = 0,444 \text{ g. BaCl}_2$$

**2-masala.** 0,7500 g  $\text{BaCO}_3$  ni eritish uchun 10 % li ( $d=1,049$ ) HCl dan necha ml kerak.

Berilgan:

$$m_{\text{BaCO}_3} = 0,7500$$

$$C_{\text{HCl}} = 10 \%$$

$$d_{\text{HCl}} = 1,049$$

$$V_{\text{HCl}} - ?$$

Yechish. 1) HCl ning massasi hisoblanadi.



$$197,4 \text{ g} \quad - \quad 2 * 36,5 \text{ g}$$

$$0,7500 \quad - \quad X$$

$$X = \frac{0,7500 * 2 * 36,5}{197,4} = 0,2770 \text{ g.}$$

2) 10 % HCl ning massasi hisoblanadi:

$$100 \text{ g eritmada} \quad - \quad 10 \text{ g HCl}$$

$$X \quad - \quad 0,2770 \text{ g HCl}$$

$$X = \frac{100 * 0,2770}{10} = 2,770 \text{ g.}$$

2) Zichligini bilgan holda 2,770 g HCl ning hajmi hisoblanadi.

$$d = \frac{m}{V}; \quad V = \frac{m}{d} = \frac{2,770}{1,049} = 2,641 \text{ ml}$$

**3-masala.** Tortma analiz usuli bilan 0,3996 g dolomitdan 0,1234 g CaO va 0,1836g Mg<sub>2</sub>P<sub>2</sub>O<sub>7</sub> olindi. Namuna tarkibidagi CaCO<sub>3</sub> va MgCO<sub>3</sub> ning foiz miqdorini hisoblang.

Berilgan:



$$m_n = 0,3996 \text{ g}$$

$$m_{\text{CaO}} = 0,1234 \text{ g} \quad m_{\text{Mg}_2\text{P}_2\text{O}_7} = 0,1836 \text{ g.}$$

$$\text{CaCO}_3 \% - ?$$

$$\text{MgCO}_3 \% - ?$$

Yechish. 1) CaCO<sub>3</sub> + MgCO<sub>3</sub> + 4HCl → CaCl<sub>2</sub> + MgCl<sub>2</sub> + 2H<sub>2</sub>O + 2CO<sub>2</sub>↑



$$56 - 100$$

$$0,1234 - X$$

$$X = \frac{0,1234 * 100}{56} = 0,2200 \text{ g.}$$

foizlarda hisoblansa,

$$0,3996 \text{ g} - 0,2200 \text{ g}$$

$$100 \% - X$$

$$X = \frac{100 * 0,2200}{0,3996} = 55 \% \text{ CaCO}_3$$

$$\text{b) Mg}_2\text{P}_2\text{O}_7 - 2 \text{MgCO}_3$$

$$222 \quad - \quad 168,6$$

$$0,1836 \quad - \quad X$$

$$X = \frac{0,1836 * 168,6}{222} = 0,1390 \text{ g.}$$

foizlarda:

$$0,3996 \text{ g} \quad - \quad 0,1390 \text{ g}$$

$$100 \% \quad - \quad X$$

$$X = \frac{100 * 0,1390}{0,3996} = 34,7 \% MgCO_3$$

**4-masala.** 200 ml distillangan suvgaga BaSO<sub>4</sub> cho'kmasi yuvildi.

Yuvish natijasida necha gramm BaSO<sub>4</sub> yo'qotildi. ( $EK_{BaSO_4} = 10^{-10}$ ) ?

Berilgan:

$$V_{H_2O} = 200 \text{ ml } 0,2 \text{ l}$$

$$EK_{BaSO_4} = 10^{-10}$$

$$m_{BaSO_4} - ?$$



BaSO<sub>4</sub> ning eruvchanlik ko'paytmasining ifodasi.

$$EK_{BaSO_4} = [Ba^{2+}][SO_4^{2-}] = 10^{-10}$$

2) BaSO<sub>4</sub> ning EK bilgan holda eruvchanligini mol/l da hisoblaymiz.

$$E = \sqrt{EK_{BaSO_4}} = \sqrt{10^{-10}} = 10^{-5} \text{ g} - ion | l.$$

BaSO<sub>4</sub> ning molekulyar massasi – 233

3) BaSO<sub>4</sub> ning eruvchanligi g/mlda hisoblanadi:

$$1 * 10^{-3} \text{ mol/l} * 230 \text{ g/mol} * 0,2 \text{ l} = 0,0005 \text{ g}$$

**5-masala.** 0,5210 g ohakdan namuna olib, unga ishlov berilib, 0,2218g CaO va 0,0146 g Mg<sub>2</sub>P<sub>2</sub>O<sub>7</sub> olindi. Namuna tarkibidagi CaCO<sub>3</sub> va MgCO<sub>3</sub> ning foiz miqdorini hisoblang.

Berilgan:

$$m_n = 0,5210 \text{ g}$$

$$m_{CaO} = 0,2218 \text{ g} \quad m_{Mg_2P_2O_7} = 0,0146 \text{ g.}$$

$CaCO_3$  % - ?

$MgCO_3$  % - ?

Yechish. Namuna tarkibidagi tuzlarning foiz miqdorini quyidagi formuladan foydalanib topamiz.  $Q\% = \frac{m_B * M_A * 100}{m_H * M_B}$

$$1) Q_{CaCO_3\%} = \frac{m_{CaO} * M_{CaCO_3} * 100}{m_H * M_{CaO}} = \frac{0,2218 * 100 * 100}{0,5210 * 56} = 75,98\%$$

$$3) Q_{MgCO_3} = \frac{m_{Mg_2P_2O_7} * 2M_{MgCO_3} * 100}{m_H * M_{Mg_2P_2O_7}} = \frac{0,0146 * 168 * 64 * 100}{0,5210 * 222,56} = 2,13\%$$

### Mustaqil yechish uchun masalalar

1.  $CuSO_4 * 5H_2O$  tarkibidagi kristallangan suv miqdorini aniqlash uchun qancha namuna olish kerak? (J.0,3g)
2.  $Na_2CO_3 * 10H_2O$  tarkibidagi kristallangan suv miqdorini aniqlash uchun qancha namuna olish kerak.(J.0,2 g)
3. 0,5 g  $AgCl$  cho'kmasini olish uchun tarkibida 30% xlor bo'lgan namunadan qancha olish kerak. (J.~2,4 g)
4. Temirni temir-(III) hidroksidi ko'rinishida cho'ktirish uchun, tarkibida 70 % temir bo'lgan rudadan qancha namuna olish kerak. (J. 0,1 g)
5. Kumushni  $AgCl$  ko'rinishida cho'ktirish uchun kumush nitratdan qancha namuna olish kerak. (J.0,6 g)

### Hajmiy analizdagi hisoblash formulalari

#### Masalalar yechish uchun namunalar

**1-masala.** Zichligi 1,031 g/ml bo'lgan 18 g ortofosfat kislota 282 ml suvgaga eritildi. Hosil bo'lgan eritmaning foiz ( $C\%$ ), molyar ( $C_m$ ), normal ( $S_n$ ), konsentratsiyasini va titrini hisoblang.

Berilgan:

$$d = 1,031 \text{ g}$$

$$m_1 = 18 \text{ g}$$

$$V = 282 \text{ ml}$$

$$C\% - ? \quad C_m - ?$$

$$C_n - ? \quad T - ?$$

Yechish. 1) 100 g eritmada erigan modda miqdoriga (grammlar soniga) foiz konsentratsiya deyiladi. Foiz konsentratsiya quyidagi formula bilan hisoblanadi.

$$C\% = \frac{m_1}{m_1 + m_2} * 100$$

Suvning zichligi 2 g/ml ga tengligi sababli 282 ml suv 282 g teng deb olinadi, unda  $m_2 = 282$  unda  $m_1 + m_2 = 300 \text{ g}$

$$C\% = \frac{18}{300} * 100 = 6 \%$$

2) 1 l (1000 ml) eritmada erigan modda miqdorining g/mol soni bilan ifodalanishiga molyar konsentratsiya deyiladi. U quyidagicha hisoblanadi.

$$C_M = \frac{m * 1000}{M * V}$$

$\text{H}_3\text{PO}_4$  ning molyar massasi: 98 g/mol

$$C_M = \frac{18 * 1000}{98 * 282} = 0,6513 M$$

3) 1 l (1000 ml) eritmadiagi erigan modda miqdorining gramm-ekvivalentlar soni eritmaning normal konsentratsiyasi ( $C_n$  yoki  $N$ ) deyiladi. U quyidagicha hisoblanadi:

$$C_H = N = \frac{m * 1000}{E * V}$$

$\text{H}_3\text{PO}_4$  ning ekvivalent massasi:

$$E_{\text{H}_2\text{SO}_4} = \frac{M}{3} = \frac{98}{3} = 32,66 \text{ g/mol}$$

$$C_H = N = \frac{18 * 1000}{32,66 * 282}$$

4) 1 ml eritma tarkibidagi erigan moddaning grammlarda ifodalangan miqdori eritma titri deyiladi. U quyidagicha hisoblanadi.

$$T = \frac{m}{V}$$

Agar eritmaning normal konsentratsiyasi ma'lum bo'lsa,

$$T = \frac{N * E}{1000}; \quad T = \frac{1,9544 * 32,66}{1000} = 0,0638 \text{ g/ml}$$

**2-masala.** 25,00 ml  $\text{H}_2\text{SO}_4$  eritmasini titrlash uchun titri 0,004085 g/ml bo'lgan 24,17 ml NaOH sarf bo'ldi. Eritmada necha gramm  $\text{H}_2\text{SO}_4$  bo'lganini hisoblang.

Berilgan:

$$V_{\text{H}_2\text{SO}_4} = 25,00 \text{ ml}$$

$$T_{\text{NaOH}} = 0,004085 \text{ g/ml}$$

$$\underline{V_{\text{NaOH}} = 24,17 \text{ ml}}$$

$$q_{\text{H}_2\text{SO}_4} - ?$$

Yechish. 1) NaOH ning normal konsentratsiyasi hisoblanadi:

$$T_{\text{NaOH}} = \frac{E_{\text{NaOH}} * N_{\text{NaOH}}}{1000}; \quad N_{\text{NaOH}} = \frac{T_{\text{NaOH}} * 1000}{E_{\text{NaOH}}}; \quad E_{\text{NaOH}} = 40,01$$

$$N_{\text{NaOH}} = \frac{0,004085 * 1000}{40,01} = 0,1021 \text{ mol/l.}$$

2)  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ning normal konsentratsiyasi hisoblanadi:

$$N_{\text{H}_2\text{SO}_4} * V_{\text{H}_2\text{SO}_4} = N_{\text{NaOH}} * V_{\text{NaOH}}$$

$$N_{\text{H}_2\text{SO}_4} = \frac{N_{\text{NaOH}} * V_{\text{NaOH}}}{V_{\text{H}_2\text{SO}_4}} = \frac{0,1021 * 24,17}{25,00} = 0,09873 \text{ mol/l}$$

3)  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ning titri hisoblanadi:

$$T_{\text{H}_2\text{SO}_4} = \frac{E_{\text{H}_2\text{SO}_4} * N_{\text{H}_2\text{SO}_4}}{1000} = \frac{0,09873 * 49,04}{1000} = 0,004838 \text{ g/ml}$$

4)  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ning massasi hisoblanadi:

$$q_{H_2SO_4} = T_{H_2SO_4} * V_{H_2SO_4} = 0,004838 * 25,00 = 0,1209 \text{ g.}$$

**3-masala.** 1,0320 g ohaktosh namunasi 250 ml o'lchov kolbasiga 0,1212 n HCl eritmasiga eritildi. Eritmaning 25 ml ni titrlashda 10,20 ml NaOH ( $T_{NaOH} = 0,003825 \text{ g/ml}$ ) eritmasidan sarf bo'ldi. Namuna tarkibidagi  $CaCO_3$  ni foiz miqdorini hisoblang.

Berilgan:

$$m_{CaCO_3} = 1,0320 \text{ g}$$

$$N_{HCl} = 0,1212 \text{ n}$$

$$V_{umum} = 250 \text{ ml}$$


$$V_n = 25 \text{ ml}$$

$$V_{NaOH} = 10,20 \text{ ml}$$

$$T_{NaOH} = 0,003825 \text{ g/ml}$$

$$m_{\% CaCO_3} - ?$$

Yechish. Masala shartini chizmada quyidagicha ifodalash mumkin.



as – bo'lak  $CaCO_3$  bilan reaksiyaga kirishgan HCl ning g-ekv miqdori to'g'ri kelsa, qolgan sv bo'lak eritmadiagi qolgan HCl ni titrlashga sarf bo'lgan NaOH ni g-ekv miqdori, ya'ni

$$n_1 = \frac{T_{NaOH} * V_{NaOH}}{E_{NaOH}} \quad (1)$$

Kolbada qolgan kislotani titrlash uchun sarf bo'lgan ishqorning g-ekv miqdori:

$$n_1 = \frac{T_{NaOH} * V_{NaOH} * V_{kolba}}{E_{NaOH} * V_{pipetka}} \quad (2)$$

(1) va (2) formula orasidagi farq HCl bilan reaksiyaga kirishgan  $CaCO_3$  ni g-ekv miqdorini ko'rsatadi.

$$n_{CaCO_3} = \frac{N_{HCl} * V_{kolba}}{1000} - \frac{T_{NaOH} * V_{NaOH} * V_{kolba}}{E_{NaOH} * V}$$

Namuna tarkibidagi  $\text{CaCO}_3$  ni foiz miqdori quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$Q_{\text{CaCO}_3} = \left[ \frac{N_{\text{HCl}} * V_{\text{kolba}}}{1000} - \frac{T_{\text{NaOH}} * V_{\text{NaOH}} * V_{\text{kolba}}}{E_{\text{NaOH}} * V} \right] * \frac{E_{\text{CaCO}_3} * 100}{m_H}$$

$$Q_{\text{CaCO}_3} = \left[ \frac{0,1212 * 250}{1000} - \frac{0,003825 * 10,20 * 250}{40 * 25} \right] * \frac{50 * 100}{1,032} = 99,53 \%$$

**4-masala.** 100 ml 0,1 n. HCl eritmasiga 0,1 n. NaOH eritmasidan 50; 99; 99,9; 100; 101,1; 101 ml qo'shilganda eritmaning pH qiymatlarini hisoblab va titrlash egri chizig'ini chizing va titrlashning oxirgi nuqtasini aniqlash uchun indikator tanlang.

Yechish: Titrlashga qadar eritma pHini hisoblash formulasi:

$$pH = -\lg [N^+] = -\lg C_{k-ta} = -\lg 0,1 = 1$$

0,1 n HCl eritmasiga 50, 90, 99,9 ml.da 0,1 n NaOH qo'shilganda eritmadagi  $[H^+]$  va pH o'zgarib boradi. Unda eritma pH'i quyidagi formula bilan hisoblanadi.

$$C_A = \frac{V_A - V_B}{V_A - V_B} * N_A \quad \text{yoki} \quad C_{\text{HCl}} = \frac{V_{\text{HCl}} - V_{\text{NaOH}}}{V_{\text{HCl}} - V_{\text{NaOH}}} * N_{\text{HCl}}$$

50 ml 0,1 n NaOH qo'shganda:

$$C_{\text{HCl}} = [H^+] = \frac{50}{150} * 0,1 = 3,3 * 10^{-2} \text{ mol/l}$$

$$pH = -\lg C_{\text{HCl}} = -\lg [H^+] = -\lg 3,3 * 10^{-2} = 2 - \lg 3,3 = 2 - 0,5 = 1,5$$

va hokazo. 100 ml 0,1 n NaOH qo'shilgunga qadar xuddi shu formula bilan hisoblanadi.

Qo'shilganda 100 ml 0,1 n NaOH eritmadagi kislotaga ekvivalent miqdorda bo'ladi. Hosil bo'lgan tuz  $\text{NaCl}$  gidrolizga uchramaydi va eritma muhitineytral  $\text{pH} = \text{pOH} = 7$  bo'ladi.

Ekvivalent nuqtadan keyin 100 ml 0,1 n HCl ga 100,1; 101; 110 ml 0,1 n NaOH qo'shilganda eritmada ortiqcha ishqor bo'ladi. Bunda  $[\text{OH}^-]$  ioni ortiqcha olingan NaOH konsentratsiyasiga teng,

$$C_{NaOH} = [OH^-] = \frac{0,1}{200,1} * 0,1 = 5 * 10^{-5} \text{ mol/l}$$

$$pOH = -\lg [OH^-] = -\lg 5 \cdot 10^{-5} = -\lg 5 - \lg 10^{-5} = -0,7 + 5 = 4,3$$

$$pH = 14 - 4,3 = 9,7$$

**100 ml 0,1n. HCl eritmasini NaOH ning 0,1n. eritmasi bilan (yoki aksin cha) titrlashda pH ning o'zgarish tartibi.**

1-jadval

| Qo'shilgan NaOH hajmi, ml | [OH <sup>+</sup> ] | [OH <sup>-</sup> ] | pH       |
|---------------------------|--------------------|--------------------|----------|
| Ekvivalent nuqtaga qadar  |                    |                    |          |
| 0                         | 10                 | -                  | 1        |
| 50                        | $3,3 * 10^{-2}$    | $3 * 10^{-13}$     | 1,5      |
| 90                        | $5,3 * 10^{-3}$    | $1,9 * 10^{-12}$   | 2,3      |
| 99                        | $5 * 10^{-4}$      | $2,0 * 10^{-11}$   | 3,3      |
| 99,9                      | $5,0 * 10^{-5}$    | $2,0 * 10^{-10}$   | 4,3      |
| Ekvivalent nuqtada        |                    |                    |          |
| 100                       | $1 * 10^{-7}$      | $1 * 10^{-7}$      | 7        |
| Ekvivalent nuqtadan keyin |                    |                    |          |
| 100,1                     | $2,0 * 10^{-10}$   | $5,0 * 10^{-5}$    | 9<br>,7  |
| 101                       | $2,0 * 10^{-11}$   | $5,0 * 10^{-4}$    | 1<br>0,7 |
| 110                       | $2,1 * 10^{-12}$   | $4,8 * 10^{-3}$    | 1<br>1,7 |

### Mustaqil yechish uchun masalalar

1. 2litr ~0,05 m li NaOH eritmasini tayyorlash uchun, necha gramm NaOH kerak.
2. 1,5 l ~ 0,1 m li KOH eritmasini tayyorlash uchun, necha gramm KOH kerak.

3. 5 1 ~ 0,1 m li HCl eritmasini tayyorlash uchun, 30 % li ( $d=1,15$  g/ml) HCl eritmasidan necha millilitr kerak.

4. Titri 0,01223 g/ml bo'lgan  $H_2SO_4$  eritmasining normal konsentratsiyasini hisoblang.

5. Natriy gidroksidiga nisbatan titri 0,004010 g/ml bo'lgan xlorid kislota ( $T_{HCl/NaOH}= 0,004010$  g/ml) ning normal konsentratsiyasini hisoblang.

6. Normal konsentratsiyasi 0,09617 n bo'lgan KOH eritmasining titrini –  $T_{KON}$  va xlorid kislota bo'yicha titrini –  $T_{KOH/HCl}$  hisoblang.

7. Titri 0,005727 g/ml bo'lgan KOH ning sulfit kislota bo'yicha titrini –  $T_{KOH/H_2SO_4}$  hisoblang.

8. 0,5000 n HCl eritmasini hosil qilish uchun 1 litr 0,5300 n eritmasini qancha hajmgacha suyultirish kerak.

9. 550 ml 0,1925 n li HCl eritmasiga titri 0,02370 g/ml bo'lgan eritmasidan 50 ml qo'shildi. Hosil bo'lgan eritmaning normal konsentratsiyasi va titrini hisoblang.

10.  $\approx 0,05$  n HCl eritmasining titrini aniqlashda ishlatiladigan 500 ml eritmaga necha gramm  $Na_2B_7O_7 \cdot 10H_2O$  borligini hisoblang.

11.  $\approx 0,1$  n  $H_2SO_4$  titrini aniqlash uchun 200 ml suvsiz sodda eritmasida necha gramm  $Na_2CO_3$  borligini hisoblang.

12. 20,00 ml 0,1000 n HCl eritmasi bilan necha gramm suvsiz soddani  $CO_2$  gacha titrlash mumkin.

13.  $T_{HCl*Na_2O} = 0,003514$  g/ml bo'lgan 22,00 ml xlorid kislota bilan necha gramm NaOH ni titrlash mumkin.

14. HCl ning titrini aniqlash uchun 2,6030 g suvsiz  $Na_2CO_3$  250,0ml o'lchov kolbasida eritildi. Tayyorlangan eritmaning 25,00 ml ni titrlash uchun 26,18 ml HCl sarf bo'ldi.  $N_{HCl}, T_{HCl/NaOH}$  hisoblang.

15. KOH ning titrini aniqlash uchun 1,4960 g  $H_2C_2O_4 \cdot 2H_2O$  250,0 ml li o'lchov kolbasida eritildi. Tayyorlangan eritmaning 20,00 ml ni titrlash uchun 21,06 ml KOH sarf bo'ldi.  $N_{KOH}, T_{KOH/HCl}$  hisoblang.

16. 0,2436 g suvsiz sodani titrlash uchun 21,35 ml H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> sarf bo'ldi.  $N_{H_2SO_4}$ ,  $T_{H_2SO_4}$ ,  $T_{H_2SO_4*NaOH}$  hisoblang.

17. 0,6020 g Na<sub>2</sub>B<sub>4</sub>O<sub>7</sub>\*10H<sub>2</sub>O titrlash uchun 27,16 ml HCl sarf bo'ldi. Xlorid kislotaning titri va normal konsentratsiyasini hisoblang.


18. 0,4217 g bura (Na<sub>2</sub>B<sub>4</sub>O<sub>7</sub>\*10H<sub>2</sub>O) ni titrlash uchun 17,50 ml HCl sarf bo'ldi. Kislotaning normal konsentratsiyasi va titrini hisoblang.

### Hajmiy analizning oksidlanish-qaytarilish usuli

#### Masalalarни yechishga doir namunalar

**1-masala.** Kaliy permanganat KMnO<sub>4</sub> bilan temir-(II) sulfat FeSO<sub>4</sub> tuzining oksidlanish reaksiyasini muvozanat doimiyligini hisoblang.

Yechish. 1) Reaksiya tenglamani yozamiz:



2) Oksidlanish-qaytarilish potensiali jadvalidan qiymatini topamiz.

$$E_{\text{MnO}_4^- + 8\text{H}^+; \text{Mn}^{2+} + 4\text{H}_2\text{O}}^o = 1,51 \text{ B};$$

$$E_{\text{Fe}^{3+}; \text{Fe}^{2+}}^o = 0,77 \text{ B}$$

3) Standart potensiallarning qiymatini formulaga qo'yib, aniqlaymiz:

$$\lg K = \frac{[E^o - E_N^o] * n}{0,059} = \frac{[1,51 - 0,77] * 5}{0,059} = 63,8$$

4)  $\ell$ q K antilogorifmlab son qiymatiga o'tamiz:

$$K = \frac{[\text{Mn}^{2+}][\text{Fe}^{3+}]^5}{[\text{MnO}_4^-][\text{Fe}^{2+}][\text{H}^+]^3} = 10^{53,3}$$

**2-masala.** 3 1 0,02 n kaliy permanganat eritmasini tayyorlash uchun, necha gramm undan olish kerak. (kislotali muhit uchun).

Berilgan.

$$V = 31 = 3000 \text{ ml}$$

$$\underline{N = 0,02 \text{ n}}$$

m - ?

Yechish. 1) KMnO<sub>4</sub> ning molyar ekvivalent massasini hisoblaymiz:

$$M = \frac{158,08}{5} = 31,61 \text{ g/mol}$$

2) Normal konsentratsiyani hisoblash formulasidan massani topamiz:

$$C_H = N = \frac{m_1 * 1000}{M * V};$$

$$m = \frac{N * M * V}{1000} = \frac{0,02 * 31,61 * 3000}{1000} = 1,89 \text{ g}$$

**3-masala.** 500 ml 0,1 n ammoniy oksalat eritmasini tayyorlash uchun necha gramm ammoniy oksalat kristallogidratidan olish kerak.

Berilgan

$$V = 500 \text{ ml}$$

$$\underline{N = 0,1 \text{ n}}$$

$$m - ?$$

Yechish: 1) Ammoniy oksalatning molyar ekvivalent massasini hisoblaymiz:

$$M = \frac{M(NH_4)_2C_2O_4 * H_2O}{2} = \frac{142,11}{2} = 71,06 \text{ g/mol}$$

2) Normal konsentratsiyani hisoblash formulasidan foydalanib, tuzning massasini topamiz:

$$C_H = N = \frac{m_1 * 1000}{M * V};$$

$$m = \frac{N * M * V}{1000} = \frac{0,1 * 71,06 * 500}{1000} = 3,55 \text{ g}$$

**4-masala.** 1,2606 g oksalat kislotaning kristallogidrati ( $H_2C_2O_4 * 2H_2O$ ) 200 ml sig’imli o’lchov kolbasida eritildi. Tayyorlangan eritmaning 20,00 ml ni titrlash uchun  $KMnO_4$  ning eritmasidan 20,26 ml sarf bo’ldi.  $KMnO_4$  eritmasining normalligini hisoblang.

Berilgan.

$$m=1,2606 \text{ g } H_2C_2O_4 \cdot 2H_2O$$

$$V_{\text{kolba}} = 200 \text{ ml}$$

$$V_{\text{pipet}} = 20,00 \text{ ml } H_2C_2O_4 \cdot 2H_2O$$

$$V_{KMnO_4} = 20,26 \text{ ml}$$

$$N_{KMnO_4} - ?$$

Yechish. 1) Oksalat kislotanining titrini hisoblaymiz:

$$T = \frac{m}{V} = \frac{1,2606}{200} = 0,006304 \text{ g/ml}$$

2) Oksalat kislotanining normal konsentratsiyasini hisoblaymiz:

$$T = \frac{E * N}{1000}; N = \frac{T * 1000}{E}; E_{H_2C_2O_4 \cdot 2H_2O} = 63,04 \text{ g - ekv}$$

$$N = \frac{0,006304 * 1000}{63,04} = 0,0100 \text{ H}$$

3) KMnO<sub>4</sub> eritmasining normal konsentratsiyasini hisoblaymiz.

$$N_{KMnO_4} * V_{KMnO_4} = E_{H_2C_2O_4 \cdot 2H_2O} * V_{H_2C_2O_4 \cdot 2H_2O}$$

$$N_{KMnO_4} = \frac{N_{H_2C_2O_4 \cdot 2H_2O} * V_{H_2C_2O_4 \cdot 2H_2O}}{V_{KMnO_4}} = \frac{0,01 * 20}{20,26} = 0,09876 \text{ n}$$

**5-masala.** 0,2004 g xlорli ohak suvgaga eritilib, ustiga KJ va H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> eritmasi qo'shildi. Ajralib chiqqan yod 0,1000 n 20,04 ml natriy tiosulfat Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub> eritmasi bilan titrlandi. Xlorli ohak tarkibidagi aktiv xlorning foiz miqdorini hisoblang.

Berilgan.

$$m = 0,2004 \text{ g}$$

$$N_{Na_2S_2O_3} = 0,1000$$

$$V_{Na_2S_2O_3} = 20,04 \text{ ml}$$

$$Q_{CI(\%)} - ?$$

Yechish: 1) Natriy tiosulfat eritmasini xlор bo'yicha titrini hisoblaymiz.

$$T_{Na_2S_2O_3*CI} = \frac{N_{Na_2S_2O_3} * M(CI)}{1000} = \frac{0,1 * 35,50}{1000} = 0,003545 \text{ g/ml}$$

2) Xlorning massasini hisoblaymiz:

$$Q_{CI} = T_{Na_2S_2O_3*CI} * V_{Na_2S_2O_3} = 0,003545 * 20,04 = 0,0710 \text{ g}$$

3) Xlorning miqdorini foizlarda hisoblaymiz:

0,2004 g - 100 %

0,071 g - X %

$$X\% = \frac{0,071 * 100}{0,2004} = 35,00 \%$$

**6-masala.** 100 ml 0,1 n  $FeSO_4$  eritmasini kislotali muhitda  $[N] = 0,1$  g mol/l, 100 ml 0,1n standart  $KMnO_4$  eritmasi bilan titrlash egri chizig'ini chizing.

Titrlash jarayonining ayrim nuqtalarida oksidlash potensiali quyidagicha hisoblanadi:

1) Titrlangunga qadar potensialni hisoblash:

$$E = 0,77 + \frac{0,058}{1} Ig \frac{[Fe^{3+}]}{[Fe^{2+}]}$$

$Fe^{2+}$  ioni eritmasida oz miqdorda  $Fe^{3+}$  ioni bo'ladi, uni konsentratsiyasini aniqlash qiyin, shuning uchun oksidimetrik titrlashda bu nuqtadagi potensial hisobga olinmaydi.

2) Ekvivalent nuqtagacha bo'lgan potensial quyidagicha hisoblanadi. Faraz qilaylik, 100 ml 0,1 n  $FeSO_4$  eritmasiga 50 ml 0,1 n  $KMnO_4$  qo'shildi. Unda eritmada uchta ion  $Fe^{2+}$ ,  $Fe^{3+}$  va  $Mn^{2+}$  bo'ladi.  $MnO_4^-$  esa juda kam.

$$[Mn^{2+}] = \frac{50 * 0,1}{150} - [MnO_4^-] = \frac{5}{150}$$

$$[Fe^{3+}] = \frac{50 * 0,1}{150} - [MnO_4^-] = \frac{5}{150}$$

Unda

$$[Fe^{2+}] = \frac{100 * 0,1}{150} - \left\{ \frac{50 * 0,1}{150} - [MnO_4^-] \right\} = \frac{5}{150}$$

Muvozanatdagi  $[Fe^{2+}]$  va  $[Fe^{3+}]$  ionlari konsentratsiyasi qiymatini quyib quyidagini olamiz:

$$E_{Fe^{3+}/Fe^{2+}} = 0,77 + 0,059 Ig \frac{5}{150} * \frac{150}{5} = 0,77B$$

Demak, eritmaning 50 % titrlanganda sistemaning oksidlanish – qaytarilish potensiali aniqlanadigan oksidlovchi – qaytaruvchi juftining standart potensialiga teng.


Agar 100 ml 0,1 n  $FeSO_4$  eritmasiga 99,9 ml 0,1 n  $KMnO_4$  qo'shilganda eritmada  $Fe^{2+}$  ionining hajmi 0,1 ml qoladi:

$$[Fe^{3+}] = \frac{99,9 * 0,1}{199,9} - [MnO_4^-] = \frac{9,99}{199,9}$$

$$[Fe^{2+}] = \frac{100 * 0,1 - 99,9 * 0,1}{199,9} - [MnO_4^-] = \frac{0,01}{199,9}$$

$$E_{Fe^{3+}/Fe^{2+}} = 0,77 + 0,059 Ig \frac{99,9/199,9}{0,01/199,9} = 0,95B$$

3) Ekvivalent nuqtada muvozanat qaror topganda



$$E_{Fe^{3+}/Fe^{2+}} = 0,77 + 0,059 Ig \frac{[Fe^{3+}]}{[Fe^{2+}]}$$

$$E_{MnO_4^- + 8H^+; Mn^{2+} + 4H_2O} = 1,51 + \frac{0,059}{5} Ig \frac{[MnO_4^-]}{[Mn^{2+}]} [H^+]^8$$

Tenglamani hadma – had qo'shsak

$$6E = 0,77 + 5 * 1,51 + 0,059 Ig \frac{[Mn^{2+}][MnO_4^-]}{[Fe^{2+}][Mn^{2+}]} [H^+]^8$$

Ekvivalent nuqtada har bir  $[MnO_4^-]$  ioniga 5  $[Fe^{3+}]$  ioni to'g'ri keladi.

$$[Fe^{2+}] = 5 [MnO_4^-] \quad [Fe^{3+}] = 5 [MnO_4^-]$$

Ikkinchisini birinchisiga bo'lganda

$$\frac{[Fe^{3+}]}{[Fe^{2+}]} = \frac{[Mn^{2+}]}{[MnO_4^-]} \quad \text{va} \quad \frac{[Fe^{3+}]}{[Fe^{2+}]} = \frac{[MnO_4^-]}{[Mn^{2+}]} = 1$$

$\lg 1 = 0$  unda,

$$6 E = 0,77 + 5 * 1,51$$

$$E = \frac{0,77 + 5 * 1,51}{6} = 1,39 B$$

4) Ekvivalent nuqtadan keyingi nuqtalarda potensialni hisoblash. 100 ml 0,1 n FeSO<sub>4</sub> eritmasiga 100,1 ml KMnO<sub>4</sub> qo'shilganda [MnO<sub>4</sub><sup>-</sup>] ionlari ortiqcha bo'lib [Fe<sup>2+</sup>] ionlari juda kam bo'lganda

$$[Fe^{3+}] = \frac{100,1 * 0,1}{200,1} - [Fe^{2+}] = \frac{10,01}{200,1}$$

$$[Mn^{2+}] = \frac{100,1 * 0,1}{200,1} - [Fe^{2+}] = \frac{10,01}{200,1}$$

$$[MnO_4^-] = \frac{100,1 * 0,1 - 100 * 0,1}{200,1} + [Fe^{2+}] = \frac{0,01}{200,1}$$

Bu nuqtadagi sistemaning potensiali:

$$E_{MnO_4^- + 8H^+ : Mn^{2+} + 4H_2O} = 1,51 + \frac{0,059}{5} Ig \frac{0,01/200,1}{10,01/200,1} = 1,51 + \frac{0,059}{5} Ig 10^{-3}$$

$$= 1,48 B$$

Olingan natijalar 17-jadval ko'rinishida yozilib, titrlash egri chizig'i chiziladi (1-chizma).


**100 ml 0,1 FeSO<sub>4</sub> eritmasini 0,1 n KMnO<sub>4</sub> eritmasi bilan [H<sup>+</sup>] = 0,1 g – ion/l bo'lganda titrlashda oksidlanish – qaytarilish potensiali qiymatining o'zgarishi.**

17-jadval

| Titrlash bosqich | qo'shilgan KMnO <sub>4</sub> hajmi (ml) | Ortiqcha, mlhisobida |                   | $\frac{[Fe^{3+}]}{[Fe^{2+}]}$ | $\frac{[MnO_4^-]}{[Mn^{2+}]}$ | Hisoblashlar     | , V   |
|------------------|---|----------------------|-------------------|-------------------------------|-------------------------------|------------------|-------|
|                  |   | eSO <sub>4</sub>     | KMnO <sub>4</sub> |                               |                               |                  |       |
| 2                | 50                                      | 0                    | -                 | 50/50=1                       | -                             | E = 0,77         | 0,77  |
|                  | 91                                      |                      | -                 | 91/9=10                       | -                             | E=0,77+0,059lg10 | 0,829 |
|                  | 99                                      |                      | -                 | 99/1=100                      | -                             | E=0,77+0,        | 0,889 |

|   |       |    |      |               |                   |                                    |
|---|-------|----|------|---------------|-------------------|------------------------------------|
|   |       |    |      |               | 059lg100          |                                    |
|   | 99,9  | ,1 | -    | 99,9/0,1=1000 | -                 | E=0,77+0,<br>059lg1000 0           |
| 3 | 100   |    | -    | -             | -                 | $E = \frac{0,77 + 5}{5 + 1}$ 1,387 |
|   | 100,1 |    | 0,1  | -             | 0,1/100=<br>0,001 | $E = 1,51 + \frac{0,0}{1}$ 1,475   |
|   | 101,0 |    | 1,0  | -             | 1/100=0,<br>01    | $E = 1,51 + \frac{0,0}{1}$ 1,486   |
|   | 110   |    | 10   | -             | 10/100=<br>0,1    | $E = 1,51 + \frac{0,0}{1}$ 1,498   |
|   | 200   |    | 1 00 | -             | 100/100<br>=1     | $E = 1,51 + \frac{0,0}{1}$ 1,510   |

Potensial sakrama  $1,48 - 0,95 = 0,53$  V ga teng.



1 - chizma. pH = 1 bo'lganda FeSO<sub>4</sub> ning KMnO<sub>4</sub> bilan titrlash egri

chizig'i.

Chizmadan ko'riniб turibdiki, oksidimetrik titrlash egri chizig'i, shakl jihatidan neytrallash usulidagi titrlash egri chizig'iga o'xshaydi, ya'ni ekvivalent nuqta yaqinida potensial keskin o'zgaradi. Lekin ekvivalent nuqtaga yaqin bo'limgan nuqtalarda chiziq bir tekis o'zgarib boradi, ya'ni E ning qiymati titrlash vaqtida juda sekin o'zgaradi.

### **Mustaqil yechish uchun masalalar**

1. KMnO<sub>4</sub> ning 0,05 n 750 ml eritmasini tayyorlash uchun necha gramm KMnO<sub>4</sub> kerak bo'ladi (kislotali muhitda).
2. Titri 0,001617 g/ml bo'lgan 1250 ml KMnO<sub>4</sub> eritmasini tayyorlash uchun necha gramm KMnO<sub>4</sub> olingan.
3. Titri temir bo'yicha  $T_{KMnO_4/Fe} = 0,005885 \text{ g/ml}$  bulgan 2,5 l eritma tayyorlash uchun necha gramm KMnO<sub>4</sub> olingan (kislotali muhitda).
4. 0,1 n NaNO<sub>2</sub> eritmasini 0,1 n KMnO<sub>4</sub> (pH=0) eritmasi bilan titrlashda, ekvivalent nuqtadagi oksidlanish-qaytarilish potensialini qiymatini hisoblang.
5. 0,1 n FeSO<sub>4</sub> eritmasini 0,1 n K<sub>2</sub>Cr<sub>2</sub>O<sub>7</sub> eritmasi bilan titrlashda, ekvivalent nuqtadagi oksidlanish-qaytarilish potensialini hisoblang.
6. 500 ml hajmli kolbada 1,8750 gr KMnO<sub>4</sub> eritildi. Eritmaning kislotali va ishqoriy muhit uchun normalligi va titrini hisoblang.
7. 0,0205 n KMnO<sub>4</sub> eritmasining a) H<sub>2</sub>C<sub>2</sub>O<sub>4</sub>; b) Fe bo'yicha titri hisoblansin.
8. Na<sub>2</sub>C<sub>2</sub>O<sub>4</sub> ning 20 ml eritmasini titrlash uchun (kislotali muhitda)  $T_{KMnO_4} = 0,005751 \text{ g/ml}$  KMnO<sub>4</sub> eritmasidan 21,40 ml sarf bo'lди. Na<sub>2</sub>C<sub>2</sub>O<sub>4</sub> kerakligini hisoblang.
9. Kaliy permanganatning normalligi 0,01200 n ga teng. Uning Na<sub>2</sub>C<sub>2</sub>O<sub>4</sub>\*2H<sub>2</sub>O va KNO<sub>3</sub> bo'yicha titrini hisoblang.
10. 15 ml H<sub>2</sub>C<sub>2</sub>O<sub>4</sub> ni titrlash uchun 0,01830 n eritmasidan 8,3 ml KMnO<sub>4</sub> sarflandi. Oksalat kislotasining normal konsentratsiyasini va KMnO<sub>4</sub> bo'yicha titrini hisoblang (pH < 7).

11. 500 ml 0,1 n kaliy permanganat  $\text{KMnO}_4$  eritmasini tayyorlash uchun necha gramm  $\text{KMnO}_4$  kerak.

12. Titri  $T = 0,001616 \text{ g/ml}$  bo'lgan 2,5 l  $\text{KMnO}_4$  eritmasini tayyorlash uchun necha gramm  $\text{KMnO}_4$  kerak.

13. 1,5 l 0,2 n oksalat kislota  $\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4$  eritmasini tayyorlash uchun oksalat kislota kristallogidratidan  $\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  necha gramm kerak.

14.  $\text{KMnO}_4$  eritmasining titrini aniqlashda ishlataladigan  $\text{Na}_2\text{C}_2\text{O}_4$  ning 100 ml 0,1 n eritmasini tayyorlash uchun necha gramm  $\text{Na}_2\text{C}_2\text{O}_4$  dan olish kerak.

15. 1,3444 g  $\text{Na}_2\text{C}_2\text{O}_4$  200 ml li o'lchov kolbasiga solinib eritma tayyorlandi, shu eritmani 20,00 ml ni titrlash uchun 20,04 ml  $\text{KMnO}_4$  eritmasidan sarf bo'ldi.  $\text{KMnO}_4$  ning normal konsentratsiyasini, titrini va titrini natriy oksalat bo'yicha hisoblang.

16. 0,1518 g  $\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  ma'lum hajmdagi suvda eritildi. Eritmani titrlash uchun 24,56 ml  $\text{KMnO}_4$  sarf bo'ldi.  $\text{KMnO}_4$  ning;  $N_{\text{KMnO}_4}$ ;  $T_{\text{KMnO}_4}$  hisoblang.

17. 1,5022 g  $\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$  200 ml li o'lchov kolbasiga eritildi. Shu eritmaning 20 ml ni titrlash uchun  $\text{KMnO}_4$  ning 23,66 ml eritmasidan sarf bo'ldi.  $N_{\text{KMnO}_4}$ ;  $T_{\text{KMnO}_4}$ ;  $T_{\text{KMnO}_4/\text{H}_2\text{O}_2}$  hisoblang.

18. Tarkibida 46 %  $\text{Na}_2\text{SO}_3$  bo'lgan namuna 250 ml li o'lchov kolbasiga eritildi. Shu eritmaning 25 ml ni titrlash uchun 0,0520 n  $\text{KMnO}_4$  eritmasidan 50 ml sarf bo'ldi. Namunaning massasini hisoblang.

19. Tarkibida 50 % temir bo'lgan namunani titrlash uchun 0,1000 n  $\text{KMnO}_4$  eritmasidan 20,00 ml sarf bo'ldi. Analiz uchun olingan namunaning massasini hisoblang.

20. Temir sim sulfat kislotada eritilib qaytarildi. Hamma eritmani titrlash uchun 42,33 ml 0,05795 n eritmasidan sarf bo'ldi. Eritmadagi temirning miqdorini aniqlang.

21. 0,2500 g temirrudasi  $H_2SO_4$  va  $H_3PO_4$  aralashmasiga eritildi. Eritmani titrlash uchun 28,05 ml 0,09956 n  $KMnO_4$  eritmasi sarf bo'ldi. Ruda tarkibidagi  $Fe_2O_3$  ning foiz miqdorini hisoblang.

22. Tarkibida 0,09 % marganes bo'lgan 0,2500 g po'lat  $H_3PO_4$  va  $H_2SO_4$  aralashmasiga eritildi. Eritmadan gaz ajralib chiqishi to'xtaguncha ammoniy persulfat va kumush nitrat qo'shib qaynatildi. Keyin bu eritmaga 25 ml 0,1000 n temir(II)-sulfat qo'shildi. Ortiqcha temir(II) 0,0833 n  $KMnO_4$  eritmasi sarf bo'ladi.

23. 7,1506 g texnik temir kuporosi  $FeSO_4 \cdot 7H_2O$  200 ml li o'lchov kolbasida eritildi. Shu eritmaning 20,00 ml ni titrlash uchun 19,62 ml 0,0983 n  $KMnO_4$  eritmasida sarf bo'ldi. Namuna tarkibidagi  $FeSO_4 \cdot 7H_2O$  ning foiz miqdorini hisoblang.

24. Texnik 3,6769 g natriy sulfit  $Na_2SO_3 \cdot 7H_2O$  250 ml li o'lchov kolbasida eritildi. Shu eritmaning 25,00 ml titrlash uchun 24,00 ml titri  $T_{KMnO_4/Fe} = 0,005588 \text{ g/ml}$   $KMnO_4$  eritmasidan sarf bo'ldi.  $Na_2SO_3 \cdot 7H_2O$  ning foiz miqdorini hisoblang.

25. 5 g pergidrol 500 ml li o'lchov kolbasida eritildi. Shu eritmaning 25,00 ml ni titrlash uchun 0,1142 n  $KMnO_4$  eritmasidan 37,42 ml sarf bo'ldi. Pergidrol tarkibidagi vodorod peroksidining  $H_2O_2$  foiz miqdorini hisoblang.



26. 25,00 ml  $CaCl_2$  eritmasiga 40,00 ml 0,10005 n ammoniy oksalat  $(NH_4)_2C_2O_4$  qo'shildi. Cho'kma filtrlanib muzli suv bilan yuvildi. Filtrat (ortiqcha  $(NH_4)_2C_2O_4$  15,00 ml 0,0200li  $KMnO_4$  eritmasi bilan titrlandi.  $CaCl_2$  ning massasini hisoblang.

27.  $J^-$  ionni bilan  $Fe^{3+}$  ionni ta'sirlashib  $J_2$  va  $Fe^{2+}$  ionlarini hosil qilish reaksiyasining muvozanat doimiyligini hisoblang.

28.  $20^\circ C$  haroratda  $2HNO_2 + J^- + 2H^+ \leftrightarrow 2NO + J_2 + H_2O$  reaksiyaning muvozanat doimiyligini hisoblang.

29. Yodning vodorod sulfid  $H_2S$  bilan ta'sirlashish reaksiyasining muvozanat doimiyligini hisoblang.

30. Quyidagi reaksiyalarning muvozanat doimiyligi hisoblang:



31. Eritma muhitining pH<sub>I</sub> = 7,8 bo'lgan reaksiya:

$\text{HAsO}_2 + \text{J}_2 + 2\text{H}_2\text{O} \leftrightarrow \text{H}_3\text{AsO}_4 + 2\text{J}^- + 2\text{H}^+$  uchun muvozanat doimiyligini hisoblang.

32. 0,8432 g Na<sub>2</sub>S saqlagan 200 ml eritmaning, 20,00 ml ni tirlashda 14,42 ml 0,1 n yod eritmasidan sarf bo'lgan. Na<sub>2</sub>S ning % miqdorini hisoblang.

33. 3,7900 g FeCl<sub>3</sub> saqlagan 250 ml eritmaning, 25 ml ga kislotali muhitda KJ qo'shildi. Ajralib chiqqan yod 32,10 ml 0,1 n Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub> eritmasi bilan titrlandi. FeCl<sub>3</sub> ning % miqdorini hisoblang.

34. 500 ml 0,02 m eritmasida necha gr Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub> borligini va eritmaning yod bo'yicha titrini hisoblang.

35. 10 ml yod eritmasini titrlash uchun 13 ml 0,0266 n Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub> eritmasi sarflandi. Yod eritmasining normalligini va Na<sub>2</sub>S<sub>2</sub>O<sub>3</sub> bo'yicha titrini hisoblang.

